


A.E. MAMATOV

# ZAMONAVIY LINGVISTIKA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**A.E. MAMATOV**

# **ZAMONAVIY LINGVISTIKA**

**TOSHKENT  
"NOSHIR"  
2019**

**UO'K 81.075.8**  
**KBK 81.2-5**  
**M 23**

**Mamatov, A. E.**

Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma/ A.E.Mamatov. —  
Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2019. 168 bet.

***Taqrizchilar:***

J.A. Yoqubov — filologiya fanlari doktori, professor,

R.X. Shirinova - filologiya fanlari doktori, professor,

Mazkur o'quv qo'llanmada lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, bu yo'nalish haqidagi dastlabki ilmiy g'oya va fikrlar, til-madaniyat- etnos triadasining talqini, moddiy va ma'naviy madaniyat haqidagi fikrlar, lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistikaning bir-biri bilan kesishgan nuqtalari, lisoniy shaxs tushunchasi va uning tuzilishi hamda til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita ekanligi yoritilgan. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslikning eng muhim tushunchalari lingvokulturema va logoepistema, lingvokulturema va konsept, so'z va lingvokulturema haqida fikr yuritilgan hamda leksik va frazeologik birliklarning va badiiy matning milliy-madaniy aspektlari kabi mavzular o'rin olgan.

Darslik lingvomadaniyatshunoslik masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha ilm sohiblari, tilning tabiati, inson hayotidagi mohiyatini o'rganish istagidagi kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Milliy universiteti  
Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan



**UO'K 81.075.8**  
**KBK 81.2-5**

**ISBN 978-9943-5484-4-2**

© A. Mamatov, 2019,  
© "Noshir" nashriyoti, 2019.

## SO'ZBOSHI

Keyingi yillarda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqida gumanitar yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar ko'p yozishmoqda. Bu tabiiy jarayon, chunki madaniyat inson va jamiyatning eng muhim ko'rsatgichi, belgisi bo'lsa, til esa inson va jamiyat hayotida muloqot vositasi sifatida eng zarur va muhim o'rin egallaydi. Agar til madaniyatning bir qismini tashkil qilsa, madaniyat esa tilda zohir bo'ladi.

Til va madaniyatning o'zaro hamkorligini nafaqat lingvokulturologiya fani, balki etnolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvokonseptologiya, lingvopersonologiya va antropolingvistika fanlari ham o'rganadi.

Lingvomadaniyatshunoslik esa til birliklarining madaniy ahamiyatga ega bo'lgan jihatiga, xalqning madaniy dunyosiga til prizmasi orqali nigoh tashlashga, shuningdek, til madaniyatni ro'yobga chiqaruvchi vosita ekanligiga asosiy e'tibor qaratadi.

Mazkur qo'llanmada lingvomadaniyatshunoslikning ba'zi nazariy masalalari, ularga bog'liq bo'lgan tushunchalar hamda til birliklarining milliy-madaniy o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, bu yo'nalish haqidagi dastlabki ilmiy g'oya va fikrlar, til-madaniyat- etnos triadasining talqini, moddiy va ma'naviy madaniyat haqidagi fikrlar, lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistikaning bir-biri bilan kesishgan nuqtalari, lisoniy shaxs tushunchasi va uning tuzilishi hamda til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita ekanligi ushbu qo'llanmaning birinchi bobida yoritilgan.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning munosabatini aks ettiruvchi mustaqil fan yo'nalishi ekanligi, bu fanning eng muhim tushunchalari lingvokulturema va logoepistoema, lingvokulturema va konsept, so'z va lingvokulturema va tag yoki

qo'shimcha (fon) bilimlar haqidagi fikrlar, talqinu tavsif va tahlillar qo'llanmaning ikkinchi bobida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ayni shu bobda til va madaniyatning ta'lim tizimidagi ahamiyati, lisoniy va lingvomadaniy interferentsiya tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Mazkur qo'llanmaning uchinchi bobi leksik va frazeologik birliklar milliy-madaniy aspektda, so'zning semantik tarkibi, leksik fon so'zning madaniyat bilan aloqa ko'rsatgichi sifatida, nominatsiya usullari va so'zning ichki shakli, so'z badiiy obrazlar va timsollarning milliy o'ziga xosligi, frazeologik birliklarning milliy-madaniy jihatlari va badiiy matning milliy-madaniy aspektlari kabi mavzularga bag'ishlangan.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning asosiy g'oyalari va tushunchalari, til birliklari talqini jarayonida qo'llaniladigan metodlar bilan yaqindan tanishib olish insonning mental dunyosiga, uning rang-barang hissiyotlariga va xususiyatlariga chuqur kirib borish imkonini beradi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyasi va ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan g'oyalar singdirilgan.

Lingvomadaniyatshunoslikning eng muhim qirralaridan biri mashhur tilshunos Yu.N.Karaulov ta'kidlaganidek, bu — tilga bo'lgan muhabbatimizdir. Ana shu muhabbat til va madaniyat fenomenlarining juda nozik va murakkab jihatlari o'rganib olishimizga ko'mak beradi. Ushbu ish tilshunoslikda birmuncha yosh bo'lgan sohaning hali tadqiq etilmagan jihatlari to'ldiradi, degan umiddamiz.

Muallif mazkur qo'llanmani tayyorlashda o'zining qimmatli maslahatlarini va yordamini ayamagan taqrizchilar, filologiya fanlari doktori, professor J.A.Yoqubov va filologiya fanlari doktori, professor R.X.Shirinovalarga o'zimning samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

A.Mamatov.

## **I-Bob. TIL — MADANIYAT HODISASI SIFATIDA**

### **1.1 Lingvokulturologik bilimlar tarixidan**

Tilning ko‘plab aspektlarini tushunish uning ijtimoiy-antropologik tabiatini o‘rganish bilan bog‘liq. XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan zamonaviy antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, til — bu shunday organki, inson u yordamida o‘z fikrini ifodalaydi (*Die Sprache ist das bildene Organ des Gedanken*) deb ta’kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko‘p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi milliy tasavvurni ko‘rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilma-xilligi asosida bo‘lishini aytadi. V.Gumboldt tillarni qiyoslashga alohida e’tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, “ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir. Bunda, barcha til tadqiqotlarining yakuniy maqsadi va mazmuni yotadi”(Gumboldt, 1985).

V.Gumboldtning g‘oyalari Amerika olimlari tomonidan samaraliroq qo‘llangan. Mashhur “*Rukovodstvo po Yazikam amerikanskix indeytsev*” kitobining yaratilishida ishtirok etgan F. Baosdan boshlab, XX asr boshida AQShda til haqidagi fanda antropologik yo‘nalish shakllangan edi. Amerika antropolingvistlari o‘z ishlarida tilni madaniyat hodisalari bilan bir qatorda o‘rganish lozimligini ta’kidlashgan. Mazkur yo‘nalishning amaliy maqsadi yozuvsiz xalqlar tillarini ta’riflash va klassifikatsiya qilishdan iborat edi.

Ma’lumki, B.Uorf va E.Sepir amerika antropolingvistikasida F.Baos ta’limotining davomchilari bo‘lishgan. B.Uorf V.Gumboldtning, har bir til borliqni o‘ziga xos ifodalab, til sohibi u orqali olamni ko‘rish va mazmunlashtirishga majbur, degan fikrini davom ettirgan. Bu masalada u F.Baosning ilmiy fikrlaridan uzoqlashib ketdi. B.Uorf “*Rukovodstvo*”ga yozgan kirish so‘zida, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa o‘zaro bog‘liq emas, agar tilning holati haqiqatdan ham madaniyatga bog‘liq bo‘lsa, u holda madaniyatning holati bevosita til bilan aniqlanmaydi, deb yozadi.

E. Sepir esa bir necha bor, madaniyatning tilga va tilning madaniyatga ta'siri bir xil emasligi haqidagi F. Baosning fikrlarini inkor qilgan. Shunga qaramay, Sepir ham Gumboldt va Uorf fikrlariga yaqin mulohaza yuritgan. Darhaqiqat, Sepir va Uorfning ta'limotlari Amerika tilshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. D.Xaymsdan boshlab AQShda etnolingvistika (amerikaliklar uni sotsiolingvistika deb ataydi) maktabi shakllandi.

"Etnolingvistika" termini birinchi bo'lib ingliz olimi B. Malinovskiy ishlarida qo'llanilgan. Amerika etnolingvistlarining vazifasi, bir tomondan til orqali o'rganilayotgan madaniyatni tasvirlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, "sof lingvistika" doirasidan chiqish va til hizmat qilayotgan jamiyat va madaniyatga uning munosabatini o'rganish edi. Boshqacha qilib aytganda, Sepir-Uorf gipotezasidagi til madaniyatining inikosi haqida aytilgan qismi rivojlangan. Ammo gipotezaning "tilning unda gapiruvchilar xulqi va tafakkuriga ta'siri" haqidagi qismi ham be'etibor qolmadi. Bunda, Amerika olimlari lingvistikaning o'z doirasidan chiqishi, uning yondosh bilimlar sohasida integratsiyalashuvi lozimligini anglab etdilar.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ularning ishlarida antropolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika va boshqa terminlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, D.Xayms o'zining til haqidagi izlanishlarini antropologik lingvistika deb atadi va uni antropologik kontekstda til haqidagi izlanishlar deb ta'riflaydi. Bugun Xayms maktabi "kommunikativ etnografiya" sifatida mashhur bo'lib, uning maqsadi lingvistika, etnologiya, psixologiya va sotsiologiya sohasidagi tadqiqot natijalarini birlashtirishdan iborat.

XX asrning boshlaridan etnolingvistika Evropaga yoyila boshladi. Bunda lingvist, antropolog va etnograf B.Malinovskiyning hissasi katta bo'lgan. Agar Amerika etnolingvistlari o'z nazariy goyalarini, asosan, amerika xindulari tili materialida ishlab chiqishgan bo'lsa, Evropa olimlarining e'tibori esa Osiyo va Afrika xalqlari tiliga va madaniyatiga qaratilgan edi.

Bir muncha keyinroq, Fransiyada sharq xalqlarining tili va madaniyatini o'rganish bo'yicha etnolingvistik yondashuvlar paydo bo'ldi. Bunda zamonaviy fransuz olimlari o'zlarining ustozlari

fikrlariga, ya'ni fanda til haqidagi ijtimoiy yo'nalishga (sotsiolingvistikaga) asos solgan F.de Sossyur, A.Meye, M.Triol, M.Grane, M.Lixardt, M.Koen va boshqalarning tadqiqot ishlari natijalariga tayandilar. Ularning barchasi, ya'ni lingvistlar va etnograflar bir necha bor, aniq tillar va madaniyatlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganish muhimligini ta'kidlaydi.

K.Levi-Stross, M.Ui, J.Kalam-Griol, M-P.Ferri kabi frantsuz etnolingvistlarining tadqiqotlari alohida qiziqish uyg'otadi. Quyidagi nuqtai nazar u yoki bu darajada ularning hammasiga tegishlidir: "ma'lum ijtimoiy guruhning olamni ko'rishi, uning madaniyati orqali bo'ladi: tabiatning aynan bir hodisalari turli guruhlar tomonidan turlicha qabul qilinadi va turlicha tavsiflanadi. Muammo shundan iboratki, muayan ijtimoiy guruh tomonidan foydalanilayotgan til, o'sha ijtimoiy guruhning olam haqidagi hususiy tasavvurlarini qay darajada ifodalaydi", degan savolga javob topishdir. Fransuz etnograflari fikriga ko'ra, olamni ko'rish tajriba (madaniyat) bilan belgilanadi, til esa ma'lum darajada olamni anglash xususiyatini aks ettirishga qodir.

Til haqidagi Rossiya fanida etnolingvistik yo'nalish keng namoyon bo'ladi. Etnolingvistika mavzusi Rossiyada F. Buslaev, A. Afanasev, F. Potebnya va boshqalar ishlarida muhokama qilinganiga qaramay, uning tadqiqot ob'yekti 1965 yil V.A.Zvegintsev tomonidan aniqlab berildi. V.Zvegintsev etnolingvistikani "o'z e'tiborini tilning madaniyati, xalq an'analari, jamiyatning ijtimoiy strukturasi va xalq bilan aloqasini o'rganishga qaratuvchi yo'nalish", deb tavsiflaydi.

Hozirgi davrda etnolingvistika haqidagi tasavvurlar ancha aniq bo'lib qoldi. "Lingvistik entsiklopedik lug'at"da mazkur yo'nalishga keng va tor nuqtai nazardan ta'rif berilgan. Asosiy e'tibor til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosiga qaratilgan. Etnolingvistika "tilshunoslikda tilning madaniyatga munosabati, tilning funksiyalashuvi va evolyutsiyasida til, etnik va etnopsixolingvistik faktorlarning ta'sirini o'rganuvchi yo'nalish, agar yanada kengroq tushuncha bilan ifodalansa, etnolingvistika lingvistik metodlar yordamida madaniyatning "tarkibiy plani", masalan, psixologiya va mifologiyada ularning formal namoyon



bo'lish usullariga bo'ysungan holda o'rganuvchi kompleks fan sifatida qaraladi" va mavjud farqlarni o'rganadi.

D.Xayms aniqlik kiritadiki, etnolingvistika inson psixologiyasi, ijtimoiy guruhlar va etnoslar madaniyatining turli tavsifini o'rganishga asoslanadi. Ko'plab boshqa etnolingvistlar, uning tadqiqot ob'yektini, o'ziga xos xususiyatlarni ajratmasdan va etnosni sotsiumga qarama-qarshi qo'ymasdan, "til-madaniyat-jamiyat" trixotomiyasi ichidagi aloqalardan iborat deb hisoblaydilar.

Til, madaniyat va jamiyatning o'zaro aloqasi tadqiqoti "til va tafakkur", "til va insonning ma'naviy faoliyati", "til va inson xulqi", "til va jamiyat", "til va inson qimmatini" kabi katta muammolar doirasida olib boriladi. Bu muammolarning har tomonlama o'rganilishi, til va madaniyatning o'zaro aloqasi jabhasini ajratish muhimligiga olib kelishi tabiiy, va shu asosda, ko'plab gnoseologik, psixologik, etnik va ijtimoiy hodisalarning til aspekti orqali erishiladigan, lingvognoseologiya, psixolingvistika, etnolingvistika va sotsiolingvistikada birlashmagan holda mavjud bir qator muammolarni o'rganish mumkin bo'lgan lingvokulturologiya yo'nalishini paydo qiladi.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati spetsifik muammolarining lingvokulturologiya tomonidan echilishi ikki yo'nalishda amalga oshishi mumkin. Bir tomondan, lingvokulturologiya madaniy faktorning tilga ta'siri (kulturologik lingvistika muammolari), boshqa tomondan, til faktorining madaniyatga ta'siri (lingvistik kulturologiya muammolari) ni o'rganadi. Shunga qaramay, lingvokulturologiyaning ob'yekti, ularning bir-biriga munosabatida, til va madaniyatdan iborat bo'lishi lozim. Tadqiqot ob'yektining yaxlitligi haqidagi bunday tasavvur muammolar kompleksini yagona ilmiy-nazariy yondashuv asosida echish imkonini beradi.

Lingvokulturologik problematikaning murakkabligi jamiyatda til va madaniyatning ko'p qirrali foydalanilishi va gradatsiyasi evaziga amalga oshadi. Birinchidan, til va madaniyat o'zida umuminsoniy kategoriyalarni ifodalaydi (til va madaniyat insoniyatning spetsifik sifati tarzida); ikkinchidan, ular individga nisbatan o'ziga hos munosabatga ega (madaniyat va til insonning

jamiyatda mavjud bo'lish usuli sifatida); uchinchidan, bu kategoriyalar etnos bilan bog'liq (madaniyat va til etnosning spetsifik sifati); to'rtinchidan, til va madaniyatning o'zaro ta'sir spetsifikasi ularning turli ijtimoiy guruhlariga munosabatida namoyon bo'ladi (til va madaniyat ijtimoiy-guruhiy tasavvur va qadriyatlarining ifoda vositasi sifatida).

Antropologik parametrlar (insoniyat, etnos, sotsium, individ)ning o'zgarishi bilan bog'liq holda, til va madaniyatning o'zaro munosabatlar muammosini fanning turli sohalariga gnoseologiyada (madaniyat-til-inson tafakkuri), etnografiyada (madaniyat-til-etnos), sotsiologiyada (madaniyat-til-sotsium) va psixologiyada (madaniyat-til-individ xulqi) o'rganish imkoni paydo bo'ladi.

Lingvokulturologiya sohasiga bag'ishlangan ishlarni kuzatish natijalari asosida aytish mumkinki, XX asr oxirlariga kelib Rossiyada (Moskvada) to'rtta lingvomadaniyatshunoslik maktablari shakllandi, bular quyidagilar:

I. Akademik Yu.S. Stepanov asos solgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Metodologik jihatdan bu maktab fransuz tilshunosi E. Benvenist konsepsiyasiga yaqin turadi. Uning maqsadi - madaniyat konstantlarini diaxronik aspektida tavsiflash. Ularning mohiyati turli davrlarga mansub matnlar yordamida, ya'ni faol til sohibi emas, balki boshqa, xolis kuzatuvchi tomonidan tekshiriladi. Lingvomadaniy yo'nalishining taraqqiyotida Yu.S. Stepanovning bir necha marta nashr etilgan "Konstanto': Slovar russkoy kulturo'" (1997) kitobi katta rol o'ynadi. Lug'at konsepsiyasi, eng avvalo, til ma'lumotlari - rus madaniyatshunosligining asosini tashkil qiluvchi tayanch so'zlar hamda, yozuvchilar, jamoat arboblari asarlarida va boshqa lug'atlarda aks etgan iboralar, tushunchalar etimologiyasi tahliliga asoslangan. Har kanday jamiyatga tegishli butun ma'naviy madaniyat ma'lum darajada shu konseptlar bilan ish ko'radi, bunda hali yozuv bo'lmagan davrdagi madaniyat tarixi arxeologik yodgorliklarda emas, hind-yevropa madaniy merosida mavjud leksik birliklarning asl ma'nolarida mujassamlangan. Azaldan shakllanib kelgan lug'at tarkibi rus madaniyatining haqiqiy mulki hisolanadi.

II. N.D.Arutyunova rahbarligidagi lingvomadaniyatshunoslik maktabi bo'lib, bu maktab vakillari qadimgi turli davrlarda bitilgan matnlardan olingan universal tushuncha va terminlarni tadqiq qiladi. Bu atamalar ham real til sohiblari emas, balki tashqi kuzatuvchilar tomonidan tekshiriladi, tadqiq qilinadi. Bu faoliyat Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti qoshidagi N.D.Arutyunova boshqarayotgan "Tilning mantiqiy tahlili" muammolar guruhi chop etayotgan nashrlarda o'z aksini topmoqda. Bu nashrlardan biri "Kulturno'e konsepto'" (1991) deb nomlanadi. Kitob so'z boshisida N.D.Arutyunova yozadi: "Odam madaniyat kontekstida yashaydi. Uning uchun bu kontekst "ikkinchi voqelik" sanaladi. O'sha odam tomonidan yaratilgan va uning uchun bilish ob'yektiga aylangan tabiat chetdan o'rganiladi, madaniyat esa — ichdan. U g'ayriixtiyoriy refleks tufayli idrok etiladi.

Uni tushunib olish uchun madaniyat metatilini va, eng avvalo tilda mavjud "haqiqat" va "ijod", "burch" va "taqdir" "yaxshilik" va "yomonlik", "qonun" va intizom, go'zallik" va "erk" kabi ijtimoiy-madaniy tushunchalarning dolzarb hisoblangan tayanch so'zlarini tahlil qilish lozim

• Dunoqarashni ifodalovchi tushunchalar shaxsga va jamiyatga tegishli, milliy o'ziga xos va umuminsoniy bo'lishi mumkin. Ular tafakkurning turli kontekstlari, ya'ni badiiy va ilmiy tiplarida mavjud. Xuddi shunday tushunchalarni madaniyatshunoslar, din tarixchilari, antropologlar, faylasuflar va sotsiologlar tomonidan o'rganishni taqozo etadi.

III. V.N. Teliya asos solgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. U Rossiya va xorijda frazeologizmlarni lingvomadaniy tahlil qilish Moskva maktabi nomi bilan tanilgan. Til mohiyatini jonli til egalarining refleksiyasi nuqtai nazaridan, ya'ni madaniy semantikani bevosita til va madaniyat sub'yekti orqali o'rganadi. Bunday konseptsiya A.Vejbitskayaning so'zlovchining nutqiy mental holati imitatsiya haqidagi pozitsiyasiga yaqin. V.N. Teliya til birliklarining milliy-madaniy tahlil usuli — ichki kuzatuvchi nuqtai nazaridan, til "ichidan" tekshirishni taklif qiladi. Masalan, xasta vijdon"

kollokatsiyasini lingvomadaniy aspektda talqin qilishda muhimi nafaqat modallik (xuddi vijdon xastaligi tufayli azob chekayotganday), balki ruhiy diskomfort, chunki ahloqiy nuqson, ishonchsizlik, manzur ko'rmaslik jamiyat tomonidan norozilik bildirishga sabab bo'ladi.

IV. Rossiya Xalqlar do'stligi universitetida V.V.Vorobev, V.M. Shaklein va boshqalar tomonidan yaratilgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Bu maktab vakillari E.M.Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar konseptsiyasini rivojlantiradi. Bu yo'nalish ekvivalenti bo'lmagan til birliklari - muayyan madaniyatgagina xos, spetsifik, kumulativ (to'plovchi, til egalarining tajribasini mustahkamlovchi) funksiyali (garmoshka, bit chelom va boshqa. realemalarni), so'zlovchining ongida bor so'zlarni o'rganadi. Tillar o'rtasidagi farq madaniyatlar o'rtasidagi farqqa bog'liq, ular leksik birliklar va frazeologizmlar materialida yaqqol ko'rinadi, chunki tilning nominativ vositalari ko'proq g'ayrilisoniy voqelik bilan bog'liq.

Oxirgi paytlarda milliy o'ziga xos voqelikni o'rganishda sinxronik yo'nalish ham faol rivojlanmoqda. Rus tilshunosligida bu sohadagi muhim tajribalardan biri 1998 yildan chiqa boshlagan "Rol chelovecheskogo faktora v yazike. Yazik i kartina mira") nomli kollektiv monografiyada o'z aksini topgan. Monografiya mualliflari B.A. Serebrennikov, V.I. Postovalova, E.S.Kubrakova, V.N. Teliya va boshqalar "olamning lisoniy manzarasi" ilmiy konseptini ajratishning to'g'riligini asoslab, bu fenomenni til sistemasining barcha sathlari - leksika va frazeologiya, so'z tuzilishi va grammatik sistemalari tahlili orqali yechishni kun tartibiga qo'ydilar. Bu jamoaviy ishning asosiy g'oyalarini quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiqdir:

- til (va tafakkur)da konseptual va asl lisoniy, universal va milliy-spetsifik mazmunni farqlash lozim;

- har qanday tilning asosiy xususiyatlari (modallik, personallik, predikativlik, deysis, polisemiya va b.) antropologik bog'liqdir;

- tilning real faoliyatida g'ayrilisoniy omillar (bilishlik, regulyativ, sotsiomadaniy) ko'pincha, lisoniy, strukturaviy qonuniyatlar o'rni muhimroq;

“Lisoniy belgida olamni konseptuallashtirish” (Yu.D. Apresyan) sodda va g‘ayriixtiyoriy xarakterga ega. Bu “olamning lisoniy manzarasi”ni formal-mantiq apparatini bilishda voqelikni ongli mavhumlashtiruvchi “olamning ilmiy manzarasi”dan farqlaydi; “lisoniy tafakkur”da sub’yektiv bo‘yoqdor, aniq obrazli komponent benihoya katta kuchga ega.

Shunga ko‘ra olamning lisoniy manzarasi olamni o‘rganishda umumiy va milliy spetsifik dialektikaga ega. Ularning birligi quyidagicha ta‘minlanadi: a) hamma uchun bir xil tabiiy xususiyatga ega yashash muhiti, ya‘ni odamlar yashaydigan olamning yagonaligi bilan; b) olamda borliqni tasavvur qilishning universal, odamlar uchun eng muhim binar oppozitsiyadagi (masalan, baland-past, hayot-o‘lim, sifat-son va b) insoniyat uchun yo‘nalish yo‘sinlarining birligi bilan; v) tilning o‘ziga xos vakolatlari birligi (lisoniy kompetentsiya) - odamning genetik tabiatiga ko‘ra qobiliyati.

Ammo bunda odamning kognitiv faoliyatida har holda bosh o‘rin tutadigan umumiylik emas, balki lingvomadaniy farqlar katta rol o‘ynaydi, olamning milliy o‘ziga xos manzarasi sifatidagi olamning lisoniy manzarasi shu ma’noda uning konseptual manzarasiga ziddir.

Moskva semantika maktabining asoschilaridan biri Yu.D. Apresyan tomonidan ishlab chiqilgan olamni lisoniy konseptlashtirish nazariyasi til leksikasi va grammatikasida aks etgan milliy o‘ziga xoslikning tahlilidagi sinxronik yo‘nalishning rivojiga qo‘shilgan muhim ulushi bo‘ldi. U “Leksika va grammatikada deysis va olamning sodda modeli” (“Deysis v leksike i grammatike i naivnaya model mira”) (1986) deb nomlangan ishida ta’kidlashicha, har qanday tabiiy tilda uning egalariga majburan yuklangan olamni idrok etishning muayyan tarzi aks etadi. Olamni tushunish tarzida har bir til uchun uning o‘zigagina xos butun kollektiv falsafa mujassam bo‘ladi. Bunda tilda aks etgan voqelik timsoli ko‘pgina muhim tafsilotlari bilan olamning ilmiy manzarasidan farqlanadi [Apresyan Yu.D.1986: 5-33].

Hozirgi zamon tilshunosligida semantika va pragmatika, tillarni qiyosiy o‘rganish, poetika va mantiq kabi fanlar o‘zaro aloqalarining

jadallashgan jarayonida har bir tabiiy tildagi semantik materialni sistemali va milliy o'ziga xos tarzda tashkil etish g'oyasi yanada kuchli ichki turtki bo'ldi. Leksik va grammatik ma'nolarni to'liq tavsiflash asosida olamning sodda modelini qayta qurish semantika va leksikografiya oldidagi vazifalardan biridir. Bunda olamning sodda modeli tushunchasi semantikaga yangi ajoyib imkoniyatlar beradi

Lisoniy mentalitet muammosini o'rganishda asosan A. Vejbitskaya, Yu.D. Apresyanlarning sinxronik yo'nalishdagi ilmiy ishlari va boshqa olimlarning yuqorida iqtibos qilingan "Klyuchev'i e idei russkoy kartini' mira" kitobi tayanch bo'ladi. Bu o'rinda mentalitet va lisoniy mentalitet tushunchalari haqida fikr yuritish o'rinli deb hisoblaymiz.

Mentalitet so'zi taxminan XX asrning 20-yillaridan boshlab maxsus tarixiy (L.Fevr va M.Blok) va madaniy-antropologik (L.Levi-Bryul) ilmiy atama sifatida qo'llanib kelinadi. Bugungi kunda bu termin ancha ommalashib, hammaga ma'qul bo'ldi va rasmiy tus oldi. Bu tushuncha, ma'lum darajada inson faoliyatining moddiy va ma'naviy sohalari bilan bog'liq ma'nolarni ifodalayapti.

Shu bilan birga mentalitet tushunchasini aniqlash masalasi odamlar nutq faoliyatidagi barcha e'tiborli so'z va iboralar kabi maxsus termin sifatida emas, balki oddiy so'z sifatida. Lekin ongimizda mentalitet degan tushunchada, so'zsiz, azaldan bizning ekzistentsial, ya'ni hissiyotli tajribamizdagi aniq voqelik sezilib turadi

Olamning (konseptual) manzarasi dunyoqarashga nisbatan muayyan samarali bo'lganligidan o'zining konstitutiv belgilari tufayli ham mentalitetga o'xshab ketadi. Bu mavzuga oid terminologik munozaralardan voz kechib, shartli ravishda olamning (konseptual) manzarasini kognitiv komponent sifatida, mentalitet tushunchasining muhim qismi namoyon bo'layotganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Mentalitet va madaniyat. Mentalitet tushunchasi ilmiy konsept sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida ilmiy bilimlarni ommalashtirish bosqichini o'tab, shunga muvofiq madaniyat tushunchasidan ancha keyin shakllandi. Shuning uchun ham

ikkala, ya'ni mentalitet va madaniyat kategoriyalarining bir qator kontekstlarda berilishi, qaysidir ma'noda bir-birining o'rnini bosuvchi o'ziga xos "semantik interferentsiya yuzaga keltiradi.

Madaniyatni aniq bir maqsad yo'lida o'rganish XVIII asrda ma'rifatchilik ijtimoiy-siyosiy oqimi arboblari - Frantsiyada J.-J. Russo, D. Didro, P. - A.D. Golbax, Germaniyada I.G. Gerder va boshqalar tomonidan boshlandi. XIX asr o'rtalaridan asta-sekin uning o'rganish sohaları paydo bo'la boshladi.

Madaniyat so'zi, kelib chiqishiga ko'ra, lotin tilidagi ko'p ma'noli "haydamoq", "ishlov bermoq," ma'nosidagi solo, solli, sillit, solere fe'llariga taqaladi. Manba lotin tilidagi so'zning semantik imkoniyatlaridan kelib chiqib, hindevropa tillaridagi bugungi iste'moldagi kultura (madaniyat) so'zi yuzaga keldi. Qadimgi lotin tilidayoq; bu so'zda, birinchidan, "zemlepushestvo" (er haydash) - "vozdelo'vanie" ("er haydash"), "obrabato'vanie zemli" ("ishlov berish), ikkinchidan, "vospitanie lyudey" ("vozdelo'vanie", "obrabato'vanie" - "odamlarni tarbiyalash") Q "uxod, popechenie, zabota" (parvarish qilish, g'amxo'rlik qilish, tavajjuh - ishlov berishning bir turi) Q obrazovannost (bilimlilik) - "vozdelo'vanie" - parvarish qilish natijasi) kabi ma'nolarni anglatgan.

Bu so'zning keyingi ma'nolari keng va umumlashma sifatida "har qanday mashg'ulot, biror narsani o'rganish" ma'nosida bo'lsa, bundan tashqari, hatto "kiyim- kechak", "zeb-ziynat"; "go'zallik", "nafosat" so'zlarini ham ifodalaydi. Shu ta'riflar barobarida "sig'inish", "e'tiqod", "ibodat" kabi diniy-mifologik xarakterdagi ma'nolar yaratiladi.

Bular hozirgi davr nutq amaliyotida shu o'zakdan yasalgan turli so'z va so'z birikmalaridan iboratdir: qishloq xo'jalik madaniyati, biologiyada madaniy bakteriyalar, dinda kult (diniy marosim), etika (odobnoma)da - xulq-atvor madaniyati, madaniyatli (tarbiya ko'rgan) kishi va hokazo reflekslarni hosil qiladi). So'zning haqiqiy ma'nosini aniqlash jarayonida uning qandaydir urug'doshlik semasi - biror narsaga ishlov berish, etishtirmoq g'oyasini uqish mumkin.

Shunday qilib, madaniyat deganda moddiy bo'lmagan, olamni tartibga soluvchi, uni qadriyatlarining insoniy tizimiga kirituvchi kuch tushuniladi. Shu bois sinxronik lug'aviy ma'no doirasida ham madaniyat insonning olamdagi faoliyati tarzining ham moddiy (binolar, mehnat qurollari, erga ishlov berish, kasb-hunar natijalari va b.), ham ma'naviy (urf-odatlar, marosimlar, an'analar, xulq-atvor) andazalarini bildiradi.

Rus tilining izohli lug'atlari, shuningdek, o'zbek tilining izohli lug'atlari ham bu so'zning asosan quyidagi ma'nolarini qayd qiladi: 1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. 2. Madaniyatlilik. Biror kishining ijtimoiy va aqliy rivojlanganlik darajasi. 3. Biror narsaning oliy darajasi, yuksak daraja, mahorat".

Madaniyat tushunchasining ko'lamini keng. U o'zining tipik xarakteriga ko'ra turli xususiyat kasb etadi: madaniyat - butun insoniyat fenomeni; u biror jamiyat yoki davlat madaniyati; alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar, jamiyatlar, siyosiy harakatlar, diniy oqimlar, kasb-hunar uyushmalari, yoshu qarilik va jins kategoriyalari va umuman shaxs madaniyati.

Agar biz mentalitet va madaniyat tushunchalarini semantik jihatdan ko'rib chiqsak, ular o'rtasida qanday munosabat borligiga ishonamiz. Milliy til vositasida o'zaro bog'liq bo'lgan mentalitet va madaniyat inson ma'naviy faoliyatining bir sohasi sifatida namoyon bo'ladi. V.V.Kolesovning fikricha, "til millat madaniyatini aks ettirib, o'sha til sohiblari - xalq mentalitetini shakllantirishda ishtirok etadi".

Mentalitet, eng avvalo, olamni his etishning g'ayriixtiyoriy yo'li, uni bavoisita idrok etish va xulq-atvor andazasi sifatida milliy madaniyatning vujudga kelishi va evolyutsiyasining asosiy manbasi, sharoiti va bevosita omili rolini o'ynaydi. Mentalitet, mohiyatan, madaniyatlar kurashi, ular almashinuvining o'zgarmas poydevori xuddi shu mentalitet madaniyatning faollik ko'rsatkichi, milliy madaniy qadriyatlar "tanlash" faktorini boshqaradi. Shu jihatdan madaniyat qandaydir natija, mentalitetning ko'rinishi rolini bajaradi.

Ikkinchidan, madaniyat tomonidan tayyorlangan, tanlab olingan va orttirilgan xalq tajribasi, qadriyatlari, ideallari va boshqa



asosiy kategoriyalari o'zgacha madaniy ta'sir, krossmadaniy o'zaro bog'liqlik kabi mentalitetning tadrijiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, bugun G'arb madaniyatining dunyo bo'ylab keng yoyilishi ma'lum darajada o'tmishdan meros qolgan ayrim belgilari bilan rus mentalitetiga ham ta'sir qilmay qolmayapti. Shu ma'noda mentalitet ham etnos madaniy faolligi, madaniyatlar kurashi va muloqotining o'ziga xos natijasi sifatida yaqqol ko'rinadi.

Biroq, mentalitet, madaniyat va til o'rtasida bevosita aloqa yo'q. Hammaga ma'lumki, turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar (Boltiqbo'yi mamlakatlari, Shimoliy Amerikadagi indeetslar) o'xshash madaniyatga ega bo'lishlari mumkin va, aksincha, bir tilli etnik guruhlar (Rossiyaning rus tilda so'zlashuvchi shimolidagi pomorlar va janubda istiqomat qiluvchi Don kazaklari) o'z madaniyati bilan bir muncha farq qiladilar. Mentaliteti bo'yicha Britaniya inglizlari va amerikaliklar, bir tilda so'zlashsalar ham o'zlarining madaniy xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadilar.

Shunday qilib, aytish mumkinki, etnosning ijtimoiy tafakkurida ikkita qatlam borga o'xshab ko'rinadi: a) mentalitet - ancha teran, tan olinmagan, odam irodasi va istaklari bilan bog'lanmagan qatlam; b) madaniyat - qisman moddiy va ma'naviy faoliyatda namoyon bo'ladigan, qisman uning sub'yekti tomonidan reflekslangan, "ishlov berilgan", "ajratilgan" qatlam.

Bunda ikkala qatlam ham ifodaning belgisi shakliga ega, alohida tarzda tashkil etilgan axborot maydoni yoki "semiotik makon", "assotsiativ-semantik makon"ga ega. Shuning uchun ikkala qatlam "madaniyatning konseptosferasi" yoki millatning "madaniy kodi" degan tushunchalarni birlashtiradi.


Shunday qilib, "madaniyat konseptosferasi" tushunchasining belgisini ifodalovchi "madaniyat tili" muhim tasavvurlar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlarini bildiruvchi mentalitet bilan uning "ifoda plani", simvollar, soha tushunchalarini anglatuvchi madaniyat o'rtasidagi qandaydir semantik makonni ifodalaydi.

## 1.2. Til-madaniyat-etnos

Etnolingvistika uchun madaniyat va tilning etnos bilan o'zaro ta'siri muammosi ma'lum darajada munozarali hisoblanadi. Til va madaniyat o'zlarining barcha qo'llanishlarida ijtimoiy tuzilmalarni differentsiyalash, alohida sotsiumlarni integratsiyalash va qarshi qo'yishga qodir deb hisoblanadi. Til va madaniyatning etnosga, ya'ni umumiy tarixiy kelib chiqish, birga yashash, yagona madaniyat va yagona til bilan birlashgan insonlar jamoasiga munosabatida yorqin namoyon bo'ladigan muhim funktsiyasi shundan iborat. Barcha komponentlar orasida til nisbatan ifodali etnik funktsiyaga ega bo'lishiga qaramay, uning etnik belgi sifatidagi roli etnografik va lingvokulturologik bilimlar bilan bahslashadi. Til, etnosning muhim tavsifi bo'lishiga qaramay, uni belgilashi va istalgan etnosning differentsiyalovchi belgisiga ega bo'lishi shart emas degan nuqtai nazar mavjud. Madaniyatga kelsak, uning etnosni aniqlashdagi farqli roli ikkilanish tug'dirmaydi. Etnik madaniyat tarkibiga bir tomondan umuminsoniy, ya'ni madaniyatlararo qadriyatlar, boshqa tomondan, etnik madaniyatning spetsifikasini tashkil qiluvchi, mazkur madaniyat shakllanishi qadriyatlari kiradi.

Etnotil vazifasiga olamning ayrim milliy manzarasida, ya'ni tarixiy paydo bo'lgan konseptual-emotsional olamni anglash tizimida namoyon bo'ladigan etnik ongning aks etishi va mustahkamlanishi kiradi. Mazkur holatda til "o'zining mavjudligida xalqning mehnat, jamoa, madaniy hayotining spetsifik sharoitlariga qarzdor bo'lgan mazkur xalqning tarixiy tajribasi orqali ishlab topilgan realiyalar, abstrakt tushunchalar va boshqalarni ifodalaydi va mustahkamlaydi". Aynan shu nuqtai nazardan til etnosning spetsifik belgisi, uni tashkil etuvchi elementlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Til va etnos orasidagi o'zaro kelib chiqish F. de Sossyur tomonidan quyidagicha e'tirof etilgan: "ommaviy munosabatlar tilning umumiyligini yaratish va o'zining ayrim chiziqlarini shu umumiy tilga kiritish tendensiyasiga ega va aksincha, tilning umumiyligi qandaydir darajada etnik birlikni yaratadi" (F. de Sossur)



Etnomadaniyat bilan aloqa natijasida etnotilda bir tomondan umuminsoniy orientatsiya belgilari, boshqa tomondan-milliy spetsifik chiziqlar shakllanadi. Til yordamida ular avloddan-avlodga etkaziladi, ko'payadi, o'zgaradi va qisman yo'qolib boradi. Bunda til elementlarining o'zlari madaniyatning konkret asarlarida, masalan, an'anaviy marosimlarni o'tkazishda afsona, ertak, masal, ilmiy va adabiy asarlarda hosil qilinadi. Bu holatda til o'zini etnosning madaniy qadriyatlarini bezash vositasi, an'anaviy harakatlarni jo'natish va olamni milliy-spetsifik ma'nolashtirish quroli sifatida namoyon qiladi.

Lingvokulturologiya uchun o'ta muhim muammo o'zga madaniyatni o'zlashtirishda tilning rolidir. Gap shundaki, til eng avvalo, istalgan etnomadaniyatni emas, balki u bilan bog'liq etnomadaniyatni ifodalash uchun yaratiladi. Bundan tashqari, istalgan til u yoki bu darajada boshqa madaniyatni ifodalashga qodir. Til nafaqat uni yaratgan xalq, balki boshqa milliy guruhlar, boshqa madaniyat namoyandalari, boshqa til sohiblari tomonidan ham foydalanilishi mumkin. Mazkur qarrma-qarshi fikrlilik qator muammolarni tug'diradi: boshqa madaniyat vakillariga shu tildan foydalanish imkonini nima beradi? Bu foydalanishning chegarasi qanday? Boshqa xalqlar tomonidan foydalanilganda til qanday o'zgaradi? O'zi uchun yangi bo'lgan tildan foydalanayotgan xalqning madaniyati qanday o'zgaradi?

Bu va bunga o'xshash savollar, natijada, bir jamiyatning boshqa jamiyat tiliga madaniy-tarixiy mazmunni "o'tkazish" muammosida birlashadi. Bu muammoning turli aspektlari qadimdan faylasuf, etnolog va tilshunoslarning diqqatini tortib kelgan. Ularga qiziqishning jonlangani oxirgi vaqtlarda sezilarli bo'lib qoldi, chunki ular zamonaviy dunyoda sezilarli faollashgan madaniy aloqalar asosini tashkil qiladi. Tilning o'zga madaniyatni o'zlashtirishdagi ishtiroki muammosi lingvofalsafiy xarakterga ega, chunki gap, tabiiy til qancha va qanday tarzda u yoki bu madaniyat tarkibini egallash va uzatishga qodirligi, tilda inson faoliyatining spetsifik va universal belgilarining qanday birikishi haqida bormoqda.

Ommaviy va individual olam manzarasi ikki qismdan iborat: umumiy tasvir, ya'ni ratsional, emotsional-baholi va xulq-atvor bilimlari tizimidan va til tasviri, ya'ni simvolik belgilar va ularni qo'llash maqsadidan iborat.

Bu ikki tizim orasidagi munosabatlar xususiyati shundan iboratki, til belgili tizim sifatida olamning mos umumiy manzarasini to'liq aks ettirmaydi. Birinchisi va ikkinchisi orasida doim ozmi-ko'pmi bo'linishlar mavjud. Umumiy manzara lisoniy manzaradan boyroq, bu til va madaniyat funktsiyalashuvining ko'plab sharoitlari bilan aniqlanadi.

Umumiy manzaraning til tarkibi bilan qoplanmagan qismi, hali tilga kirmagan yangi belgilar yaratiladigan nutqda, tilda mavjud birliklarning tarkibi esa, ma'no yordamida til mazmunining uning konkret qo'llanilishida amalga oshadi. Ma'no shaxsiy, ijtimoiy-guruhiy, milliy yoki madaniyatlararo mazmun egallashi mumkin. Til tizimida esa ma'lumki, bu nutq ma'nolari nutq tizimida amalga oshadigan umumiy miqdori olam haqidagi tasavvurlarni hamma vaqt va to'la adekvat aks etmaydigan invariant tizimlar ko'rinishida mustahkamlanadi.

Olamning til, nutq va umumiy manzaralarining o'zaro nomutanosibligi til, nutq va madaniyatdan ijodiy foydalanishning bir vaqtda oqibati va sharoitidir. Istalgan inson yangi artefakt (qo'ldan yaratilgan narsa) yaratishi, u haqidagi g'oyani nutqda amalga oshirish imkoniga ega, shundan so'ng u ommaviy dalil sifatida ma'lum bir tilda mustahkamlanishi va ma'lum madaniyatning daliliga aylanishi mumkin. Artefaktlarning nafaqat ishlab chiqarilishi, balki ularning amalda qo'llanilishi ham ijodiy xarakterga ega: ishlab chiqaruvchi bilan bir xil miqdordagi bilim va malakaga ega iste'molchi, qayta o'ylab chiqaruvchi madaniyat elementlarini shaxsiy, avval egallagan bilim va ko'nikmalar prizmasi orqali o'zlashtiradi.

Madaniyatni ijodiy tushunishning mexanizmi aynan shundadir. Boshqacha aytganda, anglashning o'ziga xos usuli sifatida tushunish madaniyatning qayta mazmunlashishi bilan, uni narsa va hodisalar tabiati haqidagi individual va ijtimoiy tasavvurlar orqali o'tkazish bilan bog'liq. Madaniyatni tushunish

oddiy bo'lmagan, tushunish, artefaktlarning mazmunli imkoniyatini rivojlantiradi, natijada bilimlarning o'sishi, ya'ni madaniyatning rivojlanishi sodir bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy fanda til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi keng muhokama qilinmoqda, chunki madaniyatlar aloqasi tillar aloqasi bilan kuzatiladi va aksincha, tillar aloqasi madaniy almashinuv fonida amalga oshiriladi va ikkinchi jarayon o'zgarishsiz birinchisiga ta'sir qiladi.

O'z vaqtida yagona lingvokulturologik yondashuv M. Ui tomonidan Afrika bilingvizmining lingvokulturologik rivojlanish jarayonini tahlil qilishda qo'llanilgan edi. M. Ui yangi til va madaniyatlarning jamiyat tomonidan o'zlashtirilishining murakkab tasvirini qiyoslab o'rgangan, bunda u bilingvizm — bu ikki xalq madaniyatlari aloqasi, hamkorligi degan fikrga kelgan. “Bilingvizmni” madaniy assimilyatsiya “tushunchasi bilan bog'liqlikda o'rganish haqqoniy hisoblanadi, — deb yozadi u, — chunki til plyuralizmi madaniy plyuralizm bilan birikadi”. (M. Ui)

Haqiqatan, ko'plab mamlakatlarning lingvistik holati dunyoning turli hududlarida til va madaniyat assimilyatsiyasining u yoki bu bosqichini bosib o'tganligini ko'rish mumkin. Etnomadaniyat ichida yopiq muloqot va etnotil yordami bilan ba'zan boshqa etnik guruh til va madaniyatning qisman o'zlashtirilishiga almashtiriladi. Bu hodisa, o'z navbatida, ona tilining asta-sekin rad etilishiga, yangi madaniyatni o'zlashtirish jarayonining chuqurlashuvida yangi tilda muloqot qilishga o'tishga olib keldi. M. Ui bilingvizmda lingvokulturologik holatlarning quyidagi tiplarini ajratadi:

Qat'iy belgilangan texnologik sohada chegaralangan madaniy assimilyatsiya bilan bir vaqtda amalga oshadigan bilingvizm. Bunda begona tildan ona tiliga mazkur iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq terminlarning kirishi kuzatiladi. Bu holat sporadik (nodoimiy, vaqtinchalik) bilingvizm deb ataladi.

Madaniy assimilatsiyaning nisbatan chuqurroq darajasidagi bilingvizm, ya'ni o'zlashtirish doirasiga ko'rsatilgan hududlardan tashqari etnosning iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotlarning an'anaviy

tizimlari jalb qilinadi. Bu holat yoʻnalgan bilingvizm deb ataladi. Bunda cheklangan masshtabda boʻlsa ham, ona tilidan foydalanish davom etadi. Oʻzlashtirilayotgan madaniyat bilan bogʻliq terminlarning begona tildan keng oʻzlashtirilishi (kirib kelishi) jarayoni bir vaqtda amalga oshiriladi.

Etnik jamiyatning barcha aʼzolari yangi tilni egallay boshlagan bilingvizm. Shu vaqtda, avval ona tilida mavjud terminlarning, soʻng ijtimoiy etnik va diniy terminologiyaning asta-sekin unutilishi boshlanadi. Bu holat umumiy bilingvizm deb ataladi.

Odatda madaniyatshunoslik nazariyalarida tilga madaniyatning elementi sifatida muhim oʻrin ajratiladi. Odamlar ham klassik, ham zamonaviy madaniyatning boyliliklariga faqat til yordamidagina erisha oladilar. Bu hol tashkiliy metodologik xatti-harakat rolini oʻynaydi.

Maʼlum munosabatda boʻlgan til, uning birliklarining taʼsiri ostida inson “olam manzarasini”, shu jumladan, madaniy olam manzarasini shakllantiradi. Albatta, maʼlum til tushunchalarida til va tafakkur butun borliqni shakllantiradi, deb hisoblash notoʻgʻri boʻlgan boʻlur edi. Bu masalaning subʼyektiv tomoni. Tilning sharofati bilan olamni maʼlum darajada tafakkur qilishga ragʻbatlantiruvchi butun borliq esa xalqning ongida konkret til shakllarida namoyon boʻladi.

Til — ijtimoiy hodisa. Uni ijtimoiy munosabatlarsiz, boshqa odamlar bilan muloqot qilmasdan egallash mumkin emas. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, agar uning asosiy soʻz boyligi, nutq qoidalari va tarkibi juda yoshlikdan egallangan boʻlsa, garchi bunda inson tajribasining juda koʻp jihatlari butunlay unutib yuborilgan boʻlsa ham, ona tilida gapirishni unutish aslo mumkin emas. Bu tilning inson ehtiyojlari uchun yuqori darajada moslanuvchanligidan dalolat beradi.

Insonlar predmetlar olamini aynan shu tarzda tashkillashtirishga kelishib olganliklari sababli ham til butun borliqdagi predmetlar haqida tushunchalarni shakllantiradi va ularga mazmun bagʻishlaydi. Bu kelishuv ona tili modellarida shartli belgilab qoʻyilgan. U ayniqsa tillarni qiyosiy tahlil qilganda yaqqol namoyon boʻladi. Masalan, ranglar, qarindoshlik

munosabatlari turli tillarda turlicha ifodalanadi; ba'zan bir tilda bo'lgan so'z boshqa tilda butunlay yo'q bo'ladi.

Tilni ishlatishda uning asosiy grammatik qoidalariga amal qilish talab etiladi. Til odamlarning tajribasini tashkillashtiradi va umumlashtiradi. Shuning uchun butun madaniyat kabi u rasm bo'lib qolgan ma'nolarni shakllantiradi. Ishtirokchilar qabul qiladigan, ular tomonidan ishlatiladigan va ular tomonidan tushuniladigan ma'nolarning mavjudligidagina kommunikatsiya mumkin bo'ladi. Haqiqatan ham, kundalik hayotda insonlarning munosabati odamlar bir-birini tushunayotganligiga ishonchi komilligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Yagona til, shuningdek, jamiyatning jipsligini ta'minlaydi. U odamlarga bir-biriga ishonchi yoki bir-biriga noroziligi tufayli o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, bitta tilda gaplashuvchi odamlar o'rtasida deyarli avtomatik tarzda o'zaro bir-birini tushunish va hamdardlik yuzaga keladi. Til odamlarning jamiyatda qaror topgan an'analar, kundalik voqealar haqidagi umumiy bilimlarini aks ettiradi. Qisqacha qilib aytganda, til insonlar guruhining birligi, guruhning bir xilligi hissiyotini shakllantirishga yordam beradi. Til har doim xalqning o'ziga xosligini, olamni milliy his etishni hamda milliy madaniyatni o'zida mujassamlantiradi.

Demak, uni tovushlar va belgilar yordamida amalga oshiriladigan, mazmuni shartli bo'lgan, ammo ma'lum tuzilishga ega kommunikativ tizim deb ifodalash mumkin.

Metodologik jihatdan muhim fikrni alohida ta'kidlab o'tish lozim: turg'un tizim bo'lgan til madaniyat normalari o'zgarishlarini shu zahotiyloq, kechiktirib bo'lmaydigan darajada emas, balki o'z qadriyatlari xazinasida mustahkamlashdan oldin yangiliklarni sinchiklab "filtrlab", ularning "barqarorligini" tekshirib to'playdi. Mana shu asosda til hodisasi madaniyatning bir fenomeni sifatida u yoki bu fakti biriktirib qo'yishining ob'yektiv mezonini bilib olish mumkin.

### 1.3. Moddiy va ma'naviy madaniyat

O'zimizga savol berib ko'raylik: "Nima uchun "madaniyat" termini shu darajada bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ko'p ta'riflarni keltirib chiqardi?" Aytish mumkinki, eng avvalo, madaniyat ko'pincha xalqlarning donoligini tushunib yetishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. To'g'risi, madaniyat nafaqat inson faoliyatining eng yuqori sohasi, balki o'zida chin insoniylikni qaror topshirishga yo'naltirilgan real kuchdir. Qo'shilishingiz mumkin, biz uchun "aql madaniyati", "sezgi madaniyati", "o'zini tutish madaniyati", "xalq madaniyati", "madaniyatli kishi" va boshqalar kabi so'z birikmalari odatdagidek eshtiladi.

Jamiyatning va insonning barcha hayoti va faoliyati jabhasi ichigacha hech bir mubolag'asiz kirib ketgan hodisaning bu qadar ko'p qirraliligini nima bilan izohlash mumkin?

Fikrimizcha, bu madaniyat inson turmushining teranligi va qiyos qilib bo'lmaydigan darajadaligini ifodalashidir. Inson qay darajada beqiyos va turli-tuman bo'lsa, madaniyat ham shu darajada ko'p qirralidir. Madaniyatning ko'plab izohi bizni cho'chitmasligi kerak (gumanitar fanlar doirasida bugungi kunda olimlar madaniyatning 500 dan ziyod ta'rifini aniqlaganlar), modomiki, madaniyat degan bu darajadagi murakkab hodisani keng qamrab olgan va barchalar tomonidan qabul qilinayotgan ta'riflarni ifodalab berishning imkoniyati yo'q.

Madaniyatning mohiyati haqida, uning rivojlanishining kelajagi haqida xilma-xil, ba'zan bir-biriga zid fikrlar bildiriladi. Madaniyatning umumiy tushunchasi haqida so'z yuritishganlarida, odatda bu (madaniyat) — odamlarning hayoti va faoliyatini, ularning o'zaro munosabatlarini tashkillashtirishning tiplari va shakllarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va madaniy qadriyatlarda o'z aksini topgan jamiyat taraqqiyotining, ijodiy kuchlarning, inson qobiliyatlarining ma'lum tarixiy bosqichi, deya ta'kidlaydilar.

Madaniyat tushunchasi shu darajada keng va shu darajada serqirraki, shuningdek, o'z ichiga shu darajada ko'p sonli turli-tuman komponentlarni qamrab olganki, bu boylikning hammasini



bitta ta'rifga umumlashtirish ancha murakkab yoki uning mazmunini toraytirish ham mumkin emas, yoki bo'lmasa, umumiy ta'rif bilan chegaralanish ham mantiqqa ziddir. Umuman aytganda, madaniyat — bu takomillashtirishga, tabiat tomonidan bevosita berilgan narsani o'zgartirishga yo'naltirilgan kishilarning turli xil yondashuvlarining natijasi deb qaraladigan murakkab hodisadir. Shu ta'rifga suyangan holda tadqiqotchilar madaniyat deganda inson tomonidan yaratiladigan va ishlatiladigan hamma narsalarni tushunadilar.

Madaniyat — bu ma'naviy qadriyatlarning rivojlana borayotgan tizimi hamda butun jamiyatning g'oyaviy va axloqiy muhitini boshqarib turadigan kuchidir. Bu kabi tafsilotlarni qancha kerak bo'lsa shuncha ko'p keltirish mumkin. Madaniyat insoniyatning juda qadim zamonlardan tortib to bizning hozirgi kunimizgacha bo'lgan fanidagi, adabiyotdagi va san'atdagi, falsafa va etikadagi, din va siyosatdagi eng ulkan yutuqlarini birlashtiradi. Uning holatiga, uning rivojiga nafaqat alohida bir shaxsning, balki butun bir xalqning va hatto butun insoniyatning, umuman bashariyatning ma'naviy kuch-qudratiga bog'liq bo'ladi. Madaniyatdan boshqa qaysi joyda xalq ruhi yashashi va namoyon bo'lishi mumkin?

"Madaniyat" termini ostida odatda uchta asosiy ma'noni yoki ma'nolar guruhini tushunishadi.

Birinchidan, madaniyat tushunchasi inson hayotidagi meros qilib olinadigan barcha moddiy va ma'naviy jihatlarni o'z ichiga qamrab oluvchi texnik atama sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ikkinchidan, madaniyat ijtimoiy sinf va uzoq muddatli an'analar qaror toptirgan, ko'p hollarda bir andazadagi munosabatlar asosida o'zlashtirilgan bilim va tajribalar majmuasi yotgan qandaydir o'ta individual xushaxloq shartli idealga aloqador bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, madaniyat deganda milliy ruhni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotining muayyan bir bosqichi deb tushuniladi. Demak, madaniyat konsepsiyasi bitta termin ostida umumiy ko'rsatmalarni, konkret bir xalqqa dunyoda o'z o'rnini aniqlab olish imkoniyatini beradigan hayotga qarash va taraqqiyotning o'ziga xos ko'rinishlarini qamrab olishga yo'naltirilgan.

Madaniyatni o'zlashtirish o'rgatish orqali amalga oshiriladi. U biologik yo'l bilan egallanmaganligi uchun, har bir avlod madaniyatni qayta tiklaydi va uni keyingisiga uzatadi. Boshqa madaniyatlar bilan umumlashtirilishi va aloqalar natijasida u nafaqat qabul qilinib olinadi, balki u odamlarda ma'lum bir guruhga tegishlilik hissinini shakllantiradi. Aftidan, bitta madaniy guruh a'zolari ko'p deganda bir-birini tushunishni his etadilar, bir-birlariga ishonadilar, qayg'udosh bo'ladilar. Ularning umumiy hissiyotlari o'ziga xos leksikada, slengda, jargonda, sevimli taomlarda, modada va madaniyatning boshqa jihatlarida o'z ifodasini topgan.

Madaniyat har qanday xalq oldida turgan insonlarning mavjudligi mazmuni haqidagi savolga javob berishga har doim ham qodir bo'lmagan. Odamlar har doim madaniyatga u o'zining ilohiy nurlari bilan ularning yo'lini yoritadi degan umid va ishonch bilan murojaat qiladilar. Aynan madaniyat umumbashariy qadriyatlarning tarqatuvchisi bo'lib qolayotgani bejiz emas. Shu tufayli ham u doimiy va o'tkinchi o'rtaqidagi eng ideal bog'lovchi zveno vazifasini o'taydi.

Jamiat o'zini madaniyatda namoyon qiladi va o'zini anglaydi. Madaniyat — uning o'zini fahmlashi, mavjudligining zaruriy sharti va natijasidir. Unga asosan jamiyatning ijtimoiy aksi (portreti) va madaniy qiyofasi haqida hukm chiqarish mumkin. Jamiat faqatgina madaniyatni martabaga ko'tarsagina va insonga uning muvaffaqiyatlaridan foydalanish, o'zini uning bunyodkori va xo'jayini deb his qilish imkonini bersagina, madaniyatli bo'ladi.

*Madaniyatning milliy xarakteri tillarning va turli xalqlarning madaniyatini birgalikdagi harakatini, ularning jahon madaniyati fundamenti asosida, butun bashariyatning muvaffaqiyatlari asosida ilgari qaror topgan o'zaro boyishini nazarda tutadi. Har qanday o'ziga xoslikdan va bir tomonlamalikdan holi bo'lgan maqsadli mustaqil hayot butun insoniyatga tarqaladi, bir-biridan ma'naviy oziqlanadigan turli madaniyatlar bilan aloqaga kirishadi.*

Madaniy qadriyatlarning har tomonlama hisobga olinishi va saqlanishi hamda yangilarining shakllanishi millatga hayotni va uning tilda qanday aks etishini bir xilda tushunishga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy hayotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi umumbashariy qadriyatlarning almashinuviga bir necha bor olib

kelgan. Bu jarayon hech qachon tugamaydi, u til vositalarini — chuqur ijtimoiy mazmunni tarqatuvchi soʻz va iboralarning ishlatilishida oʻz ifodasini topadi.

“Madaniyat” tushunchasining umumiy taʼrifi haqida gapirilganda, odatda taʼkidlashadiki, bu moddiy va maʼnaviy mehnatning mahsulotlarida, ijtimoiy normalar tizimi va rasm-rusumlarda, maʼnaviy qadriyatlarda, odamlarning tabiatga, oʻz atrofidagilarga va oʻz-oʻziga munosabatlari majmuida ifodasini topgan inson hayoti va faoliyatini tashkil qilish va taraqqiy ettirishning oʻziga xos uslubidir.

Biz uchun madaniyat — bu inson hayotini tashkil etish, ijtimoiy hodisalarning umumiy sinfi; milliy shaxsga va eng avvalo, uning ichki maʼnaviy dunyosiga eʼtibor; shaxsning moddiy va maʼnaviy ishlab chiqarish sohasidagi ijodiy faoliyati usullarining majmuasi; moddiy va madaniy boyliklarni taqsimlash va isteʼmol qilish usullari, insoniyatning progressiv rivojlanishiga koʻmaklashadigan ijtimoiy oʻzaro munosabatlarni tashkil etish yutuqlaridir.

Madaniyat umumiy yoʻl-yoʻriqlar, hayotga nazar va konkret xalqqa dunyoda oʻz oʻrnini aniqlab olish imkoniyatini beradigan taraqqiyotning oʻziga xos koʻrinishlarini bitta tushunchada oʻz ichiga olishga yoʻnaltirilgandir.

Demak madaniyat — asos, jamiyatning oʻziga xos qalbidir.

Bu: insonning moddiy va madaniy qadriyatlari;

kishilarning hayot va faoliyat tarzi;

millatlar va xalqlar hayotining oʻziga xos xususiyati;

jamiyat taraqqiyoti darajasi;

jamiyatda toʻplanadigan maʼlumot;

normalar, qonunlar, urf-odatlar, anʼanalar majmui;

fan, sanʼat, adabiyot, siyosat;

maxsus belgilar tizimi va hokazo.

“Madaniyat” soʻzining etimologiyasiga qaralsa (lot. “cultura” — yetishtirish, tarbiyalash, oʻqitish, taraqqiyot, qadrlash), u dastlab insonning aniq bir maqsadga qaratilgan tabiatga taʼsirini (masalan, yerga ishlov berish, ruscha qiyoslang: “selkoxozaystvennaya kultura” (“cultus agri”); keyinchalik

insonning o'zini tarbiyalash va o'qitishni ifodalagan. Keyinchalik "madaniyat" tushunchasi xalqning insonparvarlik ideallari bilan, madaniyatning rivoji bilan, kishining jismoniy, axloqiy, nafosat va ma'naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog'lana boshladi ("homo cultus").

Rossiyada, XVII asrdan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrda chop etilgan ko'plab falsafiy va madaniy maqolalarda "madaniyat" tushunchasi deyarli uchramaydi. O'sha paytlarda u "gumannost – insonparvarlik", "obrazovannost – bilimlilik", "prosveshenie – ma'rifat", "vospitannost – boadablik", "razumnost – bama'nilik" deb atalardi. "Kultura – madaniyat" so'zi birinchi marta N. Kirillovning 1846 yilda chop etilgan "Karmanni'y slovar inostranni'x slov" nomli lug'atida uchraydi va u predmetda mudrab yotgan kuchlarni uyg'otish uchun maqsadli yo'naltirilgan faoliyatni va bu faoliyatning ma'lum taraqqiyot darajasini ifodalaydi.

Moddiy madaniyatni (ish quroli, uy, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, transport vositalari va h.k.) va ma'naviy madaniyatni (bilish, axloq-odob, tarbiya va maorif: huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, til, mifologiya, din) farqlash lozim.

Madaniyatning bu ikki turining mustahkam bog'liqligini, dialektik o'zaro aloqasini, ketma-ketligini metodologik jihatdan ta'kidlash muhimdir. Bir tomondan, moddiy hodisalar ma'naviy madaniyatning asosidir, ikkinchi tomondan esa madaniyatning ma'naviyligi ko'p hollarda moddiy muhitda faollashadi, unga suyanadi va u bilan izohlanadi. Shunday qilib, ma'naviy va moddiy madaniyatning rivoji bir-birini taqozo etadi va ular o'zaro bir-biriga bog'liq.

Madaniyat millat, xalq orasida, ko'pincha ijtimoiy, sinfiy qatlamlarga bo'linish sharoitida, ayni vaqtda muqarrar milliy birlik sharoitida rivojlanadi. Milliy madaniyatning o'ziga xosligi, uning ma'lum takrorlanmasligi va o'ziga xosligi, turmushning va faoliyatning ham ma'naviy (til, adabiyot, rassomlik san'ati, din), ham moddiy (xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyati, mehnat va ishlab chiqarish an'analari) sohalarida namoyon bo'ladi.

8. Milliy asos ketma-ketlik poydevoriga, madaniyatdagi an'analar qurilgan bo'lib, o'ta jo'shqin ijtimoiy voqealarga, g'oyaviy yo'nalishning o'zgarishiga qaramay, ular uning barqarorligini, turg'unligini ta'minlaydilar. Har qanday o'ziga xoslikdan, bir tomonlamalikdan holi bo'lgan mukammal mustaqil turmush va madaniyat barcha insoniyatga joriy etiladi, bir-biriga o'zaro singib ketadigan turli madaniyatlar bilan birgalashib harakat qiladi.

"Madaniyat" va "sivilizatsiya" tushunchalarining o'zaro munosabati haqida gapirganda ta'kidlash lozimki, agar madaniyat umumbashariy tushuncha bo'lsa, sivilizatsiya esa vaqtinchalik, madaniyatning barcha rang-barangligini o'z ichiga olgan tushunchadir. Bu kitobda "sivilizatsiya" termini ("madaniyatlilik, madaniyatga erishganlik", "madaniyatli yashamoq", "ishni madaniyatli olib bormoq") maxsus shartlashib olingan hollardan tashqari, "madaniyat" so'zining sinonimi sifatida, ya'ni keltirilgan ma'nolarning birinchisi sifatida qo'llaniladi.

Madaniyat tilning va (milliy) shaxsning korrelyati (mazmuni boshqa tushuncha bilan munosabatdagina ochiladigan tushuncha) sifatida o'zining tarixiy qadriyatida, an'alarida, novatorligida tushunilishi kerak. Ilgari ta'kidlanganidek, madaniyatda eng muhim qadriyatlarni har tomonlama hisobga olish hamda uni saqlab qolish va unda yangilarini rivojlantirish o'z in'ikosini tilda topadigan millat turmushini bir xilda tushunishni kafolatlaydi.

Birinchi navbatda quyidagilarni ta'kidlash lozim, madaniyat hamma joyga suqilib kirish xarakteriga ega, ya'ni uning aniq befig'lab qo'yilgan doirasi yoki sohasi yo'q.

Madaniyat tilning va milliy shaxsning tilga bog'liq bo'lmagan korrelyati sifatida moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi shaxsning ma'naviy boyish vositasi bo'lishdir. Inson ko'plab tillarni o'zlashtirib, madaniyatning boyligiga sho'ng'iydi.

Aniq bir xalqning ijodiy sifatida madaniyat milliy hisoblanadi, bunda u milliy madaniyatni (o'ziga xoslikni) umumiy madaniyat (xalqaro) bilan qo'shib olib boradi.

Buning ustiga shuni nazarda tutish lozimki, "sivilizatsiya" termini turlicha izohlanadi: uning sinonimi bo'lgan "kultura"

soʻzidan tortib to uning aksigacha; ammo u “madaniyat” terminiga mos kelmaydi (garchi bu terminlar koʻpincha yanglish ravishda bir-biriga tenglashtirilsa ham). Ularning eng muhim farqi shundan iboratki, sivilizatsiya - bu bir vaqtning oʻzida ham oʻtmishda, ham hozirda mavjud boʻlgan hamda kelajakka murojaat etgan berk maʼnaviy umumiylik, madaniyat boʻlsa — sivilizatsiya maʼnaviy boylklari rivojining aniq bir natijasidir. Madaniyat zamon va makonda qatʼiy chegaraga ega, yaʼni u oʻz davrining bir parchasi sifatida namoyon boʻladi. Madaniyat elementlari. Madaniyat-shunoslarning fikriga koʻra, madaniyat toʻrtta asosiy elementlardan tashkil topgan.

Tushunchalar (konseptlar). Ular asosan tilda mavjuddir, ularning sharofati tufayli odamlarning tajribasini tartibga solib boʻladi. Masalan, biz atrofimizni oʻrab turgan olam predmetlarining shaklini, rangini, taʼmini idrok qilamiz, ammo turli madaniyatlarda olam turlicha tashkil qilingan. Tilni oʻrganish insonga uni oʻrab turgan olamda oʻz tajribasi asosida uning past-balandini, umuman borligʻini tushunish imkoniyatini beradi.

Munosabatlar. Turli madaniyatlar olamning u yoki bu qismini nafaqat tushunchalar yordamida, balki zamon va makonda ularning orasidagi aloqalarni, maʼnolarini oʻzaro bogʻlanganlik asosida ajratib koʻrsatadilar. Bizning tilimizda Yer va Quyoshni ifodalovchi soʻzlar mavjud va bizning ishonchimiz komilki, Yer Quyosh atrofida aylanadi. Ammo Kopernikning taʼlimoti paydo boʻlgunga qadar odamlar bu fakti tan olmadilar.

Turli madaniyatlar mavjud oʻzaro aloqalarni turlicha talqin qiladilar. Ularning har biri real borliq va gʻayritabiiy sohaga tegishli boʻlgan tushunchalar orasidagi aloqalar yuzasidan oʻz tasavvurlarini shakllantiradilar.

Qadriyatlar. Inson intilishi zarur boʻlgan maqsadlarga tegishli boʻlgan, hammaga maʼqul boʻlgan ishonchdir. Bu maqsadlar uning mavjudligi axloqiy prinsiplarining asosini tashkil etadi. Turli madaniyatlar turli qadriyatlarni afzal deb biladilar, shuningdek, har bir ijtimoiy tuzum oʻzining shaxsiy qadriyatlari tizimini shakllantiradi.

Qoidalar. Bu elementlar maʼlum madaniyatning qadriyatlariga mos ravishda kishilar xulqini tartibga solib turadilar. Masalan, bizning

qonun tizimimiz odamlarni o'ldirishni va ularga tahdid qilishni taqiqlaydi. Bu qonunlar shaxsning hayotini biz qanchalik darajada qadrlashimizning dalolatidir. Qadriyatlar nafaqat asoslashga muhtoj, balki ularning o'zlari asos bo'lib xizmat qilishlari mumkin. Ular odamlar o'rtasida amalga oshiriladigan normalarni, tilak va standartlarni belgilaydi.

Mazkur qo'llanma madaniyatshunoslik sohasidagi juda ko'p ishlardan farqli o'laroq, lingvomadaniyatshunoslikka bag'ishlangan. Shuning uchun ham bundan buyon "madaniyat" tushunchasi til bilan o'zaro munosabatda bo'lgan sohalarga nisbatan ko'rib chiqiladi. Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki "til va madaniyat" muammosi antik davrdayoq ta'riflangan edi va u jahon falsafiy hamda lingvistik tafakkurida juda uzoq rivojlanishni boshdan kechirdi.

Til madaniyatni ifodalaydi, taraqqiyotning majburiy asosi hisoblanadi va nihoyat ma'lum bir davrda va ma'lum bir joyda yashagan xalq madaniyatining eng muhim qismini tashkil qiladi. Unda gapirayotgan xalq qandaydir irqqa (yoki bir necha irq'larga), ya'ni o'zlarining fizik xususiyatlari bilan boshqa guruhlardan ajralib turadigan insoniyatning shunday bir guruhiga tegishli bo'ladi.

Til madaniyatdan tashqarida, ya'ni bizning turmush tarzimizni xarakterlaydigan ijtimoiy meros qilib olingan amaliy ko'nikmalar va g'oyalar majmuasidan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ham tilni "madaniyat mintaqalari" va xalqlarning hukmron g'oyalari bilan o'ta bog'liq holda o'rganish zarur. Millatning xususiyatlaridan biri sifatida til milliy madaniyatning ifodasi va mavjudlik shaklini ifoda qiladi.

Tilning mazmuni madaniyat bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlikda madaniyatning amalga oshirilgan "ichki shakli" sifatida paydo bo'ladi, madaniyat esa borliqni omil sifatida o'zlashtirish jarayoni sifatida yuzaga chiqadi, bu omil tilning bevosita ta'siri ostida kishilik jamiyatining rivojiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Til nafaqat aloqa va fikrni bayon qilish vositasi, balki u madaniyatga xos bo'lgan bilimlarni to'plash vositasi hamdir.

Murakkab belgilar tizimi bo'la turib, u ma'lumotni uzatish, saqlash, ishlatish va o'zgartirish vositasi hamdir.

Madaniyat ham til kabi ma'lumotni uzatishga qodir bo'lgan belgilar tizimidir, ammo tildan farqli ravishda, madaniyat mustaqil ravishda vujudga kela olmaydi, modomiki madaniyatning vazifasi, eng avvalo xotiradir, uning asosiy jihati esa jamg'arish va absolyut ommaviylikka intilishdan iboratdir.

Shaxs esa o'zining absolyut yagonaligiga intilishida muloqotni, madaniy dialogni chetlab o'tolmaydi. Shuning uchun ham "til — madaniyat — millat (shaxs)" — lingvomadaniyatshunoslikning markaziy triadasi hisoblanib, unda bu fanning eng muhim muammolari yuzaga chiqadi, uchrashadi va hal qilinishi mumkin.

Til madaniyat qadriyatlarini saqlaydi, ayni vaqtda til madaniyatning mahsuli, muhim qismi, shuningdek, mavjudlik shartidir. Bundan tashqari, til madaniyatning o'ziga xos mavjudlik uslubi, madaniy kodlarni shakllantirish qurolidir.

Madaniyat, ilgari aytilganidek, milliylik (o'ziga xoslik) va umumiylik (xalqaroqlik)ning birligidir.

Xususan, bir tomondan u milliy madaniyatning sintezi bo'lgan "xalqaro (global) madaniyat" tushunchasi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, boshqa tomondan esa o'zining surrogati (salbiy ma'nodagi varianti)— *milliy mazmunni bema'nilashtiruvchi* va uning qadriyatlarini xor qiluvchi ommaviy madaniyat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu ziddlikni hisobga olish lozim, chunki u til vositalarini ishlatish xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.

Til ma'naviy va moddiy madaniyat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi hamda ular bilan chambarchas bog'liq. Unda xalqning o'ziga xosligi, borliqni milliy his qilish, milliy madaniyat mujassam bo'ladi. "Dunyo tillarini o'rganish, — deya ta'kidlagan edi V. Gumboldt, — bu shuningdek, insoniyatning hissiyotlari va fikrlarining umumjahon tarixidir. Bu tarix barcha mamlakatlarning kishilarini va madaniy taraqqiyotning barcha bosqichlarini tasvirlab berishi kerak, unga insonga nima tegishli bo'lsa, hammasi kirishi kerak". (Gumboldt 1956: 348). Bundan tashqari u quyidagi fundamental qoidalarni ilgari surdi: til uzluksiz ongli ijodiy yaratuvchilik jarayoni sifatida tilda mujassam bo'ladigan



va avlodlarga uzatiladigan “xalq ruhining”, uning milliy madaniyatining ifodasidir; til butun borliqni anglashda, u yoki bu tilning ta’siri ostida tildan tashqari voqelikni gavdalandirishning aniq uslubi in’ikosi sifatida yuzaga keladigan muayyan olam ko’rinishini, ya’ni tilning ichki shaklini, xalqning dunyoqarashini shakllantirishda eng muhim rol o’ynaydi; xalq ham xuddi insoniyatning har bir shaxsi kabi murakkab birlikdir.

Shunday qilib, madaniyat tilning va milliy shaxsning tildan tashqari korrelyati (munosabatdoshi) sifatida moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimini ifodalaydi.

Uning asosiy vazifasi — shaxsning ma’naviy boyish vositasi bo’lishidir. Ilgari ta’kidlanganidek, inson madaniyat olamiga sho’ng’ir ekan, moddiy va ma’naviy madaniyat uchun xos bo’lgan juda ko’p tillarni o’zlashtirib oladi.

Madaniyat insoniyatning faoliyati mahsuli sifatida “madaniyat tili” deb fahmlanadigan aniq o’ziga xos xususiyatlarga ega. Konkret madaniyat doirasida u belgilar tizimi va ularning o’zaro munosabatlari deb qaralishi mumkin, bu belgilar yordamida muhim — semantik shakllar boshqariladi va yangidan paydo bo’layotgan yoki mavjud tasavvurlar, obrazlar, tushunchalar yoki boshqa ma’naviy (semantik) konstruktsiyalar tartibga solinadi. Etnik madaniyatlarning mavjudligidan kelib chiqib, til madaniyati etnos madaniyatini mujassamlantiruvchi, etnik o’ziga xoslikni namoyon qiluvchi va boshqa etnoslarning madaniyatlari bilan o’zaro aloqalarini aks ettiruvchi verbal va noverbal kommunikatsiyaning barcha belgi uslublari majmui, deb tushuniladi.

Til-madaniyat fakti, modomiki u uning asosiy qismi, uni biz ota-bobolarimizdan meros qilib olamiz; u asosiy qurol, uning yordamida biz madaniyatni o’zlashtirib olamiz; madaniy qoidaning eng muhim ko’rinishlaridan biri, agar biz madaniyatning mohiyatini — fanni, dinni, adabiyotni tushunishni istasak, u holda biz bu hodisalarni til kabi shakllantiriladigan kodlar deb qarashimiz kerak. Shuning uchun ham konseptual tarzda faqat til yordamidagina madaniyatning fahmiga etishimiz mumkin.

Til va madaniyatning o’zaro munosabatini tadqiq qilar ekanmiz, shuni esda tutish lozimki, garchi ular orasida juda ko’p umumiylik


bo'lsa ham, ular turli semiotik tizimni ifoda etadilar. Madaniyat, xuddi shu kabi til — bu insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi va doimiy dialogdagi ongning shakllaridir. Madaniyat va tilning sub'yekti doimo individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyatdir. Normativlik — til va madaniyat uchun umumiy xususiyat; tarixiylik prinsipi — ularning tub xususiyatlaridan biri. Ularning har ikkisiga shuningdek (antonimiya) zidlik ham xos: “o'zgarish — turg'unlik”.

Bu ikki mohiyat quyidagilar bilan bir-biridan ajralib turadi: tilda fenomendagi kabi ommaviy o'zlashtiruvchiga mo'ljallangan yo'l-yo'riqlar ko'pchilikni tashkil etadi, ayni vaqtda madaniyatda esa saralik qadrlanadi; garchi madaniyat - belgilar sistemasi mustaqil ravishda bunyod bo'lishga qodir bo'lmasa ham; til va madaniyat — bu turli semiotik tizimlardir. Buning ustiga aytish mumkinki, madaniyat tuzilishi jihatidan tilga o'xshaydi.

Til madaniyatga shu ma'noda qo'shilganki, belgining “jismini” ifodalovchi madaniy predmetdir, uning shaklida insonning til va kommunikativ qobiliyati predmet holiga keltirilgan; faqat inson faoliyatidagina paydo bo'ladigan tilning mohiyati ham madaniy vujudga kelishdir.

“Til va madaniyat” masalasi tabiiy va gumanitar fanlarda keng qo'llaniladigan tizimli metodlarni e'tiborga olgan holda bundan buyongi ishlab chiqishni talab qiladi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlarining ommaviy strategiyasi “inson” (“milliy shaxs”), “til” (va “tafakkur”), “madaniyat” (moddiy va madaniy) kabi tushunchalarning prinsipial tayyor qolipini (sxemasini) dinamik kengaytirishdan iboratdir.

Ma'lumki, har qanday sxema, qiyoslash kabi “oqsaydi”, tarkibiy qismlar o'zaro munosabatlarining barcha murakkabligini ochib bera olmaydi. Biroq, u “madaniylashtirilayotgan” tabiat o'z aloqalarida milliy til (va taffakkur) bilan o'rab olingan inson tushunchalarini, munosabatlarning bog'liqligi va qonuniyatlarini prinsipial ravishda ifodalaydi. Til inson va tabiat o'rtasida vositachidir. Faqat oqilona ongli faoliyat natijasidagina tabiat “predmetlari” madaniyatning “elementlari” — artefaktlarga aylanishi mumkin. Inson tajribasi behad bo'lganligi kabi, madaniyatning rivoji ham chegara bilmaydi. Til esa ichki



qonuniyatlar asosida rivojlana borib, ijtimoiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Tafakkurning milliy xarakterini va uning tilga bog'liqligini tan olar ekanmiz, tafakkurning milliy xususiyatlari konkret tilga tobe bo'lmagan umumbashariy xususiyatlar bilan uzviy chatishib ketadi, deb hisoblaymiz.

"Til va madaniyat" muammolar majmuini lingvomadaniyat-shunoslik doirasida olib borish maqsadga muvofiqdir.

"Til va madaniyat" masalasi turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiq qilinadi. Ulardan biri va ishda taqdim qilinayotgan konsepsiyaga eng yaqini lingvoo'lkashunoslikdir. "Chet tilini o'rganuvchilar, — deya ta'kidlashadi bu yo'nalishning asoschilari E.M. Verechagin va V.G. Kostomarov, — eng avvalo, odatda kommunikatsiyada ishtirok etishning yana bir usulini egallashga intiladilar. Ammo, tilni o'rganar ekan, inson bir vaqtning o'zida yangi milliy madaniyatga suqilib kiradi, o'rganilayotgan tilda saqlanayotgan ulkan ma'naviy boylikni egallaydi." (Vereshagin, Kostomarov 1990: 4).

Lingvoo'lkashunoslik, eng avvalo, tilni o'qitish bilan bog'liq. Uning muammolar majmui ikkita savollar majmuidan iborat: filologik (birinchi navbatda lingvistik), ya'ni milliy-madaniy semantikani aniqlash maqsadida tilning, masalan, u yoki bu tilning tahlili va lingvodidaktik (metodik) - taqdimot usullari, shu milliy tilga xos bo'lgan birliklarni mustahkamlash va faollashtirish hamda matnlarni o'lkashunoslik nuqtai nazardan o'rganishi; u yoki bu tilga o'qitish vazifalari esa bu o'rinda tili o'rganilayotgan mamlakatni o'rganish vazifalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Lingvoo'lkashunoslik asoslarida yotadigan metodologik asoslar orasida tilni o'rganish va uni o'qitish jarayonida o'quvchilarni madaniyatga o'rgatish deb tushunish, tegishli chet tili yordamida ochiladigan eng muhim faktlarni, boshqa milliy madaniyatning norma va qadriyatlarini o'zlashtirishni tushunish biz uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bu aslida lingvoo'lkashunoslikning tub maqsadi va asosiy vazifasidir.

"Til va madaniyat" masalasining lingvoo'lkashunoslik aspekti bir qator nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lgan ishlarda yoritilgan bo'lib, ular chet tilini o'rganishda, chet mamlakat madaniyatini

o'zlashtirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlaydi. O'qitishga bu kabi kompleks yondashuv mamlakatni, uning madaniyatini til vositasida tanishning potensial imkoniyatlarini namoyish qiladi va ayni paytda o'quvchilarda mazkur mamlakatga, uning xalqiga nisbatan ijobiy qarashlarni yuzaga keltiradi. Demak, lingvoo'lkashunoslik sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik)ning lingvodidaktik analogi(o'xshashlik)dan iborat.

Sotsiolingvistika tilning ekstralingvistik planini juda katta ahamiyat bilan bilim o'rttirish maqsadlaridagina o'rganadi. Lingvoo'lkashunoslik ham shu bilan shug'ullanadi, ammo, o'quv jarayoni nuqtai nazaridan, ya'ni amaliy maqsadlarda o'rganadi. Tilni tadqiq qilishga madaniy (kulturologik) yondashuv shu bilan ifodalanadiki, uning o'rganish predmeti xorijiy tilni begona til sifatida o'rgatish predmeti bilan tutashib ketadi. Boshqa tilni o'rganish boshqa madaniyatga kirishish va u bilan uyg'unlikda mavjud bo'lishlik demakdir. Shu nuqtai nazardan olamning eng yangi o'zgarishlarini o'qitish nazariyasi va amaliyotini, xususan, chet tilini begona til sifatida o'qitish nazariyasini va amaliyotini ma'lum darajada qayta ko'rib chiqishni keltirib chiqaradi.

Turli filologik fanlarning hozirgi yutuqlari chet tilini o'qitishga prinsipial yangi yondashuv masalasini qo'yishga imkon beradi. Bu yondashuvni tilshunoslar va uslubiyotchilar (metodistlar) lingvomadaniyatshunoslik tarzida belgiladilar.

Mustaqil fan sohasi bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik, asosan ob'yektni o'rganishning o'z prinsiplarida lingvoo'lkashunoslik bilan moslashib, ayni vaqtda bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- Lingvomadaniyatshunoslik - madaniyatni va filologiyani (tilshunoslikni) o'rganuvchi fanlar o'rtasidagi mustaqil fan sohasi, u lingvoo'lkashunoslikka o'xshab tilni o'qitish aspekti emas. Bu yerda tilni o'qitish masalalari keyingi o'rinda turadi.

- Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'yekti madaniyatni tilning faoliyati jarayonidagi o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabati hamda bu o'zaro munosabatlarni yaxlit bir tizim sifatida

o'rganishdan iboratdir. Bu yerdagi asosiy muammolar metodologik (falsafiy) va filologik (tilshunoslik) va hokazo muammolardir. Mustaqil bilim sohasi sifatida ajratilishini oqlaydigan lingvomadaniyatshunoslikning mazmuni o'zining o'rganish predmeti sifatida til kommunikatsiyasida aks etuvchi hamda konkret tarixiy jamiyatning madaniy qadriyatlariga asoslangan jamiyat turmushining milliy shakllariga ega bo'lishi kerak.

- Lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti — insoniyat tomonidan yaratilgan (mehnat qurolidan tortib to uy anjomlarigacha, odat, rasm-rusum, odamlarning turmush tarzidan tortib to fan va san'at, din va ateizm, axloq va falsafagacha, boshqacha qilib aytganda, artefaktlar tizimigacha bo'lgan (lotincha "artefactum": "arte" — sun'iy; "factus" — qilingan) moddiy va ma'naviy madaniyatdir. Atamaga quyidagi tarkib kiritiladi: madaniyatning moddiylashtirilgan ob'yekti, ishlab chiqarish, ijodiy mehnat mahsuli, tilda ifodalangan madaniyat asarlari ("yordamchi hislat" va fikrlar mahsuli). Bir so'z bilan aytganda, olamning lisoniy manzarasini tashkil qiluvchi narsalar.

- Lingvomadaniyatshunoslik lingvoo'lkashunoslikning vorisi (davomchisi) sifatida jamiyat hozirgi hayoti tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, fakt va hodisalarning to'liq, ob'yektiv talqiniga, shuningdek, mamlakat madaniy hayotining turli sohalari haqidagi ma'lumotlarga qarab ish tutadi. Xalqning hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar, yangi ustunliklarga qarab ish yuritish amaliy natija beradigan, to'liq ma'lumotlarni talab qiladi. O'quvchilarni hozirgi haqiqiy hol bilan, xalqning turmush tarzi va uslubi bilan, uning madaniyati bilan tanishtirishning yangicha shakllari zarur.

Madaniyatning ijtimoiy voqelik sifatida rivojlanish dialektikasi — bu faqat ijobiy hodisalarni namoyish qilish bo'libgina qolmay, balki har qanday rivojlanayotgan voqelikda muqarrar mavjud bo'lgan ziddiyatlarni ochish hamdir. Ularsiz madaniyatning haqiqiy rivojlanishini tushunish, asl mazmunini ochish qiyin bo'lgan ba'zi bir salbiy jarayonlarning tahlilini oldinga tomon qo'yilgan qandaydir qadam deb tushunmoq darkor. Turgan gap, bu holda juda ko'p hodisalarga, masalan, falsafaga, dinga, ya'ni bugungi kunda butunlay

yangicha ahamiyat kasb etadigan barcha narsaga ortiqcha baho qo'yish sodir bo'ladi. Vazifa barcha narsani berkitmay, to'liq va maksimal darajada ob'yektiv oshkor qilishdan iboratdir.

Lingvomadaniyatshunoslik haqiqatan ham o'tkinchi siyosiy voqealarni, unchalik muhim ahamiyatga ega bo'lmagan arziyas ishlarni ta'kidlamasligi, unchalik muhim bo'lmagan narsalarga e'tibor qaratmasligi kerak, balki madaniyatning hayotni aniqlovchi oqimlarini, masalan, voqeaga boy tarixga emas, muammoli, global masalalarga aloqador bo'lgan kollektiv taqdiri va umumiy harakatlarni, siyosatni va odamlarni o'rganishi kerak. Shu munosabat bilan xalqining ma'naviy hayotini o'rganishga bo'lgan ortiqcha g'oyaviylashtirilgan yondashuv tubdan qayta anglashni talab qiladi. Madaniyatshunoslik qonuniyatlarini to'liq aniqlash uchun madaniyatning ichki (uning tabiatidan kelib chiqadigan) xususiyatlari haqida yanada to'liqroq tasavvurga ega bo'lish zarur.

- Xalq madaniyatini ob'yektiv, to'liq va bir butun holda sharhlab berish uning ta'rifiga tegishli tizimli yondashuvni taqozo etadi. Shuning uchun lingvomadaniyatshunoslikning eng muhim vazifasi hamda uning xarakterli, boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyati xalq madaniyatini uning tilida, ularning dialektik o'zaro bog'lanishda va rivojlanishda tizimli gavdalantirish va shuningdek, zamonaviy madaniyatshunoslikka doir fikrlashni shakllantirishga ko'maklashadigan tushuncha qatorini ishlab chiqishdan iboratdir.

Shunday qilib, lingvoolkashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik filologik va pedagogik fanlar sohasidagi eng dolzarb bo'lgan an'analarning oqimida — ularning integratsiyasida turishibdi. Xalqaro aloqalarning kuchayishi, tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi millatlararo munosabatlarning jonlashuviga olib keldi, bu til va madaniyatning o'zaro munosabatlari problematikasini ham milliy, ham xalqaro darajada o'ta dolzarb qilib qo'ydi.

#### 1.4. Lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistika

Lingvomadaniyatshunoslik xalqlarning turmushi va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini, ularning kelib chiqishi, joylashishi, madaniy-tarixiy o'zaro aloqalarini o'rganuvchi etnografiya va tilshunoslik fanlari bilan ayrim masalalarda bir-biriga yaqinlashadigan soha etnolingvistika fani bilan bog'liq.

Etnolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi lingvistik, etnomadaniy hamda i etnoruhiy (etnopsixologik) omillarning tilda faoliyati va rivojini o'rganishdir. Bu fan XIX-XX asr oralig'ida etnografiya zaminida paydo bo'ldi. Uning diqqat markazida xalqlarning genetik qardoshligi, til munosabatlari, ijtimoiy-madaniy omillarning til rivojiga ta'siri, til belgilari asosida ma'naviy etnik madaniyatni tiklash muammolarini o'rganish yotadi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda etnologik problematika aniq ko'p uchraydigan holat, asosiy e'tibor lingvomadaniy fenomenni shu darajada yaxlit tarzda tasvirlashga emas, balki xalqlarning turmushi va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Zamonaviylikka va odat bo'lib qolgan normativlikka yo'naltirilgan lingvomadaniyatshunoslikka nisbatan etnolingvistikani tadqiqot ob'yekti qabilalarning tilini, shevalarni, til oilasini va madaniy guruhni, bobotilni, bobomadaniyatni o'rganish hisoblanadi. Shu bilan birga lingvomadaniyatshunoslikni va etnolingvistikani ularda tilni va madaniyatni o'rganish metodlarining qo'llanilishi yaqinlashtiradi.

Lingvomadaniyatshunoslik bilan qiyoslaganda, tilning paydo bo'lishi, rivoji va ishlashi, jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'sirini o'rganuvchi ijtimoiy tilshunoslikda (sotsiolingvistikada), "madaniy fenomen" ikkinchi darajali va ijtimoiy o'zaro bog'liqligi bo'yicha boshqacharoq bo'lib qoladi. Jamiyatning zaruriy komponentlaridan biri uning madaniyatidir, shuning uchun sotsiolingvistikada e'tibor tilning va madaniyatning o'zaro munosabatlari masalasiga qaratiladi. "Til va madaniyatning boshqa tarkibiy qismlari orasidagi aloqalar ikki tomonlama xarakterga ega. Turli madaniyatlarning yaqinlashishi o'z ifodasini leksik o'zlashtirmalarda topadilar" (LES 1987: 481).

Lingvomadaniyatshunoslik madaniy falsafa, ijtimoiy madaniyat, madaniy antropologiya, madaniyat tarixi bilan bir qatorda borliqni uning madaniy mavjudligi, ya'ni bu borliq inson nima, u inson uchun qanday mazmun bilan to'ldirilganligini o'rganuvchi gumanitar bilimlar sohasidagi madaniyatshunoslikning asosiy bloklaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Madaniyatshunoslik o'tmish va hozirgi madaniy hayot, madaniyatning tarkibi, uning vazifalari, taraqqiyoti, kelajagi haqida ommabop sintetik nuqtai nazarga intiladi; uning tadqiqot predmeti avloddan avlodga o'tib keladigan ijtimoiy voqelik va insonning hayot tarzini ifodalaydigan madaniyatdir.

Lingvomadaniyatshunoslik esa olamning til manzarasini tadqiq qiladi. U tilning va madaniyatning o'zaro munosabatdagi va o'zaro bog'liqlikdagi dalillarining tizimli ta'rifini beradi.

Shunday qilib, ikkita qo'shni tillarning chorrahasida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik madaniyatshunoslik, lingvoolkashunoslik, etnolingvistika, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika) bilan mustahkam aloqada, ammo ayni o'rinda o'ziga xos xususiyatga va "Til va madaniyat" masalasini o'rganishda o'zining alohida aspektiga ega.

Lingvomadaniyatshunoslik - zamonaviy afzallikka va madaniy yo'l-yo'riqlar (normalar va umumbashariyat qadriyatlari tizimi) birligini lisoniy va madaniy mazmunda bir butun tuzilish tarzida ifodalaydigan tizimli tilning va madaniyatning o'zaro aloqalari hamda o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi kompleks umumlash-tiruvchi ilmiy fandır.

Lingvomadaniyatshunoslikning e'tibor markazida tilning va madaniyatning sohibi bo'lgan inson, uning sharoitga mos bilimlari, shaxsni shu madaniyatning vakili qilib ko'rsatuvchi axloq normalari turadi. Lingvomadaniyatshunoslikning antropotsentriklik xususiyatlari gumanitar tadqiqotlarning va xususan, lingvistikaning tilda inson omiliga va kommunikativ jarayonda markaziy figura bo'lgan til sohibiga qaytgan umumiy an'analariga to'g'ri keladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot ob'yekti butun xalqning madaniy merosi va uning axloqiy-etnik qadriyatlari bilan



belgilanadigan umummilliy madaniyatdir. Til sohibi jahon, umummilliy, mahalliy, ijtimoiy va tor ixtisosli madaniyatning elementlarini o'zida jamlaydi.

Ayni paytda shu madaniyatning tipik vakiliga xos bo'lgan muhitga oid bilimlarni va boshqa axloqiy normalarni o'rganayotib, lingvomadaniyatshunoslik amaliy tilshunoslikning chegarasidan chiqib ketadi. Aytish mumkinki, bu fan til birliklarining ahamiyatini ushbu xalqning predmet haqidagi tasavvurlarining umumiy kompleksida o'rganadi, bu predmet madaniy-tarixiy merosning butun holatida aniq leksik birlik bilan ifodalanadi; til va madaniyat sohibining muhitdan kelib chiqadigan bilimlarini baholaydi, bu muhitda turli xildagi madaniy-tarixiy guruhlar (uyushmalar) katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik — tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutash joyida paydo bo'lgan va xalqning tilda o'z aksini topgan va mustahkamlanib qolgan madaniyati paydo bo'lishini tadqiq qiladigan fan. U madaniy makonni, shuningdek kommunikativ makonning madaniy fondini til va diskurs prizmasi orqali tadqiq qilish va ta'riflab berishga safarbar qilingan. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasini quyidagicha belgilash mumkin: u til ko'zgusida aks etgan va inson tomonidan madaniylashtirilgan sohalar: makon, zamon, faoliyat va hokazolarda qayd qilingan tasavvurlarni hamda til prizmasi orqali namoyon bo'luvchi madaniy arxetiplar bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan eng qadimiy tasavvurlarni til ma'lumotlari yordamida tilda mustahkamlangan va matnlarda paydo bo'ladigan madaniyatning tayanch oppozitsiyasini aniqlashga jalb qilingan.

Bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslik ham tilshunoslar uchun, ham madaniyatshunoslar uchun bir xil ahamiyat kasb etgan nafaqat bilim sohasi, balki unung mustaqil fan sohasi maqomi tan olinadi. Bu fan o'ziga xos xususiyatga va "til, madaniyat va shaxs" muammosini o'rganishda o'zining alohida nuqtai nazariga ega.

O'z oldiga yetarlicha muayyan vazifalarni qo'ygan lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sifatida tilni ta'riflashda so'nggi xulosalar va natijalar shaklida o'zining ilmiy xarakterga ega bo'lgan amaliy, ilmiy-metodik rivojlanishini nazarda tutadi.

Lingvomadaniyatshunoslik til birliklarining milliy-madaniy mazmunini o'rganib, ularni butun to'liq mazmuni va nozik farqlarini mana shu tilning va mana shu madaniyatning sohiblari tomonidan idrok qilishga yaqinlashtirilgan darajada zohir bo'ladi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi lingvistik yo'nalish yetarlicha aniq maqsadni — madaniyatlar dialogi muammosini dinamik hodisa sifatida o'rganish va tasvirlash maqsadini qo'yishi mumkin, chunki "biz turli tillarda gaplashamiz" degan fikr nafaqat bugungi kunga tadbiq qilinadi, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim lingvokulturologik manba bo'lib hisoblanadi.

Tillarni jadal sur'atlar bilan o'rganish va ularning o'qitilishini yaxshilashga bo'lgan tabiiy intilish tillarning uzviy aloqalarini va madaniyatlarning chuqurlashib borayotgan munosabatini keltirib chiqaradi, bu o'z navbatida lingvomadaniyatshunoslikning amaliy aspektlari rivojini rag'batlantiradi.

Bizning fikrimizcha, boshqa tilga o'qitishda asosiy so'zlashuv komponentlaridan biri fikrlarning bir-biriga to'g'ri kelishidir, uning yordamida xorijiy tillarni o'rganishda ijobiy natijalarga erishiladi: notanish madaniyatning qadriyatlari o'quvchilar tomonidan tan olinadi va o'zlashtiriladi. Bu yerda biz uchta tagtizim — til — madaniyat — shaxs yordamida paydo qilingan tushunchalarning mustahkam aloqasiga duch kelamiz.

Til sohiblarining ruhiy xususiyatini hisobga olib milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini lisoniy nuqtai nazardan tahlil qilish o'ta muhim hisoblanadi, chunki boshqa milliy til vakillari nafaqat boshqa madaniyatning sohiblari, balki boshqa milliy psixologiya, boshqa mentalitetning sohiblari ham hisoblanadilar.

Masalani bu tarzda qo'yish esa tilni tavsiflash va o'rganish, madaniyatni hurmatlash muammolari, so'zsiz, bizni qiziqtiradi, demak, lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari qiziqtiradi.

Tilni o'rganish fakti uchun nafaqat pragmatika, balki barcha xalqlar madaniyati bilan verbal va boshqa ma'lumotlar orqali tanishish xizmat qilar ekan, lingvomadaniyatshunoslikning

madaniy-bilishga oid yondashuvi sifatidagi roli bundan buyon ham orta boradi. Til va madaniyatning o'zaro aloqalarini o'rganish hamon inson ongining eng murakkab va eng qiziqarli ob'ektlaridan biridir.

Hozirgi kunda lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlar nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan. Birinchidan, tushunchaga oid apparatlar bilan ishlash, tayanch tushunchalarni batafsil tahlil qilish, shuningdek fanning intizomiy statusini (huquqiy holatini) tadqiq qilish, uning etnologiya, etnografiya, falsafa, psixologiya kabi bilim sohalari bilan munosabatlarini belgilash muhimdir. Ikkinchidan, tadqiqotchilarning hisoblashlaricha, asosiy tushunchalarning teranligi va ularni ishlab chiqishning aniqligi unchalik ham muhim emas, asosiysi ular "ishlashlari", ya'ni ular aniq lingvistik va metodik vazifalarni yechishda qo'llana olishlari kerak.

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yangi lingvistik yo'nalish etarlicha aniq maqsadni — madaniyatlar dialogi muammosini dinamik hodisa sifatida o'rganish va tasvirlash maqsadini qo'yishi mumkin, chunki "biz turli tillarda gaplashamiz" degan fikr turli millat va mutaxassislikdagi kishilar munosabatining vositasi bo'lgan tilni o'qitish muammosiga tadbiiq qilinadi.

Aynan mana shuning uchun ham aloqa quroli sifatida tushuniladigan xorijiy tilga o'qitishda o'quvchini kim tomonidandir yaratilgan nutqni bilishga shunchaki o'rgatish emas, balki nutqni o'zi yaratishga o'rgatish zarur; mana shundan kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy komponentning rolini teranlashtirish va birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblash kelib chiqadi.

Gap faqatgina til haqidagi fanning bir tarmog'i bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik haqida boribgina qolmay, balki bu fan doirasida til sohiblarini, ularning turmush tarzini, milliy xarakterini, mentalitetini, madaniyatini shu so'zning keng etnografik ma'nosida chuqur va sinchiklab o'rganish zaruriyati haqida borayapti; chunki so'zlarni nutqda ishlatish, real nutq mahsuloti ma'lum darajada mana shu tilda gaplashuvchi jamoaning ijtimoiy va madaniy hayotini bilishga bog'liqdir.

Shunday qilib, muloqot vositasi bo'lgan tildan faol foydalanish uchun faqatgina so'zlarning ma'nosini va grammatik qoidalarini o'zlashtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. O'rganilayotgan tilning olamini iloji boricha chuqurroq bilish lozim. Boshqacha qilib aytganda, so'zlarning ma'nolaridan, grammatik qoidalardan tashqari qachon, qanday, kimga, kimning huzurida, qayerda gapirishni, yozishni, shuningdek, ushbu mazmuni, tushuncha, ushbu fikrning predmeti o'rganilayotgan tilning real olamida qanday yashayotganini fahmlab olish zarur.

Muammoning teranligi, ayniqsa, chet tilini ona tili bilan qiyoslanganda yanada aniq bo'ladi. Boshqa tillarni bilmaydigan til sohiblari odatda na madaniyatlarning ziddiyatini, na tillarning ziddiyatini ko'rmaydilar. Tillarning rang-barangligi orqali olamning boyligi va unda tafakkur qiladigan narsamizning ko'p qirraliligi bizga ochiladi; insoniyatning borligi kengayadi, chunki tillar bizga fikrlash va idrok qilishning turli usullarini olib keladi.

Mana shuning uchun ham chet tilining o'qitilishi ona tili va madaniyatimiz bilan qiyoslashga asoslangan bo'lishi kerak, bu qiyoslash chet tillarini va ona tilini o'qitishni optimallashtirish va rivojlantirishning eng muhim shartlaridandir.

Bu har qanday madaniyatda umumbashariy va milliy tamg'alangan belgilarning mavjudligi haqidagi qoidalarga mos keladi, garchi unda butun insoniyatga tegishli milliy madaniyatning barcha qiyinchiliklari mavjud bo'lsa ham, unda butun insoniyatga tegishli umumiy, nospetsifik xususiyatlar ajralib turadi; o'ziga xos nisbiy xususiyatlar mahalliy guruhlarining madaniyatiga tegishli; o'ziga xos absolut xususiyatlar esa ma'lum madaniyatlar uchun tegishlidir.

Modomiki, etnik madaniyatda umumbashariy (universal, o'ziga xos bo'lmagan (nospetsifik)) va milliy (kamdan-kam uchraydigan, noyob, o'ziga xos) xususiyatlar mavjud ekan, turli madaniyat sohiblari bir-birlarini tushunishlari ham mumkin (bu umumbashariy xususiyatlar bilan ta'minlanadi), tushunmasliklari ham mumkin (milliy yoki turli xususiyatlar shunga olib keladi) deya taxmin qilish mumkin. Bir-birini tushunish yoki tushunmaslik imkoniyati madaniyatlararo aloqalarda shunga olib

keldiki, madaniyatni o'rganish va uni tushunish muammolari bilan bog'liq bo'lgan hozirgi ilmiy makonda ikkita yondashuv paydo bo'ldi. Garchi ular aynan bir xil sharoitdan — ma'lum madaniyatlarni tahlil qilish va etnik guruhlararo munosabatlar amaliyotini kuzatishdan kelib chiqqan bo'lsalarda, birinchi qarashda bir-birini inkor qiladilar.

Birinchi yondashuvning mazmuni ikkita faktni tasdiqlashdan iborat: turli elatlarning madaniyatlari ma'lum ma'noda hammabop, shundan kelib chiqadiki, absolyut original madaniy kodlar bashariyatga ma'lum emas. Har bir alohida elatning madaniyatiga xos bo'lgan qandaydir madaniy kodni umumbashariy madaniyatning ommabopligi va keragidan ziyodaligi deb tan olinishligi sababli turli madaniyat vakillari (sohiblari) o'rtasida bir-birini tushunish, umuman olganda, mumkin deya xulosa chiqariladi, demak, madaniyatlararo dialogning muvaffaqiyatli bo'lishi isbotlanadi.

Har bir millatning noyobligi haqidagi dalilni ta'kidlashdan iborat bo'lgan boshqa yondashuv buning aksini — madaniyatlararo munosabatda tushunishning muhim imkoniyati ko'p deganda haqiqiydan ham ko'ra ko'proq istalganligini isbotlaydi; madaniyatlararo har qanday munosabat muqarrar ravishda begona madaniyatni tushunib yetish va tushuntirib berishga o'sib boradi, bu jahon hamjamiyati uchun eng murakkab va eng jiddiy muammolardan biridir.

Bir-biriga zidligiga va qarama-qarshi tuyilishiga qaramasdan, ikkala yondashuv madaniyatlararo munosabat masalalarida, begona madaniyatni, uning me'yorlari va mazmunini tushuntirib berishdagi aloqalarda ajralmasdir. Biroq, madaniyatlararo aloqalar haqida gapirar ekanmiz, ta'kidlash mumkinki, eng yaxshi (elitar) madaniyat sohiblari har qanday etnik madaniyatning noyobligiga alohida urg'u beradilar. Ayni paytda ular bu madaniyatda ommaviylik (hammaboplik), tipiklik jihatlari topadilar, oddiy inson uchun esa turli madaniyatlardagi o'ziga xoslik va ma'lum hammaboplik masalasi e'tiborsiz bo'lib qoladi. Masalan, lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlari jahon (aniqrog'i — g'arbiy Yevropa yoki sharq) va o'zbek madaniyatlari

muammosini ko'rib chiqish va bu bilan o'z mamlakati madaniyatida umumbashariy va noyob jihatlarni ajratish imkoniyatini beradi.

Til dalillarida ifodalangan madaniyatni o'rganish borasidagi bunday yondashuvni o'rinli va sermazmun deb tan olish lozim. Madaniyatning tildagi reallik timsoli asosi deb bilib, bu bilan lingvomadaniyatshunoslik mashhur triada — til — shaxs — madaniyatning mavjud ekanligini tan oldi. Uning markaziy qismi — shaxs — lingvomadaniyatshunoslik uchun asosiy deb ajratib ko'rsatiladigan "inson omili" (E. Benvenist termini) til va madaniyat o'rtasida tabiiy bog'lovchi xalqa bo'lib qoladi. Madaniyatni "odamlar tomonidan yod bo'lib qolgan tabiiy narsalarga qo'shimcha ravishda yaratilgan yasama tartiblarning va ob'ektlarning, xulq va faoliyatning, egallangan bilimlarning, o'zini anglash usullarining va o'rab turgan olamning ramziy belgilarining mujmuasi deb ifodalash insonning moddiy, ijtimoiy va ma'naviy turmushi: tabiat, jamiyat, tarix, fan, din, san'at va boshqalarga nisbatan o'zini o'zi anglashdek o'ziga xos bir xususiyatini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Aynan tabiat, jamiyat, tarix, fan, din, san'at va boshqalarda insoniy MENning bashariy yoki umuman olganda xalq madaniyati bilan aynan bir xilligi amalaga oshadi.

Tilning barcha hodisalari insonga bog'liq (antropotsentriklik) ligini ajratib ko'rsatish — hozirgi tilshunoslikning global an'anasidir. Ma'lumki, til oliy darajada antropomarkazlashgan. Uning lug'atining ko'p qismi insonga — uning ichki dunyosiga, tashqi olamni anglashiga, jismoniy va aqliy faoliyatiga, uning maqsadlariga, boshqa kishilar bilan aloqalariga, ular bilan munosabatlariga, voqealarni baholashiga, qoida va vaziyatlarga bag'ishlangan. Til antropomarkazlashgan, chunki u inson uchun mo'ljallangan va tashqi dunyodagi barcha ob'ektlarning hamda hodisalarning ifodalanishi unga mo'ljallangan; bu barcha tillarning umumiy xususiyatidir.

Uning chegarasidan chiqmasdan, uning yaratuvchisiga, sohibiga, ishlatuvchisiga — insonga, aniq til shaxsiga murojaat qilmay turib tilni o'z-o'zidan bilib bo'lmaydi.

Ta'kidlash zarurki, shaxsning til va madaniyatdagi o'zaro munosabati masalasi uni real "lingvistik ifodalangan til shaxsi" nuqtai nazariga aylantirilsa, u lingvomadaniyatshunoslikning predmetiga aylanib qoladi. O'zining til manzarasiga ega bo'lgan tilning yaratuvchisi, sohibi, ishlatuvchisi bo'lgan insonga, aniq til shaxsiga murojaat qilib, lingvomadaniyatshunoslik insoniy, to'g'rirog'i, tildagi madaniy omilga va insondagi til omiliga yo'nalganligini tasdiqlaydi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik - haqiqatda inson haqidagi fanning antropologik paradigmasini tashkil etadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy fan sifatida antropomarkazlashganligi ijtimoiy bilimlar rivojining umumiy an'anasi bilan ifodalanadi. "Tilda inson omili" tushunchasi, unda hozirgi lingvistik tadqiqotlarda aniq til shaxsining ishtiroki yaxshi ma'lum bo'lgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasidan ajralmasdir.

### 1.5. Lisoniy shaxs tushunchasi

Ma'lumki, madaniyatni inson yaratadi va unda inson, shaxs yashaydi. Aynan shaxs tushunchasida insonning tabiati birinchi o'ringa ko'tariladi, uning o'zi esa, ijtimoiy-madaniy turmushning sub'yekti sifatida ishtirok etadi.

Lisoniy shaxsga murojaat nemis olimi I. Veysgerber nomi bilan bog'liq. Rus tilshunosligida bu mavzuni birinchi bo'lib lisoniy shaxsni o'rganishning ikkita, ya'ni muallif shaxsi va personaj shaxsini o'rganish yo'lini V.V. Vinogradov ishlab chiqqan. Keng ilmiy muomalaga esa bu tushunchani Yu.N. Karaulov olib kirdi, uning fikricha, lisoniy shaxs — bu til tuzilishi jihatidan, haqiqatni ifodalashning aniqligi va teranligi, ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi bilan farqlanadigan matnlarni tuza oladigan va anglay oladigan kishidir.

Lisoniy shaxs mazmuniga ko'pincha quyidagi komponentlar kiradi:

- tarbiya tarkibining qadriyatli, dunyoqarashga oid komponenti, ya'ni qadriyatlar yoki hayotiy mazmun tizimi. Til

shaxsning borliqqa dastlabki va teran qarashini ta'minlaydi, til milliy xarakterni shakllantirish asosida yotgan va tilning dialogik aloqasida amalga oshiriladigan aynan o'sha til obrazini va ma'naviy tasavvurlari ketma-ketligini yuzaga keltiradi;

- madaniyatshunoslik komponenti, ya'ni tilga qiziqishni oshirishning samarali vositasi bo'lgan madaniyatning o'zlashtirilishi darajasi. O'rganilayotgan til madaniyatining nutq va nutqdan tashqari muomalaga bog'liq bo'lgan fakt (dalil)larning jalb etilishi aynan bir xil qo'llash malakalarini shakllantirishga va muloqotdagi suhbatdoshga samarali ta'sir ko'rsatishga ko'maklashadi;

- shaxs komponenti, ya'ni individual, har bir insonda mavjud bo'lgan komponent.

Lisoniy shaxs parametrlari endigina ishlab chiqila boshlandi. Lisoniy shaxs u yoki bu takrorlanish darajasida qo'llaniladigan, mavhum sintaktik modellarni to'ldiradigan ma'lum so'zlar zahirasi bilan xarakterlanadi. Agar modellar aynan mana shu til kollektivi vakili uchun yetarli darajada xos bo'lsa, so'z boyligi va gapirish tarzi uning ma'lum bir sotsiumga tegishli ekanligini ko'rsata oladi, o'qimishlilik darajasi, xarakterining tipi haqida shohidlik bera oladi, jinsi va yoshidan dalolat beradi va h.k. O'nlab ijtimoiy rollarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan bunday shaxsning til repertuari jamoada qabul qilingan til etiketini hisobga olgan holda o'zlashtirilgan bo'lishi kerak.

Lisoniy shaxs tilda aks ettirilgan madaniyat makonida ijtimoiy ong shakllarida turli bosqichlarda (ilmiy, turmush va h.k.), yurish-turish tarzida va normalarida, moddiy madaniyat materiallarida namoyon bo'ladi. Madaniyatda belgilovchi rol millatning qadriyatlariga tegishlidir.

Madaniy qadriyatlar shunday tizimki, unda hammabop va individual, asosiy va qo'shimcha mazmunlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, barcha madaniyatlarda insonning ochko'zlik, qo'rqqoqlik, kattalarni hurmat qilmaslik, dangasalik va shu kabi illatlari qoralanadi, ammo har bir madaniyatda bu illatlar turli ko'rinishlarga egadir.

Bugungi kunda tilning tilshunoslikda mavjudlik maqomini belgilab beradigan lisoniy shaxsini o'rganishga tegishli turli



yondashuvlar mavjud: elitar lisoniy shaxs, semiologik shaxs, til va nutq shaxsi, emotsional lisoniy shaxs, g'arb va sharq madaniyatlari lisoniy shaxsi, rus yoki o'zbek lisoniy shaxsi.

Lisoniy shaxsning boshqa konsepsiyalari ham mavjud. Masalan, ular quyidagi komponentlarni tashkil qiladi:

- gapiruvchi inson - faoliyatlaridan biri nutq faoliyati bo'lgan shaxs;

- lisoniy shaxs — o'zini nutq faoliyatida namoyon qiluvchi, ma'lum bilimlar va tasavvurlar majmuasiga ega bo'lgan shaxs;

- nutq shaxsi — fikr almashinishida o'zini namoyon qiladigan, munosabatning u yoki bu strategiyasi yoki taktikasini, vositalar repertuarini tanlaydigan va amalga oshiradigan shaxs;

- kommunikativ shaxs - real kommunikatsiyada ishtirok etuvchi aniq kommunikativ harakat ishtirokchisi.

Mazkur ishda biz lisoniy shaxsning ikkita tarkibi — aynan lisoniy va kommunikativ qismini ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, lisoniy shaxs — o'ziga xos jihatlarni jam qilgan ijtimoiy hodisa. Lisoniy shaxsda o'ziga xoslik tilga ichki munosabat orqali, shaxsga oid til jihatlarning vujudga kelishi orqali shakllanadi, ammo bunda shuni unutmaslik lozimki, lisoniy shaxs til an'analariining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Lingvomadaniyatshunoslikda shaxsning nutq madaniyati "mentalitet" va "mentallik" tushunchalari bilan uzviy bog'langan. Bu terminlar ijtimoiy va gumanitar fanlarda faol ilmiy atama qo'llanilmoqda. Shu bilan bir vaqtda bu terminlarning mazmuniy noaniqligi va nomukammalligi sotsiologik tadqiqotlarda ulardan samarali foydalanish imkonini bermaydi. Kerak bo'lgan barcha hollarda, masalan, katta ijtimoiy o'zgarishlar yuz bergan paytda millatlararo farqlarni tushuntirishda, hozirgi jamiyatda bozor islohotlarini amalga oshirishdagi yutuq va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tushuntirishda bu terminlar yordamiga murojaat qilinadi. Mentalitet va mentallik so'zlariga murojaat qilish shu daraja tez-tez takrorlanib turadiki, ba'zida mualliflar qo'llanilayotgan tushunchalarning metodologik tadbiiq qilinganlik va asoslanganlik darajasi haqida hatto o'ylab ko'rmaydilar.

Ayrim olimlar shundan kelib chiqadilarki, mentallik konstantlarini — o'zlarining ongiga madaniyat, til, din, tarbiya,

ijtimoiy munosabat orqali kiritilgan o'zgarmas asosiy tasavvurlarni o'z ichiga oladi degan xulosadan kelib chiqadilar. Bu holda taraqqiyotning o'tish davrida kishilarning tanlashiga ta'sir ko'rsatadigan mentallik omil sifatida hamda ochiq va o'zgaruvchi tarixda tanlash sharoitida harakat qilayotgan tarixiy shaxsning o'zini o'zi belgilash mexanizmini ochib beruvchi hodisa sifatida paydo bo'ladi.

Shunday bo'lsa ham, mentalitet aynan individual va jamoa (kollektiv) ongining mustahkam tarkibi sifatida qoladiki, uning yordamida individlar yangiliklarga qarshilik ko'rsatadilar va ayni vaqtda o'zgarayotgan sharoitlarga va talablarga ko'nikadilar.

Shuning uchun ham mentalitet va mentallik ta'rifiga aniqliklar kiritish lozim (XIX asrda "lisoniy ong" (ruh) yoki "millat ongi" (ruhi) tushunchasi "mentalitet" termini bilan almashtirilgan edi). U xulq-atvorda, noto'g'ri tushunchada, fikrlash tarzida ifodalanadi. Butunlay umumiy ko'rinishda mentalitet fikrlash turi, aql tuzilishi bo'lib, u bilish, emotsional, irodaga oid jarayonlarda va xulq-atvor xarakterida namoyon bo'ladi.

Mentallik kundalik, xuddi asliday takrorlanuvchi, odatdagi turmush tarzining va faoliyatning saqlab qolish usuli bo'lib, u ruhiy holat emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa, modomiki, uning elementlari simvollar, madaniyatning kodlari, predmetlarning buyum shakli va faoliyatning tayyor uslublari, ya'ni amaliy xulq-atvorning ijtimoiy-madaniy maydondagi o'ziga xos shakllari sifatida berilgan. *Mentalitet mentallikning yo'lga qo'yilganligini va o'rab turgan olamga nisbatan bir qolipdagi munosabatni ifodalaydi.*

Mentallikning shakllariga ushbu umumiylikka xos bo'lgan xulq-atvorning tayyor qolipi — kollektiv tasavvurlar, o'rab turgan olamni baholash va o'zlashtirishni tushuntirib berishda namoyon bo'ladigan intellektual ta'sirlar kiradi.

O'z vazifalariga ko'ra ijtimoiy tasavvurlar guruh mentalitetining ijtimoiy-psixologik va madaniy barqarorligini ta'minlaydi va bilish vositasi vazifasini bajaradi. Odamlar o'z tasavvurlarini tushuntirib, ularni asoslab, o'zlari yaratadilar. Ammo ma'lumotni ham qo'shib hisoblaganda voqelik, sodir bo'layotgan narsalarning realligi haqidagi savolga javob berishning mezoni bo'lib xizmat qiladigan

tasavvurlar asosida tuziladi. Voqelik o'zgarib ketadi, chunki inson uni o'z xohishlari, manfaatlari va tasavvurlari ta'siri ostida ko'radi. Ijtimoiy tasavvurlar xulq-atvorning vositachisidir. Shunday qilib, ular o'z xulq-atvorni shakllantiradilar va ijtimoiy aloqalarni yo'naltiradilar.

Shunday qilib, mentalitet va mentallik — inson ongining, tasavvurining, munosabati va harakatining ko'po'lchovli fenomenlari bo'lib, ular turli nuqtai nazarlardan ta'riflanishi mumkin. Mentalitetning ilmiy manzarasi diskursiv tahlil va turli guruhlarining mentalligi o'zini namoyon qiladigan va ko'rinishini o'zgartiradigan, ayni paytda o'zining dastlabki tavsifini saqlab qoladigan amaliyotlar doirasining tahlili bilan chambarchas bog'langan. Sotsiologik tadqiqotlar, aslini olganda, turli guruhlarining kundalik amaliyotidagi ma'lum mentalligini fanlararo tasvirlashdan, tushuntirishdan va talqin qilishdan iboratdir.

Ilgari ta'kidlanganidek, til yordamida biz borliqni gavdalantiramiz. Nafaqat tasvirlaymiz, balki aynan gavdalantiramiz, chunki tasvirlash borliqni ifodalashning shakllaridan biridir. Masalalar, xohishlar barcha nutq faoliyatlari kabi borliqning aks ettirilishi yoki tasavvurlari shakllaridir. Tilni uch xil tushunish mumkin: til sifatida — tizimni; til sifatida — faoliyatni yoki nutqni; tilning birligi sifatida — tizimlar tilini va faoliyat yoki nutqning tilini. Bundan buyon biz tilni tizim tili va faoliyat tili birligi sifatida til deb belgilaymiz, faoliyat tili ma'nosida — nutq deb belgilaymiz.

Olamning lisoniy manzarasini tilda fikrlash deb qarash mumkin, chunki, birinchidan, olamning manzarasi oddiygina suratga olish emas — bu fahmlash yoki taqlid qilishdir; ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan (muhokama qilinayotgan) tasavvur yoki in'ikos tovushli xarakterga ega, ya'ni u amalga oshiriladi va til shaklida mavjud bo'ladi.

Nutqiy tafakkur borliqning nutqiy tasavvuridir. Nutqiy tafakkur olamning konseptual va yoki fokusli bo'linishidir, nutqiy bo'linish esa uning vaziyatdan kelib chiqqan bo'linishidir.

Nutqiy mentallik — bu nutqiy tafakkur usuli, ya'ni borliqni nutqiy tasavvur qilish, borliq va uning nutqiy ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro bog'lanishi yoki obrazi nutqiy ko'rinishining usulidir.

Til mentalligi til tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Bundan tashqari, bu ta'rifdan shu narsa kelib chiqadiki, u til tafakkurining eng muhim aspekti. Til mentalligining ikki tipini — leksik va grammatik mentallikni ajratib ko'rsatish mumkin.

Leksik tipdagi til mentalligi leksik-semantik tizimda o'z ifodasini topadi.

Grammatik tipdagi til mentalligining o'ziga xos xususiyati borliqni lokal, temporal va boshqa ko'rinishlari orqali aniqlaydi. Borliqni his qilishning bu fokuslari birinchi navbatda zamonlarning grammatik tizimlari, son kategoriyasi, rod kategoriyasi va boshqalarda mustahkamlangan.

Shunday qilib, borliqni his qilishning ijtimoiy-madaniy stereotiplari til mentalligini shakllantiradi, unda ma'lum shaklga kiradi. Shubhasiz, bunda til omillari ma'lum rol o'ynaydi, til mentalligi ularning ta'siriga nutq mentalligiga qaraganda ancha ko'p darajada moyil bo'ladi, ammo bu moyillik ijtimoiy-madaniy omillarning roliga qaraganda uncha ahamiyatsizdir.

Nutq mentalligida ijtimoiy-madaniy omillar turli kombinatsiyalarni tashkil qiluvchi o'ziga xos filtr (tozalovchi) roliga namoyon bo'ladi. Borliqning aynan bir qismini shu filtr orqali o'tkazib, biz olamning turlicha tasavvurini yoki uning aksini olamiz.

Faraz qilish mumkinki, eng katta farqlar til sohasidagi mentallikda emas, balki nutq sohasidagi mentallikda ko'zga tashlanadi. Sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lgan ijtimoiy-madaniy omillar til mentalligining yetakchi determinantlari (ifodalovchilari, izohlovchilari) bo'lganligi sababli, demak, shundan kelib chiqib, til mentalligi ham o'zgaruvchandir. Shu bilan birga, u nutq mentalligiga qaraganda ko'p darajada konservativdir. Ta'kidlash joizki, til va nutq mentalligining har xil aspektlari turli darajada o'zgarishlarga uchragan. Bundan kelib chiqadiki, nutq mentalligining ayrim aspektlariga qaraganda ko'proq o'zgaruvchan bo'lgan til mentalligining bunday aspektlari mavjud bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda til mentalligi til omillaridan emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar orqali ifodalanishidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, mentallikning tiplarini til

xususiyatlari asosida emas, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatlar asosida ajratish kerak. Garchi ko'p hollarda ijtimoiy-madaniy omillar alomatlarining ma'lum to'plami aniq bir til bilan bog'langan bo'lishiga qaramasdan, til mentalligi tiplarini aynan mana shu xususiyatlariga qarab ajratib ko'rsatish zarur. Shuning uchun rus, ingliz, frantsuz yoki boshqa mentalliklar haqida gap yuritganda, tillar bilan emas, balki tegishli ijtimoiy-madaniy birliklar bilan munosabatchilik bo'lgan mentallikni ko'zda tutmoq lozim. Til mentalligi "lisoniy shaxs" tushunchasi va uning ijtimoiy mavqeiini hisobga olgan holda lisoniy shaxsning ta'rifi bilan uzviy bog'langan.

Shunday qilib, "shaxs" konsepti juda ko'p ijtimoiy fanlar: psixologiya, falsafa, sotsiologiya, estetika, ekologiya va boshqa antropologik yo'nalishlarning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi.

Psixologiyada shaxs individ tarzida, ijtimoiy ta'sir sub'yekti, ijtimoiy munosabatlar va mental anglangan faoliyat tarzida qaraladi. Shaxs ijtimoiy davomiylik sohasi bo'yicha tadqiq qilinadi. Falsafada bo'lsa u ma'naviy, o'z turmushida tarkibi belgilangan va ijodiy harakatlar yordamida rivojlanuvchi shaxs sifatida qaraladi. "Shaxs" termini o'zaro hamkor fanlar (psixolingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik) tomonidan o'zlashtirib olinadi va fanlararo yo'nalishlarning ob'yekti sifatida ikki fan sohasining tutashuvida tadqiq qilinadi.

Shaxs u yoki bu shaklda ma'lum bir jamiyatni, o'z xalqini, millatini, o'zining davrini aks ettiradi va aynan shuning uchun shaxsning universal mazmuni tahlil va izohga muhtojdir.

Lisoniy shaxsning tuzilishi: Yu.N. Karaulovning "Russkiy Yazik i Yazikovaya lichnost" deb nomlangan ishida lisoniy shaxs modelining uch bosqichli tushunchasi berilgan. U lisoniy shaxsning tuzilishiga mos kelishi mumkin bo'lgan anglash va tushunish jarayonining uch bosqichli g'oyasiga asoslanadi. Tadqiqotchining fikri bo'yicha, lisoniy shaxs uch tuzilish bosqichiga ega. Birinchisi - verbal-semantik (semantik-qatordagi, invariant), odatdagi tilni bilish darajasini aks ettiradi. Ikkinchi bosqich-kognitiv, bunda lisoniy shaxsga xos bo'lgan va kollektiv va (yoki) individual kognitiv makon yaratuvchi muhim bilim va

tasavvurlarni aktuallashtirish va identifikatsiyalash sodir bo'лади. Bu bosqich shaxsning lisoniy olami modelini, uning tezaurusini (tilning mukammal lug'ati), madaniyatini aks ettirishni nazarda tutadi. Uchinchisi, oliy, pragmatik bosqich - til shaxsining rivojlanishini harakatga keltiruvchi sabab va maqsadlarni aniqlash va tavsiflashni o'z ichiga oladi.

Lisoniy shaxsning bosqichli modeli umuman shaxsning umumlashgan tipini ifoda etadi. Mazkur madaniyatda aniq lisoniy shaxslar juda ko'p bo'lishi mumkin, ular shaxs tarkibining har bir bosqichdagi o'zgarishlari ahamiyati bilan ajralib turadi. Shunday qilib, lisoniy shaxs - bu nutq shaxslarining ko'p qatlamli va ko'p tarkibli paradigmasidir. Bunda nutq shaxsi - real munosabatdagi, faoliyatdagi lisoniy shaxsdir. Aynan nutq shaxsi bosqichida ham lisoniy shaxsining milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati, ham munosabatning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati namoyon bo'лади.

Tushunish jarayoni tuzilishida quyidagilar farqlanadi:

a) so'zlovchining tushunish - lisoniy shaxs asosiy fikrining motivatsion darajasiga to'g'ri keladi;

b) matnning konsepsiyasini anglash (tezaurus bosqichi);

v) so'zlarning mazmunini anglash (verbal-semantik bosqich).

Har bir bosqichda gap so'z haqida (nol bosqichi - (v)), tub ma'no haqida (birinchi bosqich - (a)) va matn haqida (ikkinchi bosqich - (b)). bo'lishi mumkin. Ularning har birida lisoniy shaxs o'ziga xos bo'lgan bir tipdagi quyidagi elementlardan , a) tegishli bosqichning birliklaridan; b) ular orasidagi o'zaro munosabatlardan; v) komplekslarning har bir bosqichi uchun xos bo'lgan stereotip birlashmalardan tashkil topadi:

Lisoniy shaxs aynan qaysi bosqichdan boshlanadi, ya'ni nol bosqichidanmi yoki birinchi bosqichdanmi, degan savolga turlicha javob beriladi. Lisoniy shaxsning oliy motivatsion bosqichi tuzilishi individualizatsiyaga ancha moyil, bu narsa aynan shu bosqichda lisoniy shaxs rivojlanishi tuzilishining o'ziga xos jihatlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu bosqich ham elementlarning uch tipidan, ya'ni birliklardan, o'zaro munosabatlardan va stereotiplardan tashkil topgan bo'lib, ular sinchiklab o'rganilganda

nafaqat soʻzlarni yoki konseptlarni, tushunchalarni aks ettirib qolmay, balki pragmatik nuqtai nazardan qarab chiqiladigan shaxsning kommunikativ va faoliyat ehtiyojlarining ifodasi hisoblanadi.

Lisoniy shaxsni shakllantirish modeli metodik yondashuv nuqtai nazardan ifodalangan (oʻqitish usullarini umumlashtirish asosida lisoniy shaxsni qayta yaratish), yaʼni lisoniy shaxs qadriyatlari ierarxiasini shakllantirish orqali oʻqitish tajribasi asosida qayta qurishda ifodalangan. Lisoniy shaxsni qayta qurishga maqsadli yondashuv oʻqitish narijalariga erishishdan, yaʼni nutq malakalarini, koʻnikmalarini, oʻrgatish obʼyektlariga tayyorgarlikni qoʻlga kiritishdan iboratdir. Nutq malakalari va koʻnikmalari tayyorgarliklarining tartibga solingan roʻyxati “lisoniy shaxs” tushunchasining operatsion mazmuni haqida maʼlum tasavvur beradi.

Lisoniy shaxs tuzilishining toʻliq tasvirini ifodalash uchun tilni bilishning besh xil bosqichi mavjudligini taʼkidlab oʻtish lozim:

1) toʻgʻrilik bosqichi, u ushbu tilning elementar qoidalariga mos keladigan matnlarni hosil qilishga imkon beradigan yetarli darajadagi leksik zahiraning va tilning asosiy grammatik qonuniyatlarining mavjud boʻlishini koʻzda tutadi;

2) materialni egallash bosqichi tilning ichki harakatiga muvofiq mulohazani amalga oshirish va idrok qilishni bilishni oʻz ichiga oladi;

3) mazmunga boylik (toʻlalik) bosqichi – fonetika, grammatika va leksika sohasida til ifoda vositalarining barcha xilma-xilligi aks etganligi nuqtai nazaridan ajratiladi;

4) adekvat tanlov bosqichi - qoʻllanilayotgan vositalarning kommunikativ vaziyatlarga va kommunikantlar rollariga muvofiq ravishda ifodalanadi;

5) adekvat sintez bosqichi - lisoniy shaxsning matnini uning mazmuniga tegishli tarkibiy va kommunikativ vazifalarning barcha kompleksiga mosligini eʼtiborga oladi.

Shunday qilib, lisoniy shaxs modeli uchta oʻqning kesishuvida – til tuzilishi bosqichi (fonetika, grammatika, leksika), -tilni hamda nutq faoliyatining shakllarini bilish bosqichlari (gapirish, yozish,

tinglash va o'qish) uch o'lchovli hosila tarzida namoyon bo'ladi. Personajning nutq matnlari majmuini tizimlash (sistemalash) maqsadida aynan konkret personajga tegishli bo'lgan nutq harakatlarini, matnlarni uning individual lisoniy shaxs sifatida yaxlit xarakteristikasini tuzish uchun badiiy asarning til asosini o'rganish va tadqiq qilish zarurdir. Tilni bilish darajasi masalasi "lisoniy kompetentsiyasi" tushunchasi bilan uzviy bog'langan, u lisoniy shaxsning bosqichlarini ajratib ko'rsatish muammosi bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, lisoniy kompetentsiya va lisoniy bosqich tushunchalarini ham farqlash lozim bo'ladi. Insonning kasbi, ma'lumoti, moliyaviy ahvoli, turmush tarzi bilan bir qatorda til kompetentsiyasi uning ijtimoiy statusi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tilni aktualvirtual bilish xususiyati bilan tilni haqiqiy bilishni va tilga ijtimoiy-nufuzli yaqinlashishni farqlashadi (masalan, Rossiyada inqilobdan oldingi fransuz tili hozirgi kundagi ingliz tili).

Normativ to'g'rilik xususiyatlariga ko'ra — tilni normativ qo'llashni biladigan o'qimishli odamlarning va savodsiz til sohiblarining til kompetensiyasi.

Tizimli to'g'rilik xususiyatlariga ko'ra o'zlari uchun ona tili hisoblangan til sohiblarining til kompetensiyalari va o'zlari uchun yot bo'lgan tilda so'zlashuvchi kishilarning til kompetensiyalari farqlanadi.

Til boyligi xususiyatlariga ko'ra tildan foydalanuvchilar va turli adabiy usullarni biladigan til ekspertlarining til kompetensiyalari ajratib ko'rsatiladi.

Lisoniy kompetensiya masalasi bir nechta xususiy: V. Xomskiy va D. Xayms nazariyalarida til (grammatik) va nutq (kommunikativ) kompetensiya, til kompetensiyasining tiplari va bosqichi masalalariga ajralib ketadi. Insonning ijtimoiy maqomi masalasi til kompetensiyasi darajalari va til shaxsi masalalari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Bu yerda tilni bilishning besh bosqichi ajratib ko'rsatiladi. Ularni yana bir bor eslatamiz:

- 1) to'g'rilik darajasi, nutq normasiga mos kelish;
- 2) interiorizatsiya darajasi, nutq harakatining mavjudligi yoki yo'qligi;



3) mazmunga boylik darajasi, nutqning kambag'alligi yoki boyligi ko'rsatkichi;

4) adekvat tanlov darajasi, sinonimikani bilish;

5) adekvat sintez darajasi, munosabatning uyg'unligini saqlash.

Insonning ijtimoiy maqomiga mos ravishda, shuningdek, tilni bilish darajasini ataylab namoyish qilishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, ko'pgina odamlar hayajondan duduqlanib qolishlari, gapni chaynab gapirishlari, o'zlaridan yuqori shaxslar bilan o'zaro muloqotda yoki tegishli ko'nikmasiz minbardan turib so'zlaganlarida o'z fikrlarini chalkash-chulkash bayon qilishlari mumkin. Ushbu fakt o'zini tutishning normasi sifatida qaralishi mumkin. Binobarin, o'z qo'l ostidagilar bilan erkin (ravon) gaplashish zarur. Yetarli bo'lmagan (qoniqarsiz) nutq kompetensiyasi ijtimoiy maqomning ko'rsatkichi sifatida yuzaga chiqadi.

Insonning ijtimoiy maqomi sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi va u, bir tomondan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-etnik xarakteristikalar bilan, boshqa tomondan esa, ijtimoiy tabaqalanishning kasbiy, masofaviy, normativ xarakteristikalar bilan bir-biriga bog'langan. Bu xarakteristikalar va o'lchamlar sinxronik va diaxronik jihatdan qarab chiqilishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomini lingvomadaniyatshunoslikda o'rganish madaniyat hodisasi bo'lgan tilning muhim jihatlarini ochib berish hamda kishilarning nutq axloqi xarakteristikasini o'rnatish imkonini beradi.

Shunday qilib, lisoniy shaxs ko'p o'lchovli hosilani o'zida aks ettiradi. Uni til nuqtai nazaridan (nutq madaniyati tiplari, til normasidan) qarab shaxs modelini aniqlash mumkin. Til shaxsining funksional tipi tegishli til standartining (turg'un bo'lib qolgan adabiy normaning) va til nostandarti (sotsiolekt, dialekt, idiolektning) qo'llanish shkalasi asosida aniqlanadi. Bu tushunchalar inson haqidagi shakllangan yagona fanning konseptual o'zagidan iborat. Bu tushunchalarga shaxsning ijtimoiy maqomi — kishining ijtimoiy tuzumdagi o'rni kiradi. Nutqning ma'lum shaxsga nisbatan maqomiy ko'rinishi aholining turli guruhlari tomonidan talaffuzda, so'zlarni tanlashda va normativ grammatika

qoidalarini saqlashda kuzatib turiladi. O'qimishli kishilarning va uncha o'qimishli bo'lmagan kishilarning nutqiga xos o'ziga xos xususiyatlari ajralib turadi.

Lisoniy shaxs uch darajaning har birida: funksional, ijtimoiy va shaxsiy darajada o'ziga xos bir shakldagi elementlardan tegishli darajadagi birliklardan; ular o'rtasidagi munosabatlardan; komplekslarning har bir darajasi uchun xos bo'lgan stereotip birlashmalardan tashkil topgan.

Inson maqomining lisoniy kompetensiyasi lisoniy shaxs masalasi bilan va til kompetensiyasi masalasi bilan uzviy bog'langan.

### **1.6. Til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita sifatida**

Keyingi yillarda lingvistika fanida eng muhim mavzulardan biri olam lisoniy manzarasi va ularning fragmentlarini hamda ma'naviy – madaniy konseptlarni o'rganish bo'lib qoldi. Til vositalari bilan anglanadigan olamning lisoniy manzarasi timsollari – ilmiy va sodda manzaralari ham mavjuddir. Quyida shu tushunchalar haqida fikr yuritiladi.

Olamning ilmiy manzarasi - bu fanda ishlab chiqilgan fundamental tushunchalar va fanning prinsiplari bilan ifodalanadigan borliq haqidagi tasavvurlarning eng umumiy tizimidir. Bu tasavvurlardan ushbu fanning asosiy postulat (dastlabki qoida, faraz)lari kelib chiqadi.

Olamning sodda manzarasi - kundalik hayotda qo'llaniladigan borliq haqidagi fangacha bo'lgan bilimlar va tasavvurlar tizimi. Lingvomadaniyatshunoslikning xazinasida mustahkam o'rinishgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasiga murojaat uning falsafa faniga aloqador "olam manzarasi" tayanch tushunchasi bilan o'zaro bog'lanishini aniqlashni talab qiladi. Madaniyatshunoslar e'tiborni, eng avvalo, sub'yektga bog'liq bo'lgan olam manzarasining xilma-xilligi faktiga qaratadilar, sub'yekt esa alohida inson, odamlar to'dasi, ma'lum bir xalq, umuman insoniyat bo'lishi mumkin.

Olam manzarasining ko'p variantligi kishining ijtimoiy tajribasiga bog'liq, boshqacha qilib aytganda, kuzatuvchi qarab turgan his qilish (tushunish, anglash, idrok etish) dunyosi qancha bo'lsa, shuncha olam manzarasi mavjuddir. Tegishli olam manzaralari – mifologik, diniy, falsafiy, ilmiy manzaralar olamni ko'rishning tegishli yakunidir.

Agar olam manzarasining xilma-xilligi haqidagi g'oya nisbatan yaqin vaqtlarda aytilgan bo'lsa, olamning alohida o'ziga xos lisoniy manzarasi ko'rinishining mavjudligi haqidagi fikr V.fon Gumboldt tomonidan XIX asrning boshlaridayoq bildirilgan edi. Ta'kidlash joizki, olamning lisoniy manzarasi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlarda u ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Bir tomondan, ushbu tilga tegishli bo'lgan o'ziga xos konseptlar, har bir tilga oid spetsifik tushunchalar yoki nospetsifik ranglarni ifodalovchi so'zlar aniqlanadi va tasvirlanadi. Boshqa tomondan, muayyan tilga, garchi sodda bo'lsa ham, xos bo'lgan konseptual tushunchalar ma'nolari haqida tadqiqotlar faol tarzda olib boriladi. Bu qoidalar olamning sodda manzarasi fragmentlarini tasvirlashga harakat qilingan tadqiqotlar uchun tayanch bo'lib qoldi.

Ammo olam sodda manzarasining u yoki bu fragmentini tadqiq qilish ikkita o'lchovni – til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib qo'yadi. Bizning fikrimizcha, "olamning lisoniy manzarasi" va "konsept" tushunchalarini o'rganishda bu o'zini oqlaydi.."Konsept" termini hozirgi fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan.

Til madaniyatda va idrok qilishda asosiy va faol rol o'ynaydi. U insonni boshqa butun olamdan ajratib turadigan noyob xususiyatdir. Ona tilini idrok qilish uni egallashning tabiiy uslubini belgilaydi, inson ona tilini tug'ilgandan boshlab, ona suti bilan birgalikda egallaydi.

Shuningdek, til insonning borliq haqidagi bilimlari shakllanishining va mavjudligining eng muhim yo'lidir. Faoliyat jarayonida ob'yektiv borliqni aks ettirib, inson idrokining natijalarini so'zda mustahkamlaydi.

Olamning lisoniy manzarasi reallikning ob'yektiv bilimlarini to'ldiradi. Til shaklida aks ettirilgan bu bilimlarning majmui turli konsepsiyalarda "oraliqdagi lisoniy olam", "olamni tilda qayta tasavvur qilish", "olamning lisoniy modeli", "olamning lisoniy manzarasi" deb ataladigan tushunchalardan iborat. Tilshunoslikda bu tushuncha ko'p tarqalganligi bois biz "olamning lisoniy manzarasi"terminini tanlaymiz.

"Olam manzarasi" tushunchasi (shu jumladan olamning lisoniy manzarasi) insonning borliq haqidagi tasavvurlarini o'rganishdan tashkil topgan. Borliq-bu inson va muhitning birgalikdagi o'zaro munosabati, olam manzarasi esa — "muhit va inson haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir".

"Manzara" ("kartina") so'zida biz, eng avvalo, biror narsaning in'ikosi (aks etishi) haqida o'ylaymiz, ammo, mazmunan, "olam manzarasi" tushunchasi borliqni tasvirllovchi manzarani emas, balki, tushunchalarni manzara sifatida ifodalaydi.

"Olamning lisoniy manzarasi" termini — bu metaforaga qaraganda kengroq tushuncha, chunki voqelikda ma'lum bir kishilar jamoasining noyob ijtimoiy-tarixiy tajribasi qayd qilingan milliy tilning o'ziga xos xususiyatlaridir. Bu til sohiblari uchun ob'yektiv mavjud bo'lgan olam manzarasidan ajralib turadigan qandaydir betakror olam manzarasini yaratmaydi, balki predmetlarning milliy ahamiyati, hodisalar, jarayonlar, mazkur xalqning o'ziga xos faoliyati, turmush tarzi va milliy madaniyati keltirib chiqaradigan, o'ziga xos ma'naviy o'zgachaligini yaratadi.

Olam manzarasining individual va ijtimoiy anglash asosida yotgan narsani olamni bilish deb atash mumkin.

Olam manzarasi predmetlar, jarayonlar, xususiyatlar va boshqalarning "suratlari", "tasvirlari" to'plami emas, chunki u o'zida ham aks ettirilgan ob'yektlarni, ham uni aks ettiruvchi sub'yektning nuqtai nazarini, uning bu ob'yektlarga munosabatini o'z ichiga oladi, buning ustiga sub'yekt nuqtai nazaridan — xuddi ob'yektlar kabi reallikdir. Boz ustiga, inson olamni passiv holda emas, balki faoliyatda aks ettirar ekan, ob'yektlarga bo'lgan munosabat u tomondan nafaqat keltirib chiqariladi, balki bu ob'yektlarni o'zgartirib yuborishga ham qodirdir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy-tipik vaziyatlar, munosabatlar, baholar tizimi milliy til tizimida aks ettiriladi va olamning lisoniy manzarasini qurishda ishtirok etadi. Masalan, ruscha “kogda rak na gore svistnet” (qisqichbaqa tog‘da xushtak chalganda) iborasi ingliz tilidagi “kogda svini poletyat” (cho‘chqalar uchgan paytda), qirg‘iz tilidagi “eshakning dumi yerga tekkanda”, o‘zbek tilidagi “tuyaning dumi yerga tekkanda” iboralari bilan mos keladi va hokazo. Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasi, umuman olganda, odamlarning ongida uning mantiqiy in‘ikosiga mos keladi. Bizning ishonchimiz komilki, bunga tildan tilga o‘zgaruvchi frazeologik birliklar ham taalluqlidir.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va bu muammoning yechimini topishga karatilgan dastlabki urinishlar V. Gumboldt asarlarida kuzatiladi. Uning ta’limotining asosiy xulosalari quyidagilar: 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda o‘z aksini topadi; 2) har qanday madaniyat milliy, uning milliy tabiati tilda olamni o‘ziga xos ravishda ko‘rish orqali ifodasini topadi; tilga har bir xalq uchun xos bo‘lgan ichki shakl mavjud; 3) tilning ichki shakli — bu “xalq ruhi”, uning madaniyatining ifodasi; 4) til inson va uni o‘rab turgan olam o‘rtasidagi bir zanjir.

V. Gumboldtning mazkur ta’limoti A.A. Potebnyaning “Misl i Yazik” kitobi hamda Sh. Balli, J. Vandries; I.A. Boduen de Kurtene, R.O. Yakobson va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘ziga xos ravishda rivojlantirilgan. Til bizga mentallikning yashirin sohasiga kirishga yordam berishga qodir yagona vosita hisoblanadi, zero til u yoki bu madaniyatdagi olamni qismlarga bo‘lish bilan birga uning ichki xususiyatlarini aniqlab bera oladi.

V. Gumboldt yozgan edi: “Tilni o‘rganish bu pirovard maqsad emas, biroq u boshqa sohalar bilan birgalikda olinganda, insoniyatning o‘zligi va o‘zining atrofidagi ko‘zga ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan narsalarni o‘rganishdek oliy va umumiy maqsadga xizmat qilishni talab etadi”.

Qator adabiy janrlarda inson asosiy tadqiqot ob‘yekti hisoblanadi. Bular jumlasiga nomalar, solnomalar, tarjimai hol, maktublar, qissalar kiradi. E. Benvenist yozganidek, til inson tabiatiga xos, shu bois u sun’iy.

Ma'lumki, madaniyatni inson, inson shaxsi yaratadi va uning o'zi unda yashay boshlaydi. Aynan shaxsda isonning ijtimoiy tabiati oldingi planga chiqib oladi, odamning o'zi esa ijtimoiy-madaniy hayot sub'yekti sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs etnos yoki xalqning madaniy an'ana istiqbollari nuqtai nazaridan o'rganilishi shart, chunki odam tasavvurida inson tug'ilishi uchun madaniyat doirasida shakllanuvchi madaniy-antropologik prototip zarur.

R. Yakobson ta'rifiga ko'ra, funksional jihatidan "til aqliy va ma'naviy yashash va muloqot qilish vositasi hisoblanadi". Shuni ham aytib o'tish kerakki, turli semiotik tizim bo'lishiga qaramay, ular o'zaro ko'pgina o'xshash jihatlariga ega: 1) madaniyat til kabi odamning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari hisoblanadi; 2) madaniyat va til doimo o'zaro muloqot holatidalar; 3) madaniyat va til sub'yekti — bu doimo individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat; 4) me'yoriylik — til va madaniyat uchun umumiy bo'lgan xususiyat; 5) tarixiylik — til va madaniyatning eng ahamiyatli belgilaridan; 6) til va madaniyat uchun "dinamika — statika" antinomiyasi xos.

Til va madaniyat: 1) kommunikatsiya; 2) ontogenez (odamning lisoniy qobiliyatining shakllanishi); 3) filogenez (jinsiy, ijtimoiy odamning shakllanishi) jarayonlarida o'zaro bog'liq.

Til va madaniyat mutanosibligidan hosil bo'luvchi manzara haddan tashqari murakkab va ko'p aspektlidir. Bunda butun borliq, milliy-madaniy stereotiplar (qoliplar) hamda tilning o'zi ham o'zgaradi. V. Gumboldt, A.A. Potebnyalar tilni ma'naviy kuch-qudrat sifatida talqin etishgan. Til bizni o'rab olgan shunday bir muhitki, uning ishtirokisiz va undan tashqarida biz yashay olmaymiz. V. Gumboldt yozganidek, til — bu "tashqi voqea-hodisalar bilan insonning ichki dunyosi orasidagi olam".

Ayrim mualliflarning tadqiqotlarida lisoniy nisbiylik farazi, eng avvalo, D. Olford, Dj. Kerrol, D. Xayms va boshqa mualliflar asarlarida jiddiy ma'no kasb etdi. Bunda Sepir va Uorf ta'limoti sezilarli darajada to'ldiriladi.

Jumladan, D. X. Xayms tillarning yana bir funksional nisbiyligi prinsipini kiritadi. Unga ko'ra, tillar o'rtasida ularning kommunikativ funksiyalari tabiatida tafovutlar mavjud. Biroq, ayrim

tadqiqotlarda lisoniy nisbiylik farazi qattiq tanqid ostiga olinadi. Jumladan, B.A. Serebrennikov bu farazga nisbatan o'z munosabatini quyidagicha asoslaydi:

atrofdagi borliqning voqea-hodisalari tushunchalar manbai hisoblanadi. Har qanday til o'z genezisiga ko'ra dunyoni yaratuvchi o'zicha turli bosim o'tkazuvchi kuch emas, balki borliqning aks ettirilishi natijasidir;

til odamning fiziologik tuzilishi xususiyatlariga juda ham moslashgan, lekin ular tirik organizmning atrof borliqqa uzoq vaqt mobaynida moslashuvi natijasida paydo bo'lgan;

nolisoniy borliqning turli xilda qismlarga bo'linishi birlamchi nominatsiya davrida sodir bo'ladi. Bu dastlabki davrlardan saqlanib qolgan lisoniy materialning xilma-xilligi va assotsiatsiyalarning bir xilda emasligi bilan izohlanadi.

E.Sepir va B.Uorflar farazi D. Dodd, G.V. Kolshanskiy, R.M. Uayt, R.M. Frumkina, E. Xollenshteyn tomonidan salbiy baholangan. Lisoniy nisbiylik farazi zamonaviy olimlar tomonidan ham turlicha baholanadi. Shunday bo'lsada, biroq til va madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar unga murojaat qiladilar.

Tilshunos olim E.Sepir: "Til — bu madaniyatni ilmiy o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yo'l ko'rsatkichidir," deb ta'kidlagan edi.

Oxirgi yillardagi lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning-lisoniy manzarasini o'rganish yo'nalishida faol tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Olam manzarasi (jumladan, olamning lisoniy manzarasi) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Agar dunyo — bu inson va atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqlik bo'lsa, olam manzarasi esa muhit va odam haqidagi qayta ishlangan axborotdir.

"Olam manzarasi" atamasi yaqindagina ilmiy-falsafiy qarashlar predmetiga aylandi va XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fizika sohasi doirasidan o'rtaga olib chiqildi. Mazkur atamani birinchilardan bo'lib G.Gerts olamning fizikaviy manzarasini tashqi predmetlarning ichki obrazlar majmui sifatida talqin etishga

qo'llagan. Mantiqan ular orqali aynan ana shu predmetlarning xususiyatlari haqida biror bir ma'lumot olish mumkinligini ta'kidlagan.

Olam manzarasi nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan M. Plank olamning amaliy va ilmiy manzaralarini kashf etgan. U odamning borliq haqidagi yaxlit tasavvurini birinchi xildagi manzara bilan bog'lagan. Ma'lumki, bunday tasavvurlar odam tomonidan uning ichki hissiyotlari orqali asta-sekin shakllantiriladi. Shu bilan birga u olamning ilmiy manzarasini alohida shaxslar yoki insoniy tafakkurdan istisno bo'lgan absolyut ma'nodagi real dunyoning modeli sifatida talqin etadi. Olamning har qanday ilmiy manzarasi, M. Plank ta'biricha, nisbiy tabiatga ega va olamning bunday manzarasini yaratish tug'al reallik sifatida namoyon bo'ladi va pirovardida hech qanday takomilga muhtoj emas. Shu bois, Plank buni hal etib bo'lmaydigan masala deb hisoblaydi.

Olam manzarasini yaratish inson hayot faoliyatining zaruriy shartlaridan ekanligini A. Eynshteyn shunday tarzda asoslagan: "Inson qandaydir yo'l bilan o'zida olamning sodda va tiniq manzarasini yaratishga intiladi. Bu unga hissiyotlar dunyosidan uzilib, ma'lum darajada yaratilgan manzara bilan almashtirishga urinish imkonini beradi. Mazkur manzarani shakllantirishda inson o'zining notinch hayotida topa olmagan tinchlik- hotirjamlik va ishonchga ega bo'lish maqsadida ma'naviy, ruhiy dunyosining barcha og'irliklarini unga ko'chiradi".

Keyinchalik olamning ilmiy manzarasi haqida izlanishlar olib borildi. Dastlab ilmiy manzara deyilganda, tabiatshunoslar o'z ilmlari sohasida qo'lga kiritilgan va isbotlangan natijalarni tushunishgan. Hozirgi davrda olamning ilmiy manzarasi deyilganda, "fanda ishlab chiqiladigan dunyo haqidagi umumiy tasavvurlar tizimi anglashiladi. Ular biror bir fan sohasining fundamental tushunchalari va prinsiplarida o'z ifodasini topadi. Bular yordamida mazkur fan sohasining asosiy mulohazalari deduktiv ravishda ishlab chiqiladi".

Olam manzarasi tushunchasi dunyoni ko'rish qobiliyati bilan birgalikda madaniyatshunoslik va lingvosemiologik tadqiqotlar



doirasida ham o'rganib kelingan. Olamni ko'rish muammolarini dastlab mif va folklor materiallari asosida arxaik ijtimoiy ong shaklini qayta qurish masalalari doirasida o'rganishgan.

Insonning turli faoliyat sohalarida "olam manzarasi" degan tushunchani qo'llash ehtiyoji ikki xil vaziyatda: mazkur sohada birga mavjud bo'ladigan vaziyatlar ko'pvariantlilik hamda biri ikkinchisi bilan ketma-ket ravishda almashinadigan paradigmalar vaziyatini anglash zarurati tug'ilganda yuzaga keladi. Har ikkala holatda ham ikki xil tipdagi manbalarga, ya'ni shunday manzaraga ega jamiyat ichidan olib boriladigan tavsiflashlar ("o'z-o'zini tavsiflash") va tashqi kuzatuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tashqaridan tavsiflash holatlariga ("o'zgacha xildagi tavsiflashlar")ga tayaniladi.

Olamning lisoniy manzarasi haqidagi V.A. Maslova o'zining "Svyaz mifa i yazo'ika" nomli kitobida: "Olam, manzarasini insonning duny j haqidagi bilimlari tashkil etadi va u individual hamda ijtimoiy ong negizida yotadi. Til esa, o'z navbatida, bilish jarayoni talablarini ado etadi va turli tillarda so'zlashuvchi odamlar, muayyan vaziyatlarda bir-biriga yaqin, o'xshash konseptual olam manzaralarini namoyon etishlari mumkin. "Bir tilda so'zlashuvchilar esa, ulardan farqli o'laroq, turli dunyo manzaralarini o'z onglarida yaratadilar" — deb, yozadi.

Shunday qilib, "olam manzarasi" deb ataluvchi fenomen, hodisa insonning o'zi kabi qadimdan mavjud bo'lib, odam tomonidan dastlabki olam manzaralarini yaratish antropogenez jarayoni bilan bir davrda sodir bo'lib kelgan. Olam manzarasi insonning hayot faoliyatini boshqaruvchi unsuri sifatida ideal tasavvurlar xazinasi bo'lmish inson ongi, psixikasi, ruhidagina keng ma'no kashf etib qolmay, balki odamlarning xulq-atvori, moddiy-hissiy amaliyoti, madaniyat mahsulotlari kabilarda ham o'z ifodasini topadi. Har bir til dunyoni o'ziga xos ravishda ko'radi va uning sohibi o'z jumllarini mazmunan shu manzaraga muvofiq ravishda tuzishi va yaratishi kerak bo'ladi.

Ko'pgina tilshunoslarning e'tirof etishlaricha, olamning lisoniy manzarasi ko'rinishida namoyon bo'luvchi konseptual tizim, jismoniy va madaniy tajriba orqali aniqlanadi va unga bevosita

bog'liq. Til odamlarning olam haqidagi bilimlarini shakllantiruvchi va saqlab keluvchi muhim quroldir. Inson o'z faoliyati jarayonida ob'yektiv borliqni aks ettirgan holda, so'zlar orqali bilish natijalarini qayd etadi. Bunday lisoniy shaklda mustahkamlangan bilimlar yig'indisi turli terminlar bilan, ya'ni "oraliqdagi lisoniy dunyo" (V.I. Abayev), "olamning qayta lisoniy aks etishi" (T.M. Dridze), "olamning lisoniy modeli" (V. Gumboldt), "olamning lisoniy manzarasi" (B.A. Serebrennikov) kabi tarzda ataladi.

Til faqat xabar beribgina qolmay, balki, birinchi navbatda, xabar qilishga hukm etilgan ichki tarkibni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda "ma'nolar makoni" yuzaga keladi (A.N. Leontev bo'yicha), ya'ni tilda qayd etilgan olam haqidagi bilimlar, bunda aniq lisoniy jamoaning milliy-madaniy tajribasi ham kiradi. Shunday qilib, bu tilda so'zlashuvchilarning olami shakllanadi, ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksik, frazeologik va grammatik birliklari ko'rinishida qayd etilgan olam haqidagi bilimlar tarzida jamlanadi va yaratiladi.

Olamning lisoniy manzarasining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ikkita jarayonda bevosita ishtirok etadi: birinchidan, uning negizida olam manzarasi shakllanadi. Ikkinchidan, tilning o'zi olamning boshqa manzaralarini izohlaydi, ular maxsus leksika yordamida tilga kirib keladi va unga boshqa madaniyatning xususiyatlarini ham olib kiradi

"Manzara" so'zining ma'nosi ko'rib chiqilganda tilshunoslik nuqtai nazaridan qo'llanishiga e'tibor qaratiladi. "Manzara" lug'atda "lisoniy obrazlarda ko'rish yoki tasavvur qilish mumkin bo'lgan narsalar" hamda "biror narsaning ko'rinishi, holati, joylashishi" degan ma'nolarni bildiradi. Rus tilining katta izohli lug'ati yuqorida keltirilgan ma'nolarni to'ldiradi: "biror narsaning yorqin va ifodali so'z orqali tavsifi". Bunda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar obrazlar orqali izohlanadi. Obraz esa "tashqi olamning predmetlari va hodisalarining ong yordamida qayta ifodalanishi".

Bu olamning lisoniy manzarasi dunyoni til vositalari yordamida hosil qilingan tasvirlarini aks ettirishini bildiradi. Aynan shu narsa atrof borliqdagi predmetlar va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qiladi.

Pirovard natijada olamning lisoniy manzarasi bu atrof borliqdagi predmet va hodisalarning til vositalari yordamida qayta ifodalanishini bildiradi.

Yu.D. Apresyan fan paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan olamning lisoniy manzarasini "eng sodda manzara" deb atagan. "Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi bilimlarni to'ldirsada, birok, ko'pincha, bu noto'g'ri ko'rinishda aks etadi (atom, nuqta, yoruglik, issiqlik va h.k. kabi so'zlarning ilmiy va lisoniy mazmundagi izohlariga qarang). Bunday so'zlarning semantikasini o'rganish davomida olamning sodda manzarasini belgilovchi kognitiv modellarinig o'ziga xos tomonlarini aniqlash mumkin.

Olamni xato va yanglishishlarsiz o'rganib bo'lmagani tufayli odamning olam haqidagi fikri doimiy o'zgarib turadi, qayta-qayta chizilaveradi, biroq lisoniy olam manzarasida ushbu xatolar izlari uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

Lisoniy olam manzarasi insonning olamga (tabiat, hayvonlar, dunyo unsuri sifatidagi o'ziga) nisbatan turli munosabatlarni shakllantiradi. Aynan u odamning olamdagi xatti-harakatlari, xulq-atvori me'yorlarini, olam bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi.

Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholashadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo'ladi.

Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e'tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong'ulik, oxirat bilan bog'lanib, ba'zida hayot va mamot bilan (jit "pod lunoy", "v podlunnom mire" — hammaning hayoti birday sharoitda kechadi) tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun xavfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Vetnamliklarda esa boshqa janubiy osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tamoman boshqacha, ya'ni ular oy kalendari bo'yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan "Oy bayrami" bolalarning sevimli bayrami hisoblanadi. Go'zal, nozik va beg'ubor yosh qizlar oyga o'xshatiladi, sevishtganlar oy yorug'ida gurunglashib, unga bag'ishlab she'rilar to'qishadi va qo'shiqlar aytishadi. Shuning uchun Vetnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklar oy orqali tasavvur etiladi.

Shu kabi oyga munosabat o'zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki o'zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog'du sochuvchi samoviy jisimgina emas ("oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" - maqol), balki "go'zal, chiroyli yuz" ("oy yuzing qora chimmat zulmidan qutiltirgil. Chiq qorong'u turmushdan, nur ichida javlon qil" - Hamza), "juda go'zal, juda ham chiroyli" ("Oy desa oyga, kun desa kunga o'xshaydi"), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash ("Oy borib omon qayt") ma'nolarida ishlatiladi. Shuni aytib o'tish joizki, rus xalqida ham "litso, kak luna" iborasi go'zallikka tan berishni anglatadi. Bunga o'xshagan misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham ko'plab o'xshatish mumkin. Demak, milliy tillar "qurol" kabi til sohiblari uchun olamning sub'yektiv lisoniy manzarasini hosil qilmaydi, balki faqat uni tilda aks etishining o'ziga xos xususiyatiga ta'sir o'tkazadi. Til borliqni ko'rish va tushunish qobiliyatiga yo'naltiradi, inson esa unga til nimani "esiga solib tarayotganini" idrok qiladi va tushunadi.

Masalan, rangni ifoda qiluvchi rus tilidagi uchta so'z - siniy, goluboy va zeleni'yga nemis tilida ikkita - blau i grun, o'zbek, qozoq va qirg'iz tillarida esa bitta - ko'k so'zi to'g'ri keladi. Polyak tilida esa aksincha faqat bitta ko'k so'ziga bir necha so'z mavjud: blekitny (umuman ko'k haqida), modry (osmon, dengiz haqida), siny (yuz rangi haqida). Bundan o'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlar bu ranglarni farqlamaydi, degan xulosa chiqmasligi kerak.

Bu millatdagi kishilar uchun yuqorida keltirilgan ranglarni amaliy egallash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Aksincha, idrok qilinayotgan narsani o'zlashtirish va tushunish ehtiyoji unga zarur bo'lgan narsani verballashtirishga majbur qiladi: leksik tizimda mavjud bo'lmagan birliklarni (lakunalarni) o'zbeklar, qozoqlar qirg'izlar osmon kabi ko'k; dengiz kabi ko'k, o't kabi yashil birikmalari bilan almashtiradilar.

Demak, milliy tillar "qurol" kabi til sohiblari uchun olamning sub'yektiv lisoniy manzarasini hosil qilmaydi, balki faqat uni tilda aks etishining o'ziga xos xususiyatiga ta'sir o'tkazadi. Til borliqni ko'rish va tushunish qobiliyatiga yo'naltiradi, inson esa unga til nimani "esiga solib tarayotganini" idrok qiladi va tushunadi.

Xususan, ruslarda sobaka salbiy ko'rinishlar bilan bir qatorda vafodorlik, sodiqlik, qanoatlilik assotsiatsiyasi orqali fikran bog'lanadi va bu sobachya vernost, sobachya predannost, sobachya jizn va boshqa frazeologizmlarda o'z ifodasini topgan; beloruslarda bu hayvon ko'p hollarda salbiy alomatlarini izohlaydi — ushi`tstsa u sabachyu skuru (“yaramas, dangasa kishi bo‘lib qolmoq” ma’nosida), sabakam padsho`to` (“yaramas odam”); turkiy xalqlarning aksariyat qismida it - haqoratli so‘z, ma’nosi jihatidan rus tilidagi cho‘chqaga yaqin keladi.

Rus tilidagi cho‘chqa so‘zi razillik, ko‘rnamaklik, tarbiyasizlik ramzi hisoblanadi; inglizlar uchun cho‘chqa (pig) ochofatlilikni bildiradi; qirg‘izlar, qozoqlar, o‘zbeklar va boshqa musulmon xalqlari uchun unga diniy mazmun beriladi va buning natijasida cho‘chqa qo‘pol haqorat so‘ziga aylanadi; vetnam olam manzarasida esa cho‘chqa so‘zi - ahmoqlik ramzidir.

Shunday qilib, it, cho‘chqa so‘zlari turli xalqlarda turlicha xususiyatlarni ifoda qiladi, bu narsa bu xalqlar olami manzarasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tafakkur tarzining o‘ziga xosligidan, individualligidan dalolat beradi.

Berilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir til va madaniyat uchun o‘ziga xos qo‘shimcha ma’nolarning — konnotatsiyalarning vujudga kelishi xarakterlidir. Ularning paydo bo‘lish mexanizmi mazmunlarning ayrim aspektlari (ko‘pincha uning asosida muqim assotsiatsiyalar (tasavvurlar) paydo bo‘ladigan so‘zning yorqin ichki shakli hisobiga) kuchayishi bilan bog‘liq. Bunda assotsiatsiyalar konnotatsiyalarning vujudga kelishi uchun daliliy asoslarni tashkil qiladi, so‘zning asl ma’nosi esa bu yerda ko‘chma ma’noga nisbatan ichki shakl yuzasida maydonga chiqadi. Odatda denotatdan alohida xususiyatlar ajralib chiqadi, ularning obrazi konnotativ so‘zning ichki shaklida gavdalanadi. Masalan, agar qo‘rqoq kishi haqida quyon deb gapirilsa, bu uning kulrang terisi, kalta dumi, uzun quloqlari bor deganidan emas, balki bunday kishi xayoliy xatarni aniq his etib, o‘z vaqtida qochib qolishga ulgurishidan dalolat beradi. So‘zning mazmuniga assotsiativ alomatlarining, boshqacha qilib aytganda, konnotatsiyalar paydo bo‘lishining mustahkamlanib qo‘yilishi madaniy-milliy jarayondir.

Umumiy qoida bo'yicha, konnotatsiyalar so'zlardan kelib chiquvchi assotsiatsiyalarga asoslangan, ammo ular ba'zan realiyalarning xususiyatlari bilan asoslanganlar: ixtiozavr (qoloq odam haqida), buzoq (yuvosh, muloyim odam haqida), bozor (sershovqin joy haqida), vinegret (har qanday aralashma haqida), molxona (iflos kvartira haqida), hammom (har qanday issiq joy haqida) va h.k.

Ko'p hollarda konnotatsiyalar baho beruvchi sifatida idrok qilinadi, bunda shuningdek olam lisoniy manzarasini hosil qiluvchi tilning milliy o'ziga xosligi yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ruslarning olam manzarasida "eski uy" (stariy dom) birikmasi salbiy fikrni ifodalaydi, inglizlarda esa u ijobiy fikrni ifodalaydi; ko'k ko'zlar — o'zbeklar va qirg'izlar uchun eng xunuk ko'zlar, deyarli haqoratli so'z, ammo buzoq ko'z (odamlar ko'zi haqida) — eng chiroyli ko'zlarni xarakterlaydi. Bu yerda konnotatsiyalar borliqni o'zlashtirishning qimmatli shaklini, fe'l-atvor ichki ifodasining omili sifatida namoyon bo'ladi.

Konnotatsiyada til nominativ tizimining yashirin resurslari ro'yobga chiqdi, chunki konnotativ so'z so'zning semantikasi bilan murakkab munosabatda bo'lgan ma'noni nafaqat yaratish, balki teran ma'noni saqlab qolish qobiliyatiga ega, bu bilan u milliy-madaniy lisoniy manzarani yaratadi.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar — "millat hayotining ko'zgusi" alohida rol o'ynaydi. Frazeologik birliklarning ma'nosi tabiati til sohibining fonga oid (qo'shimcha) bilimlari, shaxsning amaliy tajribasi, shuningdek shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan uzviy bog'liq. Frazeologik birliklar olam manzarasi bilan assotsiatsiyaga kirishadigan ob'yektlarning xususiyatlarini qayd qiladi, yaxlit vaziyatni (matnni) nazarda tutadi, uni baholaydi, unga tegishli munosabatni ifoda qiladi. Frazeologik birliklar semantik jihatdan insonni va uning faoliyatini baholaydi.

Frazeologizmlar bilan yaratiladigan olamning lisoniy manzarasini tahlil qilib uning quyidagi belgisini — antropotsentrikligini aniqlash mumkin. Masalan, olam manzarasining antropotsentrikligi uning insonga va uning faoliyatiga yo'naltirilganligida o'z ifodasini topadi, ya'ni inson barcha narsalarning o'lchovi sifatida maydonga chiqadi:

yaqin — pod nosom (burni ostida, shundoqqina oldida, yonida, yaqinida; yonginasida), pod rukoy (yaqinginada, yonginasida, qo'lda, ixtiyorda), rukoy podat (yiroq emas, juda yaqin), pod bokom (juda yaqin, yonginasida, burnining tagida); ko'p — s golovi do pyatki (boshidan oyog'igacha), polon rot zabot (ish boshdan oshib yotibdi); kam — v odin prisest (bir o'tirishda); qorong'u — ni zgi ne vidno (qop-qorong'i, zimiston, hech narsani ko'rib bo'lmaydi); tez — i glazom ne morgnul (hech tap tortmadi, pinagini ham buzmadi, qo'rqmadi, pinagini buzmadi), v mgnovenie oka (ko'z ochib yumguncha, bir lahzada), slomya golovu (zing'illab, yelib, yeldek uchib, o'lar-tirilariga qaramay), nog pod soboy ne chuyat (oyoqni qo'lga olib, zing'illab); juda sevmoq — vlyubitsya po ushi (qattiq sevib qolmoq) va h.k.

Olamni antropotsentrik tushunish asosida bir qancha tayanch so'zlarning va frazeologik birliklarning ma'nosi shakllandi: golova kolonno (kolonna boshi), gorlo' shko buto' lki (shishaning bo'yni), nojka stola (stolning oyog'i), pribat k rukam (qo'lga olmoq, qo'lga kiritmoq), palets o palets ne udarit (biror narsa haqida qayg'urmaslik, hech ish qilmaslik), na kajdom shagu (har qadamda, juda serob) va h.k. Mana shunday nominativ birliklar milliy-madaniy olam manzarasini tashkil qilib, unda odamlarning turmush va urf-odatları, udumlari va xulq-atvorlari, ularning olamga va bir-biriga munosabati o'z aksini topadi.

Olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda mifologiya, mifologik konseptlar ancha katta ro'l o'ynaydi. Bizning nuqtai nazarimizcha, mifologemalar, obrazli metaforik, konnotativ so'zlar va boshqalar ularning eng ko'zga tashlanadiganlaridir.

Shunday qilib, olam manzarasini o'rganish odam va uning borligi xususiyatlari, olam bilan o'zaro munosabatlari, yashash sharoitlari bilan bog'liq. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olamiy manzarani aks ettiradi.

## **II-BOB. TIL BIRLIKLARINING MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGI**

### **2.1. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat munosabatini aks ettiruvchi fan yo'nalishi**

Ilmiy bilim turli sohalarining bir-biriga o'tish tendentsiyasi XX asr fanining belgilovchi xususiyatlaridan biridir. Gumanitar fanlar sohasida madaniyatshunoslik bo'yicha tadqiqotlarning, ya'ni inson faoliyatining barcha o'ziga xos tomonlarini hamda uning oldindan belgilab qo'yilgan natijalarini o'z ichiga oladigan madaniyat fenomenini sintez qilishga intilishning ifodasi bo'ldi. Hozirgi kunda lingvomadaniyatshunoslik sohasida bajarilayotgan tadqiqotlar asosan "til va madaniyat mosligini sinxron tarzda o'rganish va tasvirlashga bag'ishlangan" (Teliya:1996, 217)

Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslik tildagi insondagi madaniy omilga, ikkinchi tomondan insondagi til omiliga yo'naltirilgan. Lingvomadaniyatshunoslik - inson haqidagi fanning bir qismidir, uning tortish markazi esa madaniyat fenomenidir (Teliya:1996,222).

Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilarning o'xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu umumiy belgilar quyidagilardir:

1. Madaniyat va til — bu insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari.

2. Til va madaniyat o'zaro muloqotda (dialogda) mavjuddir, chunki nutq sub'yekti va uni tinglovchi — bu har doim madaniyat sub'yektlaridir.

3. Ikkala fenomen individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga ega, madaniyat va tilning sub'yekti - har doim individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat.

4. Til va madaniyat uchun umumiy bo'lgan jihat — normativlik.

5. Istorizm — til va madaniyatning eng mohiyatli xususiyatlaridan biri (antinomiya "dinamika" yoki "statika").

6. Madaniyat — xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasi. Til o'zining kumulyativ (to'plovchi) vazifasi tufayli kollektiv xotirani saqlaydi va boyitadi. (Teliya,1996.)



Ayni paytda inson va jamiyatning ikkita eng muhim o'ziga xos xususiyati o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Kommunikatsiyaning vositasi sifatida bo'lgan tilda ommaviy adresatga yo'l-yo'riqlar ustun turadi, madaniyatda esa saralanganlik (elitarnost) qadrlanadi.

2. Belgi tizimi bo'laturib, madaniyat, tildan farqli ravishda o'zicha tashkil topa olmaydi.

3. Til va madaniyat — turlicha semiotik tizimlardir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni madaniyat tilga izomorf emas, gomomorfdir (tarkiban o'xshashdir) degan xulosaga olib keladi (Maslova:1997, 39).

Madaniy bilimlar — shu tilda so'zlovchining madaniy-til kompetentsiyasining bir qismidir.

Madaniy kompetensiya til kompetensiyasi bilan mos kelmaydi: “til kompetensiyasining madaniy kompetensiyaga o'zgarishi madaniy kod kategoriyalarida til belgilari interpretatsiyasiga asoslangan. Shu turdagi interpretatsiyaga egalik madaniy-til kompetensiyasidir” (Teliya:1996,227).

Olamning ikkita modeli — konseptual va til modellarining o'zaro bog'liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ularni o'zaro chalkashtirib qo'yishdan ogohlantiradi: Til modelini madaniyatning predmeti sohasiga, va aksincha, madaniyat modelini tilning predmeti sohasiga ko'chirib bo'lmaydi” (Stepanov:1977,15-38). Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariya uchun, ham madaniyat nazariyasi uchun qo'llaniladigan alohida, ancha umumiy tushunchalar apparatini ishlab chiqishga da'vat qildi. Mana shu lingvomadaniyatshunoslikning terminologik, tushuncha asosini (fundamentini) tashkil etadi.

Ba'zi olimlarning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik XX asrning oxirgi choragida, tilshunoslikdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Unga birinchi bo'lib XIX asrda V. fon Gumboldt, o'zining “Inson tillarining tuzilish farqlari va uning insoniyatning ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri” nomli kitobida asos solib, til xarakteri va xalq xarakterining bir-biriga bog'liqligini ifodalab bergan. “Turli tillar o'z mohiyatiga, ong va sezgiga ta'siriga ko'ra haqiqatan ham dunyoni turlicha his etishdir” va “tilning o'ziga bo'lgan xosligi millatning mohiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun ham tilni sinchiklab

o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'laydigan hamma narsani o'z ichiga olishi kerak" (Gumboldt:1985,370,377), degan fikr keng tarqaldi. Bunday yondashuvning yangiligi shundan iborat ediki, turli til shakllari ortida olim borliqni tafakkur qilish va anglash uslublaridagi farqlarni ko'rdi va tilda madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari mujassamlanadi, degan xulosa chiqardi.

V.Gumboldtning g'oyalari XIX-XX asrlarda neogumboldtchilik doirasida rivojlandi. Rossiyada XIX asrda A.A. Potebnya Gumboldtning ilmiy merosini "til faoliyat sifatida" (Potebnya:1913,38) degan g'oyasini chuqurlashtirib, tushuntirib berdi. Evropalik neogumboldtchilik vakillari — L. Veysgerber, X. Glints, X. Xoltslar XX asrning o'rtalarida tafakkurning tarkibini va fikrning tuzilishini tilning o'ziga xos tuzilishlariga bog'liqligi haqidagi masalani tadqiq qildilar.

Neogumboldtchilarning tadqiqotlari tilning "mazmuniiy" tomoniga qiziqishni ajratib turadi: "ular turli tillarning semantik sohalarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlarini aniqladilar. L. Veysgerber "borliqni verbalizatsiyalash" tushunchasini kiritib, uni "borliqni til orqali ishg'ol qilish jarayoni va uni bilish ob'yekti" deb ta'rifladi va shuningdek u tilning ma'nodor jihatlarini qayd etishi va tilni "ta'sir etuvchi kuch" sifatida tasavvur qilishi kerak bo'lgan "yangi grammatika" tuzilishi zarurligi haqidagi tezisni ilgari surdi.

AQShda V. fon Gumboldt ta'limotini rivojlantirganlar U.D. Uitni, D.U. Pauell, F.Boas, shuningdek, E. Sepir va B.L. Uorflardir. E. Sepir va B.L. Uorf tilning nisbiylik farazini ilgari surdilar, bunga ko'ra tilga anglash jarayonida ustunlik roli beriladi. Shimoliy amerikalik indeets (xindu)larning tillarini tadqiq qilish natijasida olgan materiallari asosida ular til kategoriyalarining ongga ta'siri mavjud ekanligi haqidagi xulosaga keldilar. Til nisbiyligi faraziga asosan, turli tillarda turlicha kategoriyalarning mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu tillarning sohiblari o'zlarini o'rab turgan olamni turlicha tushunadilar.

Sepir-Uorf farazi hozirgi tilshunoslikdagi juda ko'p oqimlarning asosini tashkil etli: ta'riflarning rang-barangligi uning

“kuchli” va “bo’sh” taxminiy fikrlari haqida gapirish imkonini beradi. Bundan tashqari, XX asr tilshunoslari tomonidan farazni qayta ta’riflashga kirishildi: masalan, G. Brutyaning “lingvistik qo’shimchalilik farazi” va A. Vejbitskayaning “lingvistik universallik farazi”. Shunga qaramay, bu masalaga qiziqish va uni tadqiq qilishga turlicha yondashuv madaniyatning o’ziga xos tarqatuvchisi sifatida tilning an’analarini o’rganishni davom ettirish haqida gapirish imkoniyatini beradi.

XX asrning o’rtasida AQShda “insonni tilda” tadqiq qilish (antropologik yoki antropotsentrik) yo’nalishi paydo bo’ldi: D.Xaymz lingvistik antropologiyani nazariy va metodologik asoslarini – “tilni va nutqni antropologiya kontekstida o’rganishni” ishlab chiqdi. Olim shu qoidadan kelib chiqdiki, bunga ko’ra “tilshunoslikning vazifasi – til nuqtai nazaridan til haqidagi bilimlarni umumlashtirish, antropologiyani vazifasi esa til haqidagi bilimlarni inson nuqtai nazaridan umumlashtirishdir”.

Lingvistik antropologiyani ijtimoiy paradigmadagi o’rni haqidagi masala A.Duranti tomonidan ishlab chiqildi; uning nazariyasiga ko’ra, “lingvistik antropologiya tilshunoslik fanining qolgan boshqa hamma yo’nalishlaridan shu bilan farq qiladiki, u asosiy e’tiborni real borliqning individual taqdimotiga qaratadi” (Duranti, 1992).

Yu.S. Stepanovning qayd qilishicha, “oxirgi o’n yillikning birorta ham tilshunosi, agar u dogmatik strukturalizmning qoidalarini tanqidsiz qabul qilmagan bo’lsa-da, tilda antropotsentrizm masalasini chetlab o’tmagan”. (Stepanov, 2001)

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning paydo bo’lishi – XIX-XX asrlarning falsafiy va lingvistik nazariyalari taraqqiyotining qonuniy natijasidir. So’nggi o’n yil ichida Rossiyada bu fanga bag’ishlangan bir necha ishlar nashr qilindi. V.A.Maslovaning darsligi (Maslova: Lingvokulturologiya. M.: Akademiya 2001) lingvomadaniyatshunoslik sohasida eng ommabop ish hisoblanadi. Unda bu fanning metodologik asosi keltiriladi, Rossiyadagi lingvomadaniy tadqiqotlarning zamonaviy yo’nalishlari bayon qilinadi. Muallif uni “lingvistika va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida vujudga kelgan tilshunoslikning sohasi” deya

ta'riflab, lingvomadaniyatshunoslikning fanlararo xarakterini ta'kidlaydi. Uning ta'rifiga ko'ra, "lingvomadaniyatshunoslik – milliy jonli tilni o'zida mujassamlantirgan va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fan, yoki "madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va antropologiyaga oid tadqiqotlar natijasini o'z ichiga oladigan bilimlarning integrativ sohasidir" (Maslova, 2001). Muallif madaniy ma'lumotning translyatori sifatida chiqadigan tilning o'zaro aloqasini va madaniyatni – xalqning tarixiy xotirasini lingvomadaniyatshunoslikning ob'yekti (butun borliq sohasi) deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot ob'yekti esa til birliklaridir, ular madaniyatda timsoliy, etalonli, jonli-metamorik ma'nolarni kasb etdilar, shuningdek, ular afsonalarda, rivoyatlarda, taomillarda, marosimlarda, folklor va diniy diskurslarda va h.k. o'rnashib qolgan arxetipik va prototipik insonning ongi faoliyatining natijalarini umumlashtiradilar. Muallif tadqiqotning rang-barang – "interpretatsion lingvistikadan tortib to psixolingvistikagacha" bo'lgan uslub va metodlarni qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi (Maslova, 2001).

Lingvomadaniyatshunoslikning nazariy-metodologik asoslari Rossiya tilshunosligida V.V.Vorobevning "Lingvokulturologiya: (teoriya i metodo'") kitobida ancha to'liq bayon qilingan. Tadqiqot gumboldtchilik an'analari asosida bajarilgan: tilda mujassamlangan madaniyatni o'rganishni Sepir-Uorf farazi asosida olib borish taklif etiladi, shuningdek, L.Veysgerber kiritgan terminologiya ham faol qo'llaniladi.

Lingvomadaniyatshunoslik lingvoolkashunoslikning nazariy asosi deb qaraladi; u "madaniyatning va tilning bir-biriga bog'liqligini va o'zaro munosabatlarini faoliyat ko'rsatib turgan sharoitda o'rganuvchi va bu jarayonni birliklarning bo'linmas tuzilishini til va tildan tashqari (madaniy) mazmunni zamonaviy afzalliklar va madaniy qoidalarga (normalar tizimi va umuminsoniy qadriyatlarga) yo'naltirilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiruvchi kompleks umumlashtiruvchi fan deb ta'riflanadi".

Sotsiolingvistikaning lingvodidaktik analogi yoki korrelyati (Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G.) deb ta'riflangan

lingvoo'lkashunoslikni, amaliy aspekt, chet elliklarga tilni o'qitish jarayonida lingvomadaniyatshunoslikning amaliy jihatdan ro'yobga chiqishi deb qarash tavsiya qilinadi.

Muallif "madaniyatning va tilning bir-biriga bog'liqligini va bu o'zaro munosabatning interpretatsiyasini yagona tizimli yaxlitlikda o'rganishni" lingvomadaniyatshunoslikning asosiy ob'yekti deb ataydi, "til kommunikatsiyasi tizimida aks ettiriluvchi hamda uning madaniy qadriyatlariga asoslangan jamiyatning turmushi milliy shakllari – "olamning lisoniy manzarasini" tashkil etuvchi barcha narsalar esa mazkur fanning predmetidir". Lingvomadaniyatshunoslik ob'yektlarini o'rganishni semantika, sintaktika va pragmatikani birgalikda o'z ichiga oluvchi tizimli metod yordamida o'rganish tavsiya qilinadi, bu metod ular haqida "til va tildan tashqari xususiy mazmun dialektik bog'langan yaxlit tasavvur" olish imkonini beradi.

V.V. Krasnix ham shunga o'xshash fikrni bildiradi. "Etnopsixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik" kitobida u lingvomadaniyatshunoslikni "bevosita milliy til manzarasi, tilni bilish, mental-lingval kompleks xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan madaniyatning tildagi va diskursdagi ko'rinishi, aksi va qayd qilinishini o'rganuvchi fan", deya ta'riflaydi. (Krasno'x: 2002)

Lingvomadaniyatshunoslik o'ziga xoslikni aniqlash uchun kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashuvni qo'llash tavsiya qilinadi, chunki bu yondashuv uni ham umumlingvistik aspekt, ham milliy aniqlangan komponent sifatida tahlil qilish imkonini beradi. E.A. Luchinina V.V. Krasnixning tadqiqotlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keladiki, "muallif ikkala tadqiq qilinayotgan fanlar o'rtasida aniq chegara qo'ymaydi: ulardagi muammolarning majmui umumiyligi ta'kidlanadi, uning ham, boshqasining ham paydo bo'lishiga nazariy asos deb Sepir-Uorfning farazi hisoblanadi, tadqiqot metodlarida farqlar ochib berilmaydi"(Luchinina, 1997).

Lingvomadaniyatshunoslik masalalari shuningdek Volgograd maktabi olimlari, xususan, V.I. Karasik va E.I. Sheygallar tomonidan ishlab chiqildi. V.I. Karasik lingvomadaniyatshunoslikni "ilmiy bilimning til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va o'zaro

ta'siri kompleks sohasi" deya qaraydi va uning qiyoslanish xarakteriga asosiy urg'u beradi. Realialarni va "tag ma'nolar"ni (fonovoe znanie), ya'ni mazkur xalqning madaniyatini bir xilda tushunish uchun qo'shimcha ma'lumot talab qiladigan konkret va abstrakt nomlarning mazmuniy xarakteristikalarini" o'rganish birliklari sifatida tavsiya qiladi.

E.I. Sheygal va V.A. Buryakovskayaning ishlarida lingvomadaniyatshunoslik "olam konseptual lisoniy manzarasining alohida ob'yektlarini va ularning in'ikos ob'yekti, shularning biri etnos hisoblanadi, nuqtai nazaridan ijtimoiy ong va til orqali anglash" ni o'rganadigan fan sifatida ta'riflanadi. Mualliflar tomonidan turg'un birikmalar tarkibiga kiruvchi etnonimlarning lingvomadaniy potentsiali, shuningdek etnonimlarning maqola matnlarida, hikoyalarda va latifalarda namoyon bo'lishining o'ziga xosligi o'rganiladi.

Tilning madaniyatga oid tarkibini tadqiq qilish XIX- XX asrlar tilshunosligi taraqqiyotining qonuniy natijasidir. Ko'p olimlarning lingvomadaniyatshunoslikka qiziqishi uning istiqbolli ekanligidan dalolat berib turibdi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotining hammaga ma'qul bo'lgan ta'rifi tilni madaniyat bilan ajralmas bog'lanishda o'rganishdadir.

V.N. Maslova lingvomadaniyatshunoslikning vazifasini "til birligining madaniy ahamiyatini (ya'ni "madaniy bilimlarni") frazeologizmlar yoki boshqa til birliklarining prototip vaziyatdagi bog'lanishi asosida, tilshunoslar tomonidan til sohibiga ma'lum yoki tavsiya qilinishi mumkin bo'lgan madaniyatning o'sha "kodlari" bilan belgili o'qishni tushuntirishda" deb hisoblaydi.

Lingvomadaniyatshunoslikning eng potensial vazifalaridan biri bo'lgan bu ta'rifga qo'shilgan holda, G.G. Slishkin yozadiki, "lingvomadaniy tahlilni nafaqat "til birligidan madaniyat birligi tomon", balki "madaniyat birligidan til birliklari tomon" o'tkazish imkoniyati va zarurligiga e'tiborni qaratish darkordek tuyiladi.

Ikkinchi paradigma chegarasida bajarilgan lingvomadaniy tadqiqotlarning vazifasini G.G. Slishkin "birinchidan, diskursda u yoki bu madaniy birlikni ifodalaydigan adekvat til vositalarini

va ikkinchidan, turli kommunikativ vaziyatlarda mazkur madaniy birlikka apellatsiyaning asosiy pragmatik vazifalarini o'rnatishda" ko'radi (Slishkin, 2004).

## **2.2.Lingvomadaniy birliklar**

Til va madaniyat kabi birliklarni ko'rib chiqishda, "avloddan avlodga (tarixiy aspekt), bir ijtimoiy kollektivdan boshqasiga, kollektivdan individga yoki buning aksi (ijtimoiy aspekt), individdan individga (individual-psixologik aspekt), bir millatdan ikkinchisiga (millatlararo aspekt) va boshqalar". lingvomadaniy ma'lumotlarni to'plash va uzatish jarayonida kompleks birliklar tushunchasi kiritiladi, ular mazmun jihatdan, ham til mazmuniga, ham madaniy mazmunga o'zaro bog'liq bo'ladilar.

O'z-o'zidan ma'lumki, keltirilgan terminlar mazmun jihatidan (garchi bir-biri bilan kesishsa ham) to'la mos kelmaydilar, chunki ular tegishli fenomenlarning mental, til, madaniy yoki tushunchaga oid sohalariga, bu sohalar orasidagi munosabatlarga va tegishli birlashmalarning chegaralariga nisbatan turli qarashlarni ifoda qiladilar. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu terminlarning har biri o'zining ilmiy paradigmasida qo'llaniladi va bu paradigmaga xos bo'lgan ko'rib chiqilayotgan birliklarning o'zaro bog'liqligiga, bu birliklarning matn bilan munosabatlariga hamda ularning matndagi va diskursdagi vazifalariga, muallifning g'ayratiga va tegishli birlikning adresatga ta'siriga xos bo'lgan qarashlar tizimini aks ettiradi.

Lingvomadaniy birliklar tadqiqoti tahlilini o'tkazish bilan E.A. Naximova: "lingvomadaniy birliklar tadqiqotida u yoki bu yo'nalishga mansubligiga qarab bunday birliklarni tadqiq qilishda turlicha yo'nalishlar – grammatik, struktur-semantik, stilistik, ritorik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, kognitiv-diskursiv, onomastik, lingvomadaniy va h.k. yo'nalishlardan foydalanish mumkin", degan fikrni bildiradi (Naximova, 2001). Lingvomadaniy birliklar tadqiqotida nafaqat yo'nalishlarni, balki ularga yondashuvlarni ham hisobga olish muhimdir.

Tilni va madaniyatni o'rganishda lingvoo'lkashunoslik jihatdan yondashuv doirasida kulturema tushunchasi ishlab chiqilgan. V.G.Gak madaniyatni ma'lum belgilar, ya'ni kulturemalar majmui deb hisoblaydi "Tilga oid ifodaga ega bo'lgan kulturemalar ba'zi bir realiyalarni — predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe'l-atvor faktini va h.k.larni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma'lum elementi bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar (Gak, 1998).

Etnopsixolingvistika nuqtai nazaridan Yu.A.Sorokin kulturema mentalemalarning aylanishi global kommunikativ tarmoq (etnos) ichida sodir bo'ladi deb hisoblaydi. Mazkur birliklar "gomogenlik, barqarorlik va teleologik, ya'ni tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan maqsadga muvofiq qilib yaratilgan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot bilan xarakterlanib, lingvomadaniy umumiylikning (bir xillik) o'z noyobligi va yaxlitligini saqlab qolish imkonini beradigan semiotik-madaniy himoya usullari haqida xabar beradi"(Sorokin, 1994).

Logoepistema va lingvokulturema tushunchalari tadqiqot ob'yekti bo'lgan ilmiy ishlar keyingi paytda juda muhim va samarali bo'lib bormoqda. Logoepistema tushunchasini ilmiy muomalaga E.M.Verehagin va V.G.Kostomarovlar o'zlarining lingvoo'lkashunoslik tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida kiritishgan. Logoepistema tushunchasini "til birligida saqlangan bilim, bir so'z bilan aytganda — o'zining ichki yashirin shakliga, individual tarixiga, o'z munosabatlariga va madaniyatiga ega bilim" deb ta'riflaganlar. "Lingvokulturema" termini esa V.V.Vorobev tomonidan taklif etilgan. Bu terminning mazmuniga olim quyidagi fikrni joylagan: "Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik (tushunchaga oid yoki predmetga oid) mazmunlarning dialektik birligidan iborat"(Vorobev, 1997).

Logoepistemaga va lingvokulturemaga ancha mufassal xarakteristika berish mantiqqa mos ko'rinadi.



### 2.3.Lingvokulturema va logoepistoema

Inson faoliyatining o'ziga xos barcha tomonlarini o'z ichiga oladigan madaniyat fenomenining tilda ifodalanishi lingvomadaniyatshunoslik bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda etakchi rol o'ynaydi. Hozirgi kunda til va madaniyat uyg'unligini sinxron bog'lanishda o'rganishga bag'ishlangan bu fanning jadal shakllanishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. Bir tomondan, lingvomadaniyatshunoslik tilda mavjud insonning madaniy omiliga, ikkinchi tomondan, insondagi lisoniy omilga yo'naltirilgan.

Darhaqiqat, "har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir" [Safarov 2006: 65]. Demak, lingvomadaniyatshunoslik inson haqidagi fanning bir qismidir, uning o'ziga jalb qiluvchi markazi madaniyat fenomenidir.

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo'lib, bu yaxlitlik o'z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni qamrab oladi. Dialektik aloqa ob'yektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan, ularning mosligini, aynan o'xshashligini taqozo etadi.

Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning "yuzaki", ya'ni tilga oid o'z ma'nosi haqida, balki uning "tugal" mazmuni (ma'nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Tadqiqotchi V.V.Vorobev, lingvokulturemaning tuzilishi va tarkibini o'rganib, o'z e'tiborini til birliklarini "madaniylashtirish" jarayonida til o'rganuvchilarni ma'nodan, "aniqlashdan" bilim tomon olib borishga va belgi-predmetni u yoki bu millatga xos bo'lgan madaniy assotsiatsiyalar tarmog'iga kiritishga qaratadi. Uning fikricha, "tarkibida yashirin mavjud bo'lgan "teran

mazmun” lingvokulturemaning madaniy-tushunchaga oid ma’noviy jihati ochiladi” (Vorobev, 1997). Har qanday kommunikatsiyaning oxirgi natijasi, xususan, tilni tushunish emas, balki tildan tashqaridagi ma’lumotni (shu jumladan, uning doirasida munosabat amalga oshiriladigan madaniyatni) o’zlashtirishdir.

Lingvokulturemalar o’z ifodasida rang-barangdir – ular so’z bilan, so’z birikmasi bilan, matn abzasi bilan, she’r bilan va hatto bir necha uzunlikdagi matn bilan berilishi mumkin.

Bu birlik o’z mazmuniga ko’ra so’zga qaraganda ancha “terandir”. So’z referent bilan o’zaro bog’lanishda bo’ladi, unga “havola qilinadi”, lingvokulturema uning mazmunini tushuncha (predmetlar sinfi) sifatida ochib beradi. Birinchisi realemalar bilan cheklanadi, ikkinchisi – biror belgi bilan o’zaro bog’lanishda bo’lgan predmetlar sinfi ichidagi realiyalarning o’ziga xos xususiyatini va sistematzatsiyasini (tartibga solinishishni) aks etiradi.

“Lingvokulturema ham o’z til tasavvurini (“fikir shaklini”), ham u bilan uzviy bog’langan “tildan tashqari, madaniy muhitni” (vaziyatni, realiyani) hamda chegaralari beqaror va barqaror assotsiatsiyalar tarmog’ini o’z ichiga oladi, o’zida to’playdi. Shu tufayli ham so’z-belgi alohida madaniy kommunikatsiyaning tilini biladigan odamda ma’noni nafaqat ishora tarzida (A.A. Potebnya), balki “madaniy oreolning” butun majmuini uyg’otadi.

Til birligining “madaniy oreolini” bilish so’zlovchining lingvomadaniy kompetensiyasini tashkil qiladi, uni bilmaslik esa tinglovchi (retsipient)ni hali madaniy jarayonni to’liq o’zlashtirmagan shaxs sifatida faqat tilning o’zini egallagan kishi darajasida qoldiradi. So’zni tushunish darajasining lingvomadaniy kompetensiyaga bog’liqligini aniq misollar asosida tushuntirib, V.V. Vorobev ta’kidlaydiki, til birligining madaniy sohaga yo’naltirish jarayonida bir qator paradigmalar: giponimik munosabatlar, predmet va tushunchaga oid qatorlar, sintagmalar ochiladi. Adabiy manbalarni bilish esa lingvokulturemalarning estetik qo’llanish usullarini aniqlashga ko’maklashadi (Vorobev, 1997)

V.V. Vorobev lingvokulturema tushunchasini tadqiq qilib, uning ierarxik tizimi birliklari, ya’ni lingvokulturemalarni

tashkil etuvchi lingvomadaniy maydonni tavsif ob'yektining asosiy birligi sifatida oladi. Bunday maydonlar olamning etnik manzarasini barpo etadi, ularni qiyoslash esa tillardagi va madaniyatlardagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlarni aniqlaydi. (Vorobev, 1997)

Shunday qilib, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so'zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid-predmetga oid) ma'nosi sifatida albatta ishtirok etadi.

Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilarning o'xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko'rib chiqish imkonini beradi. Lingvistik adabiyotda til va madaniyatning quyidagi umumiy belgilarining mavjudligi e'tirof etiladi:

1. Madaniyat va til - bu insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir.

2. Til va madaniyat o'zaro muloqotda (dialogda) mavjuddir, chunki nutq va uni qabul qiluvchi har doim madaniyat sub'yektidir.

3. Ikkala fenomen ham individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga ega, madaniyat va tilning sub'yekti har doim individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat hisoblanadi.

4. Til va madaniyat uchun umumiy bo'lgan jihat bu normativlikdir.

5. Tarixiylik esa til va madaniyatning eng mohiyatli xususiyatlaridan biridir.

6. Madaniyat xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir, chunki til o'zining kumulyativ (to'plovchi) vazifasiga ko'ra kollektiv xotirani saqlaydi va boyitadi [Teliya 1996: 217].

Til va madaniyat o'rtasida umumiylik, o'xshashlik qanchalik darajada bo'lmasin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham mavjud. Til va madaniyatning o'ziga xos xususiyati o'rtasida muhim farqlar mavjudligi quyidagicha izohlanadi:

1. Kommunikatsiya vositasi bo'lgan tilda ommaviy adresatga yo'l-yo'riqlar ustun turadi, madaniyatda esa saralanganlik qadrlanadi.

2. Madaniyat belgi tizimi bo'lgani holda, u tildan farqli ravishda o'zicha tashkil topa olmaydi.

3. Til va madaniyat turlicha semiotik tizimlardir.

Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni madaniyat tilga izomorf emas, gomomorfdir, ya'ni tarkiban o'xshashdir, degan fikrga yo'naltiradi [Maslova 1997:39].

Madaniy bilimlar esa shu tilda so'zlovchining madaniy-lisoniy kompetentsiyasining (bilimdonligining) bir qismidir. Madaniy kompetentsiya til kompetentsiyasi bilan har doim ham mos kelavermaydi, ammo til kompetentsiyasining madaniy kompetentsiyaga o'zgarishi madaniy kod kategoriyalarida til belgilari talqiniga asoslangan. Aynan mana shu talqin madaniy -lisoniy kompetentsiyadir.

Olamning ikkita modeli - konseptual va til modellarining o'zaro bog'liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ularni o'zaro almashtirib qo'ymaslikni ta'kidlaydi: "Til modelini madaniyat predmeti sohasiga va. aksincha, madaniyat modelini til predmeti sohasiga ko'chirib bo'lmaydi" [Stepanov 1977:15-38].

Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariyaga, ham madaniyat nazariyasiga doir alohida, ancha umumiy tushunchalar apparatini ishlab chiqishga da'vat qildi. Bu esa lingvomadaniyatshunoslikning terminologik tushunchalari asosini tashkil etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik XX asrning oxirgi choragida, tilshunoslikdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Unga birinchi bo'lib V. fon Gumboldt asos solib, til xarakteri va xalq xarakterini bir-biriga bog'liqligini ifodalab bergan. Uning fikricha, "Turli tillar o'z mohiyatiga, ong va sezgi ta'siriga ko'ra ham dunyoni turlicha his etishdir" va "tilning o'ziga xosligi millatning mohiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham tilni sinchiklab o'rganish uchun tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'laydigan hamma narsani o'z ichiga olish kerak", degan fikrni bildiradi [Gumboldt 1985:370].

Bunday yondashuvning yanqiligi shundan iborat ediki, turli til shakllari ortida olam borliqni tafakkur qilish va anglash uslublaridagi faralarni ko'rdi va tilda madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari mujassamlanadi, degan xulosa chiqardi. V.Gumboldtning til faoliyat sifatida" xususidagi g'oyasini A.A. Potebnya yanada chuqurlashtirib, tushuntirib berdi [Potebnya 1913. 38].

Yevropalik neogumboldtchilik vakillari – L Vaysgerber , X. Glints va X. Xoltslar tafakkurning tarkibini va fikrning tuzilishini tilning o'ziga xos tuzilishlariga bog'liqligi haqidagi masalani tadqiq qildilar. Ular tilning "mazmunii" tomoniga asosiy e'tiborni qaratgan holda, turli tillarning semantik jihatlarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqladilar. L. Vaysgerber "borliqni verbalizatsiyalash" tushunchasini kiritib, uni borliqni til orqali ishğ'ol qilish jarayoni va uni bilish ob'yekti" deb ta'rifladi va shuningdek, u tilning semantik jihatlarini "ta'sir etuvchi kuch" sifatida tasavvur qilishi kerak bo'lgan "yangi grammatika" tuzilishi zarurligi xaqidagi fikrni ilgari surdi [Guxman 1961:129].

AQShda V. fon Gumboldt ta'limotini U D. Uitni, D U. Pauell, F.Boas, shuningdek, E Sepir va B.L. Uorflar rivojlantirganlar.

E. Sepir va B.L. Uorf Shimoliy Amerikalik hindularning tillarini tadqiq qilish natijasida olgan material- lari asosida til kategoriyalarining ongga ta'siri haqida fikr yuritdilar. Ular tilning nisbiyligi faraziga asosanib, turli tillarda turlicha kategoriyalarning mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu tillarning sohiblari o'zlarini o'rab turgan olamni turlicha tushunadilar, degan xulosaga keldilar.

XX asrning o'rtasida AQShda "insonni tilda" tadqiq qilish yo'nalishi paydo bo'ldi, bu yo'nalish vakillaridan biri D.Xayms lingvistik ashropologiyaning nazariy va metodologik asoslarini - "tilni va nutqni antropologiya kontekstida o'rganishi" ishlab chiqdi. Olimning fikricha, "tilshunoslikning vazifasi - til nuqtai nazaridan til haqidagi bilimlarni umumlashtirish, antropologiyaning vazifasi esa til haqidagi bilimlarni inson nuqtai nazaridan umumlashtirishdir" [Hymes 1963: 277].

Lingvistik antropologiyaning ijtimoiy paradigmadagi o'rni haqidagi masala bu yo'nalishiing yana bir vakili A.Duranti tomonidan tadqiq qilindi, uning nazariyasiga ko'ra, "lingvistik antropologiya qolgan boshqa fanlardan shu bilan farq qiladiki. u asosiy e'tiborni real borliqning individual taqdimotiga qaratadi "[Duranti 1992: 3].

Tilshunoslar til va madaniyatning o'zaro aloqalari masalalariga ko'plab murojaat qilishmoqda. Jumladan, Yu.S. Stepanovning qayd qilishicha, "oxirgi o'n yilliklarda birorta ham tilshunos, agar u dogmatik strukturalizmning qoidalarini tanqidsiz qabul qilmagan bo'lsa, tilda antropotsentrizm masalasini chetlab o'tmagan" (Stepanov 2007:141).

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning paydo bo'lishi XX-XXI asrlarning falsafiy va lingvistik nazariyalari taraqqiyotining qonuniy natijasidir. So'nggi yigirma-o'ttiz yilda bu fanga bag'ishlangan bir nechta ishlar (V.A. Maslova, A. T. Xrolenko, V. V. Vorobev, N. F. Aliferenko) nashr qilindi.

V.A. Maslovaning darsligi bu fan bo'yicha eng ommabop nashr hisoblanadi. Unda lingvomadaniyatshunoslik fanining metodologik asosi keltiriladi va Rossiyadagi lingvomadaniy tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari bayon qilinadi. Muallif "lingvistika va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida vujudga kelgan tilshunoslikning sohasi" degan fikrni bildirib, lingvomadaniyatshunoslikning fanlararo xarakterini ta'kidlaydi. Uning ta'rifiga ko'ra "lingvomadaniyatshunoslik - milliy jonli ti'ni o'zida mujassamlantirgan va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fan, yoki madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va antropologiyaga oid tadqiqotlar natijasini o'z ichiga oladigan bilimlarning integrativ sohasidir" (Maslova 2011:9) .

Muallif madaniy ma'lumotning uzatuvchisi (translyatori) sifatida tilning o'zaro aloqasini va madaniyatini, ya'ni xalqning tarixiy xotirasini lingvomadaniyatshunoslikning ob'yekti, uning tadqiqot ob'yekti esa til birliklaridir, ular madaniyatda timsoliy, etalonli, jonli-metaforik ma'nolarni kasb etadilar va ular afsonalarda, rivoyatlarda, taomillarda, marosimlarda, folklor va diniy diskurslarda o'rtnashib qolgan arxetipik va prototipik insonning ongi faoliyatining natijalarini umumlashtiradilar, degan fikrga keladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning nazariy-metodologik asoslari tilshunoslikda V.V.Vorobevning "Lingvomadaniyatshunoslik: nazariya va metodlar" kitobida ancha to'liq bayon qilingan. Bu

kitobda lingvomadaniyatshunoslik lingvomamlakatshunoslikning nazariy asosi deb qaraladi; u “madaniyatning va tilning bir-biriga bog‘likligini va o‘zaro munosabatlarini ishlab turgan sharoitda o‘rganuvchi va bu jarayonni birliklarning bo‘linmas tuzilishini til va tildan tashqari (madaniy) mazmunni zamonaviy afzalliklar va madaniy qoidalarga (normalar tizimi va umuminsoniy qadriyatlarga) yo‘naltirilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiruvchi kompleks umumlashtiruvchi fan deb ta’riflanadi” (Vorobev, 1997).

E.M.Verehagin va V.G.Kostomarovlar sotsiolingvistikaning lingvodidaktik analogi yoki korrelyativ deb ta’riflagan lingvomamlakatshunoslikni (Vereshagin, Kostomarov, 1999), V.V.Vorobev amaliy aspekt, chet elliklarga tilni o‘qitish jarayonida lingvomadaniyatshunoslikning amaliy jihatdan ro‘yobga chiqishi deb qarashni tavsiya qiladi.

V.V. Krasnix o‘zining “Etnopsixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik” kitobida lingvomadaniyatshunoslikni “bevosita milliy til manzarasi, tilni bilish mental-lingval kompleks xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyatning tildagi va diskursdagi ko‘rinishi, aksi va qayd qilinishini o‘rganuvchi fan” deya ta’riflaydi [Krasno‘x 2002: 12]. Demak, lingvomadaniyatshunoslik o‘ziga xoslikni aniqlash uchun kommunikatsiyaga lingvokognitiv yondashuvni qo‘llash tavsiya qilinadi. Chunki bu yondashuv uni ham umumlingvistik aspekt, ham milliy aniqlangan komponent sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik masalalari, shuningdek, Volgograd maktabi olimlari, xususan, V.I. Karasik va E. I. Sheygallar tomonidan ham tadqiq qilindi. V. I. Karasik lingvomadaniyatshunoslikni “ilmiy bilimning til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri kompleks sohasi” deb qaraydi va uning qiyoslanish xarakteriga asosiy urg‘u beradi. U realiyalarni va “qo‘shimcha ma’lumotlar”ni (fonovo‘e znaniya) mazkur xalqning madaniyatini bir xilda tushunish uchun qo‘shimcha ma’lumot talab qiladigan konkret va abstrakt nomlarning mazmuniy jihatlarini” o‘rganish birliklari sifatida tavsiya qiladi [Karasik 2002:108].

E.I. Sheygal va V.A. Buryakovskayalarning ishlarida lingvomadaniyatshunoslik “*olamning konseptual lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan ijtimoiy ong va til orqali anglashni o‘rganadigan fan sifatida ta’riflanadi*. Mualliflar tomonidan turg‘un birikmalar tarkibiga kiruvchi etnonimlarning lingvomadaniy potentsiali, shuningdek, etnonimlarning maqola matnlarida, hikoyalarda va latifalarda qo‘llanishining o‘ziga xosligi o‘rganiladi [Sheygal, Buryakovskaya 2002: 9].

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik masalalariga bag‘ishlangan asosiy ishlarni tahlil qilib, shu haqida gapirish mumkinki, tilning madaniyatga oid tarkibini tadqiq qilish XX-XXI asr tilshunosligi taraqqiyotining qonuniy natijasidir. Ko‘p olimlarning lingvomadaniyatshunoslikka qiziqishi uning istiqbolli ekanligidan dalolat berib turibdi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotining hammaga ma’qul bo‘lgan ta’rifi tilni madaniyat bilan ajralmas bog‘lanishda o‘rganishdir. Zero, til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘likdir.

Til va madaniyat tushunchalariga oid birliklarni ko‘rib chiqishda, “*avloddan avlodga (tarixiy aspekt), bir ijtimoiy kollektivdan boshqasiga, kollektivdan individga yoki buning aksi (ijtimoiy aspekt), individdan individga (individual psixologik aspekt), bir millatdan ikkinchisiga (millatlararo aspekt) va boshqalar*” [Vorobev 2007:45] lingvomadaniy ma’lumotlarni to‘plash va uzatish jarayonida kompleks birliklar tushunchasiga kiritiladi, ular mazmun jihatidan ham lisoniy mazmunga, ham madaniy mazmunga o‘zaro bog‘lik bo‘ladilar.

Bu hodisani belgilash uchun turlicha terminlar tavsiya qilinganligini ta’kidlaymiz: konsept (Yu. Stepanov, V. Teliya, D. Lixachev, V. Neroznak, N.Arutyunova); lingvokulturema (V. Vorobev), milliy sotsiomadaniy stereotip (Yu. Proxorov), kulturoznak (madaniy belgi) (A.Onkovich), mifologema (V.Bazo‘lev), logoepistema (B.Verehagin – V.Kostomarov; V.Kostomarov va N.Burvikova), noema - yangi so‘z, yangi ibora yoki yangi birlik – E. Gusserl) va boshqalar. Terminlarning ko‘pligi, ular o‘rtasidagi o‘ziga xos “musobaqadoshlik”



(bellashuv) lingvomadaniyatshunoslikning shakllanish davrini boshidan kechirayotganining belgisidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, keltirilgan terminlar mazmun jihatidan (garchi kesishsa ham) to'la mos kelmaydilar, chunki ular tegishli fenomenlarning mentalikka, lisoniy-madaniy tushunchaga oid sohalariga, bu sohalar orasidagi munosabatlarga nisbatan turli qarashlarni ifoda qiladilar. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu terminlarning har biri o'zining ilmiy paradigmasida qo'llaniladi va bu paradigmaga xos bo'lgan birliklarning o'zaro bog'liqligiga, bu birliklarning matn bilan munosabatlariga hamda ularning matndagi va diskursdagi vazifalariga, tegishli birlikning adresat ta'siriga xos bo'lgan qarashlar tizimini aks ettiradi.

Til va madaniyatning lisoniy xususiyatlarini lingvomam-lakatshunoslik yondashuv doirasida o'rganish jarayonida kulturema tushunchasi tavsiya qilingan. Jumladan. V. G. Gak madaniyatni ma'lum belgilar kulturemalar majmui deb hisoblaydi va u shunday ta'kidlaydi: "Tilga oid ifodaga ega bo'lgan kulturemalar ba'zi bir realiyalarni-predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe'l-atvor faktini va hokazolarni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma'lum elementi bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar" [Gak 1998:49].

Etnopsixolingvistika nuqtai nazaridan Yu.A. Sorokin kulturema mentalemalarning aylanishi global kommunikativ tarmoq (etnos) ichida sodir bo'ladi deb hisoblaydi. Mazkur birliklar "gomogenlik, barqarorlik va teologik (teologiya - tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan maqsadga muvofiq qilib yaratilgan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot) jihatlar bilan xarakterlanib, lingvomadaniy umumiylikning (bir xillik) o'z noyoblighi va yaxlitligini saqlab qolish imkonini beradigan semiotik- madaniy himoya usullari haqida xabar beradi", degan fikrni bildiradi Sorokin, 1994].

Logoepistema tushunchasini E.M.Verehagin va V.G.Kostomarovlar kiritgan va uni til birligida saqlangan bilim, o'zining ichki yashirin shakliga, individual tarixiga, o'z munosabatlariga va madaniyatiga ega bilim", deb ta'riflaganlar (Verehagin, Kostomarov :1999:7).

Lingvokulturema termini oldin qayd qilganimizdek, V. V. Vorobev tomonidan taklif etilgan. Bu terminning mazmuniga olim quyidagi fikrni joylagan: “Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik tushunchaga oid yoki predmetga oid) mazmunlarning dialektik birligidan iborat” [Vorobev 1997:35].

Bizning nazarimizda, logoepistema va lingvokulturema tushunchalariga ancha mufassal xarakteristika berish mantiqqa mos ko‘rinadi.

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaralib, unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo‘lib, bu yaxlitlik o‘z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni oladi. Dialektik aloqa ob‘yektini anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligi, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o‘xshashligini taqozo etadi.

Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida iafaqat uning “yuzaki”, ya’ni tilga oid ma’nosi haqida, balki uning “tugal” mazmuni (ma’nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi lingvokulturema ekanligini e’tirof etgan holda, O‘.Q. Yusupov “lingvokulturema o‘z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning bir bo‘lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir”, degan fikr bildiradi. Lingvokulturemalar o‘z ifodasida rang-barangdir - ular so‘z, so‘z birikmasi, matn abzatsi bilan, she’r bilan va hatto katta hajmdagi matn bilan berilishi mumkin. [Yusupov 2011: 91].

V. V. Vorobev lingvokulturema birliklarining manbai quyidagicha bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi:

1) xalq milliy madaniyatining eng ahamiyatli qismi bo‘lgan, sivilizatsiyani va madaniyatni bilishning muhim manbai, millat ijtimoiy ongining in’ikosi bo‘lgan xalq poetik ijodi,

2) tarix va ijtimoiy fikr yodgorliklari, shuningdek, maxsus tarixiy, falsafiy, adabiyotshunoslik, lingvistik, estetik va boshqa tadqiqotlar;

3) millat va shaxsning eng muhim baholari saqlanib qolgan atoqli kishilar: fan, madaniyat va adabiyot namoyandalarining fikrlari;

4) badiiy asarlar va publitsistika;

5) atoqli shaxslar milliy shaxsning modeli sifatida;

6) barcha narsalarning o'ziga xos xususiyatini yaqqol ajratib ko'rsatuvchi bir millat va uning madaniyatining qiyosiy foni sifatida chet elliklarning fikrlari va mulohazalari" [Vorobev 1997: 38].

V.V. Vorobev lingvokulturema tushunchasini tadqiq qilib, uning ierarxik tizimi birliklari - lingvokulturemalarni tashkil etuvchi lingvomadaniy maydonni tavsif obektining asosiy birligi sifatida oladi. Fikrimizcha, bunday maydonlar olamning etnik manzarasini barpo etadi, ularni qiyoslash esa tillardagi va madaniyatlardagi o'xshashlik va farq qiluvchi jixatlarni aniqlaydi.

Lingvomadaniy maydon lingvokulturemalarning tuzilishi sifatida belgilarning, ma'nolarning va madaniyat predmetlari haqidagi tushunchalarning o'zaro munosabatda bo'lgan birligi bilan shakllanadi. Invariant ma'noga ega bo'lgan lingvokulturemalarning ierarxik tuzilishi ma'lum madaniy sohani boshqalardan ajratib beruvchi tegishli madaniy tushunchalarni ifoda etadi. V.V. Vorobevning fikricha maydon: o'zak (invariant lingvomadaniy mazmunni uzatuvchi), markaz (asosiy tushunchalar, realemalar) va periferiya (ikkinchi semantik funktsiyadagi so'z-tushunchalar, bir-biriga bog'liq maydonlar) ajralib turadigan ma'lum mazmun tarkibini beradi [Vorobev 1997: 44-45].

Shunday qilib, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so'zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid- predmetga oid) ma'nosi sifatida albatta ishtirok etadi.

Logoepistema termini grekcha "logos" (til, nutq, ta'limot. ma'no) va "epistema" (birikma, bilimga, tushunishga olib keluvchi g'oyalar tizimi) leksemalaridan tuzilgan.

Logoepistema deganda turli darajadagi lingvomamlakat-shunoslikka doir birliklar tushunilib, ularning mazmuni so'zda, so'z birikmasida, frazeologizmida yoki qanotli iboralarda ifoda etilishi mumkin Ular matnda :o'tmishning sadosi" sifatida talqin qilinadi.

V.G. Kostomarov va N.D. Burvikova tomonidan ajratilgan logoepistemalar belgilari biz uchun muhim hisoblanadi. Bu belgilar logoepistemani birinchi navbatda lingvistik birlik sifatida ta'riflaydi:

1) soʻz ifodasiga ega, buning ustiga, faqat soʻzda ifodalanib qolmay, ham soʻz birikmasida. ham gapda, ham gapdan ortiq birlikda ifodalangan boʻlishi mumkin;

2) aniq tilga aloqadorligi bilan ajralib turadi;

3) uni keltirib chiqargan matnga yoki vaziyatga koʻrsatma boʻlishi mumkin;

4) kommunikatsiya jarayonida yangidan yaratilmaydi, ammo yangidan boshlanadi;

5) kommunikatsiya jarayonida anglab olish saqlash doirasida shaklan oʻzgarishi mumkin; bu holda u matnni tashkil etish kuchiga ega boʻladi.

Logoepistemani madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ajratib turuvchi belgilar ham ancha muhimdir:

1) u madaniy xarakterga ega boʻlgan baʼzi bir bilim mazmundorligi bilan ajralib turadi;

2) u semiotik va timsoliy xususiyatga ega, chunki u jamiyat tomonidan ishlatiladigan belgilar va timsollar elementlari tizimidir;

3) uning germeneytik xususiyati mavjud, chunki uni tushunish uchun boshqa matnlar bilan madaniyatning artefaktlari oʻzaro bogʻlanish talab etadi;

4) uning didaktik ahamiyati shundaki, uni “madaniyatning ichiga kirib ketish” maʼnosidagi taʼlim olish jarayonida egallash mumkin”. [Kostomarov., Burvikova 2001:39].

Yukorida tahlil qilingan juda koʻp fikrlardan kelib chiqqan holda biz lingvokulturema va logoepistema tushunchalarini quyidagicha taʼriflaymiz:

Lingvokulturema - bu muayyan bir xalqning, millatning moddiy va maʼnaviy madaniyatini, butun borligini til va nutq birliklarida ifodalaydigan kompleks lisoniy-maʼdaniy birlikdir.

Logoepistema — bu milliy-madaniy tarix hamda milliy madaniyat bilan uzviy aloqador boʻlgan muayyan bilim, tushunchaga ishora qiluvchi gʻoyalar tizimini ifodalaydigan til birligidir. Har bir logoepistemada yuqorida qayd qilingan lingvistik madaniyatga oid belgilarning birikuvi kuzatiladi.

Demak, til madaniyat koʻzgusi sifatida xalqlarning oʻzligini, mentalitetini, milliy xarakterini, urf-odatlarini qadriyatlarini

ifodalovchi vosita hisoblanib, barcha milliy qadriyatlarni lingvokulturema va logoepistema tushunchalari orqali yuzaga chiqaradi va bu har ikkala tushuncha-termin ham o'ziga tegishli ilmiy paradigmada qo'llanadi.

Logoepistema "o'tmish sadosini" aks ettiruvchi tushunchadir. Ijtimoiy-madaniy xotira til sohiblari ongida aks etgan borliqning xususiyatlarini, ular tomonidan madaniyatning ma'naviy qadriyatlarini anglash natijalarini so'zda mustahkamlaydi. Tilni va madaniyatni o'rganishga lingvoo'lkashunoslik jihatdan yondashuv doirasida shunday til birliklari ajratib olinadiki, bu birliklar ijtimoiy-madaniy xotira tomonidan mustahkamlangan xususiyatni ifoda etadilar va o'z madaniyati hamda xalqaro madaniyatning ma'naviy qadriyatlarini anglash natijasidagi borliqni til sohiblari ongida aks ettiradilar. Bu birliklar logoepistemalar deb nomlanadi (V.G.Kostomarov va N.D. Burvikova termini). Bu termin grekcha "logos" (ilohiy-falsafiy ma'noda — til, nutq, ta'limot, ma'no) va "epistema" (birikma, bilimga, tushunishga olib keluvchi g'oyalar tizimi) leksemalaridan tuzilgan. Gap o'zining ochiq "ichki shakli", individual madaniy tarixi hamda milliy madaniyat bilan shaxsiy aloqalari bo'lgan qandaydir bir til birligi olib keladigan bilim haqida bormoqda.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'zbek tilshunosligida hanuzgacha "logoepistema" terminiga yoki tushunchasiga atroflicha munosabat bildirilgani yo'q. Afsuski, juda ko'p tilshunoslarimiz hali bu tushunchaning lug'aviy ma'nosi (definitsiyasi)ni ham turlicha talqin qiladilar, shuningdek, bu muammo yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham kam.

Logoepistema deganda turli darajadagi lingvoo'lkashunoslikka oid zarur birliklar tushunilib, ularning mazmuni so'zda, so'z birikmasida, frazeologizmida yoki qanotli iboralarda ifoda etilishi mumkin. Ular matnda "o'tmishning sadosi" sifatida faoliyat ko'rsatadilar. "Logoepistemalarning turli darajadaligi til shakliga logoepistemalar yordamida jamlangan bilimni gavdalandirish usuli sifatida aloqador bo'ladi. Bilimning o'zi esa madaniyat dalili sifatida ma'nolar va mazmunlar sohasiga mansubdir".

“Logoepistemalar bevosita moddiy birliklar bo‘lib, ular tushunchaga oid bo‘lmagan, harakatlarning timsollari, odatlarning va diniy marosimlarning yorliqlari sifatida xizmat qiladi. Ular milliy ma‘naviyatning moddiylashuvini, tarixiy xotirani, etnik-madaniy mentallikning o‘zagini tashkil etadi. Ularning muhim xususiyati bo‘lib, nafaqat ratsional, balki madaniy-ma‘naviy, alohida kishining sub’yektiv va butun bir xalqning o‘z tarixidagi, o‘z “milliy g‘oyasidagi” hayotini tashkil qiluvchi irratsional xususiyat yaqqol ko‘rinadi” (Vereshagin E.M., Kostomarov V.G. 1999) .

Barcha tillarda ko‘p sonli logoepistemalar namoyon bo‘lib, ular milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatni ifoda etadilar va mazkur tilning qonuniyatlariga muvofiq ravishda maxsus vositalar bilan ifoda qilinadilar. Ham jonli, badiiy tayyorlangan nutqda “tayyor intellektual-emotsional bloklar”, ya’ni logoepistemalar mulohazani mazmunlar va obrazlilik bilan boyitadilar, tushunishni ta’minlaydilar.

Logoepistema til va madaniyat o‘rtasidagi chegaradosh ikki tomonlama belgi bo‘lib, unda “ongda aks etgan va til bilan mustahkamlangan ob’yektiv madaniy borliq elementlari ajratib ko‘rsatilganlar hisoblansa, til qobig‘i esa ajratib ko‘rsatuvchi hisoblanadi” (Kostomarov V.G., Burvikova N.D.)

Bu aspektda V.G.Kostomarov va N.D. Burvikova tomonidan ajratilgan logoepistemalar belgilari biz uchun muhimdir. Bu belgilar logoepistemani birinchi navbatda lingvistik birlik sifatida ta’riflaydi: – “so‘z ifodasiga ega, buning ustiga, faqat so‘zda ifodalanib qolmay, ham so‘z birikmasida, ham gapda, ham gapdan ortiq birlikda ifodalangan bo‘lishi mumkin;

- aniq tilga aloqadorligi bilan ajralib turadi;

- uni keltirib chiqargan matnga yoki vaziyatga ko‘rsatma bo‘lishi mumkin;

- kommunikatsiya jarayonida yangidan yaratilmaydi, ammo yangidan boshlanadi;

- kommunikatsiya jarayonida anglab olishni saqlash doirasida shaklan o‘zgarishi mumkin; bu holda u matnni tashkil etish kuchiga ega bo‘ladi.

Logoepistemani madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ajratib turuvchi belgilar ham ancha muhimdir:

– madaniy xarakterga ega bo‘lgan ba’zi bir bilim mazmundorligi bilan ajralib turadi;

– semiotik va timsoliy, chunki jamiyat tomonidan ishlatiladigan belgilar va timsollar elementlari tizimidir;

– germenevtik, chunki uni tushunish uchun boshqa matnlar va madaniyatning artefaktlari bilan o‘zaro bog‘lanish talab etiladi;

– didaktik, chunki uni “madaniyatning ichiga kirib ketish” ma’nosida ta’lim olish jarayonida egallash mumkin”. (Kostomarov V.G., Burvikova N.D.)

Har bir logoeπισtemada yuqorida qayd qilingan lingvistik madaniyatga oid belgilarning birikuvi kuzatiladi.

## **2.4. Lingvokulturema va konsept tushunchalari**

Hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri til va madaniyat bog‘liqligini tadqiq etishga qaratilganligi sababli so‘nggi yillarda lingvokulturologiya fani sohasidagi tadqiqotlar soni ko‘paymoqda (S.A.Askoldov-Alekseev, N. D.Arutyunova, N.N. Boldo‘rev, S.G.Vorkachev, A.A.Vorobev, A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, D.S.Lixachev, V.A.Maslova, Z.D.Popova, Yu.S.Stepanov, I.A.Sternin va boshqalar.).

Yurtimiz tilshunos olimlarining ( D.Ashurova, Sh.Safarov, O‘.Yusupov, M.D.Djusupov, A.Abdurazizov, J.Yoqubov, G.Mahkamova va boshqalar.) lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalaridan biri bo‘lgan konsept muammolariga qaratilgan tadqiqotlari bilan lingvomadaniyatshunoslik sohasiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari - bu “konsept” va “lingvokulturema” terminlari bo‘lib, ulardan dastlabkisi ong birligi, ikkinchisi til birligi hisoblanadi. Bu tushunchalar o‘zida madaniyatning bir bo‘lagini aks ettirishi tufayli ayrim tilshunoslarning ishlarida sinonim tushunchalar sifatida qoraladi. “Lingvokulturema” esa termin sifatida V.V.Vorobev tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga olib kildi.

Ushbu tushunchalarning o‘zaro farqli jihatlarini O‘.Q.Yusupov quyidagicha izohlaydi: “Lingvokulturema — o‘z semantikasida

(ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, nutq klishe'lari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema konseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi" [Yusupov, 2011:15]. Binobarin, konseptlar tilda lingvokulturema ko'rinishida namoyon bo'lib, muayyan xalq madaniyatining bir qismini aks ettirib keladi.

Qontsept bo'yicha muammolar madaniyatshunoslik, tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika kabi fan yo'nalishlarida ham o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishlarda konsept til qonuniyatlarini ochib beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi, shunga ko'ra, konseptga nisbatan olimlarning turli xil qarashlari va ta'riflari mavjud.

"Konsept" termini tilshunoslikda eski va shu bilan birga, yangi termin bo'lib, 1928 yilda S.A.Askoldov-Alekseevning "Konsept i slovo" nomli maqolasida konseptning ko'proq so'zga bog'liqligi e'tirof etilgan bo'lsa-da [Askoldov, 1997], XX asrning o'rtalariga kelib, "konsept" — tilshunoslikda termin sifatida qo'llanila boshladi.

Hozirgi kunda tilshunoslikda konsept terminiga kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologik jihatdan yondashiladi. Olimlarning (A.P.Babushkin, N. N. Boldo'rev, V.N. Teliya, E.S.Kubryakova, I.A.Sternin va b.) kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, konsept - bu ong birligi bo'lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba, inson hayotidagi faoliyat natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasidir.

E.C. Kubryakova rahbarligi ostida bir guruh mualliflarning "Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati"da konseptga shunday ta'rif berilgan: "Konsept - bizning ongimiz mental va psixik resurslari birliklarini ifodalashga xizmat qiluvchi hamda inson tajribasi va bilimlarini aks ettiruvchi informatsion tuzilma (Kubryakova i dr. 1996,90-93), ya'ni, inson psixikasida namoyon



bo'luvchi xotiraning, mental leksikonning, miyaning konseptual tizimi, dunyoning barcha manzaralarining operativ mazmunini birligidir.

Tilshunos Sh.Safarov o'zining "Kognitiv tilshunoslik" kitobida "konsept asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi hamda ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi", deb yozadi [Safarov, 2006:17].

E.S.Kubryakovaning fikricha: "Konsept — mental tuzilma — bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir" [Kubryakova, 2003:9].

Shuningdek, ongdagi konseptual tizimning o'zgaruvchanligini e'tirof etgan holda B.A.Serebrennikov shunday yozadi: "inson ongidagi konseptual tizim dinamik xossaga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida olam haqidagi axborotni qayta ishlaydi hamda o'zida mujassamlashtiradi" [Serebrennikov, 1988:142].

D.U.Ashurovaning konseptga bo'lgan nuqtai nafari quyidagicha: "konsept — bu uyg'un birlik hosil qiluvchi mental tuzilma bo'lib, u olam tasvirining yadroviy komponenti sifatida lingvomadaniy ahamiyatga ega bo'lgan alohida shaxsga va butun jamiyatga tegishli bo'ladi" (Ashurova: 2011,32).

O'.Q.Yusupov konseptni shunday ta'riflaydi "Konsept - bu ongimizda mavjud tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatdir" [Yusupov, 2011:10].

Tilshunos olimlar konseptni yadro va periferiya qismlariga ajratadilar. I.A.Sternin o'zining psixolingvistik tahlillari natijasida ushbu xulosaga keladi: "konsept yadrosi uning tayanch qatlamini tashkil etish bilan bir qatorda kognitiv qatlamlar majmuasi va kognitiv belgilarda namoyon bo'luvchi kognitiv segmentlarni o'z ichiga oladi" [Sternin, 2001: 61].

Lingvomadaniyatshunoslikda esa, konsept ko'proq "til, tafakkur, madaniyat" singari tushunchalar bilan uyg'unlikda o'rganiladi. "Konsept" termini lingvokulturologiyada hali to'liq o'z echimini topmagan bo'lsa-da, unga nisbatan bir qator tilshunos olimlar o'z qarashlarini ifoda etadilar.

Lingvokulturologiya bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar (N. D. Arutyunova, A. Vejbitskaya, S. G. Vorkachev, V. I. Karasik, S. X. Lyapin, D. S. Lixachev, Yu. S. Stepanov va boshqalar.) esa, konseptni etnosemantik xususiyatlarga ega bo'lgan mental tushuncha deb qaraydilar. Konseptga bo'lgan lingvokulturologik yondashuv konseptni madaniyatning tayanch birligi sifatida qabul qilishni taqozo etadi va ma'lum bir madaniyat uchun muhim bo'lgan tushunchalarni o'zida aks ettiradi.

Yu.S.Stepanovning fikricha, konsept tilshunoslikda ikki xil ma'noda tushuniladi: 1) ma'naviy madaniyatning kalit so'zi; 2) so'z paydo bo'lishiga turtki bo'luvchi birlamchi tasavvur. Bu ikki fikr bir-birini, to'ldirib, bir butunlikni hosil qiladi [Stepanov, 1997:254].

E.S.Kubryakova Z.Djekendoffning fikriga tayangan holda konsept – bu inson tafakkuridagi olam tasvirining tilda aks etishi, degan g'oyani ilgari suradi [Kubryakova, 2003:10].

N.D.Arutyunovanning ta'limotiga ko'ra konseptlar inson va olam o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiluvchi ma'lum bir madaniy qatlamni hosil qiladi [Arutyunova, 1999: 3].

A.Vejbitskaya qarashlarida konsept – bu etnosemantik xususiyatlarga ega bo'lgan, turli xalqlar madaniyatining o'xshash va noo'xshash jihatlarini til orqali qiyoslash uchun qo'llaniladigan vosita [Vejbitskaya, 1996:48].

M.V.Pimenovanning fikriga ko'ra esa, konsept mazmuni so'z ma'nosidan kengroq, chunki konsept o'z strukturasini saqlab qoladi, ya'ni strukturaga mansub belgilarni xalqning asriy tarixi davomida yo'qotmaydi. Konsept strukturasini qo'shimcha belgilarning yaratilishi natijasida boyitilib boraveradi va xalqning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi [Pimenova, 2004:129].

Konsept strukturasiga kelsak, konsept murakkab stukturaga ega bo'lib, bir tomondan, tushunchaning barcha qirralarini qamrab olsa, boshqa tarafdin uni madaniyatning bir ko'rinishi sifatida ifoda etuvchi dastlabki omillar, ya'ni u yoki bu tushunchaning etimologiyasi, tarixi, hozirgi kundagi assotsiativligi, qadrimmatlilik, konnotatsiyalarini qamrab oladi.

Olimlar konsept strukturasini qatlamlarga bo'lib o'rganadilar. Masalan, Yu.S.Stepanov ta'limotida uchta qatlam mavjud: asl ma'no; (ichki shakl), passiv (tarixiy qism), yangicha ko'rinish (dolzarb va faol qism) [Stepanov 1997:82].

V.I.Karasik konseptlarni ko'p komponentli strukturaga, ya'ni obrazlilik, tushunchaga oid, qadriyatlilik kabi tarkibiy qismlarga ega deb ta'riflaydi.

Obrazlilik jihatdan ko'rish, eshitish, ta'm bilishga oid, predmetlilikni his qilish, voqea-hodisalarning ongimizda aks etishini ushbu komponentga taalluqli deb biladi.

Tushunchaga oid jihatiga konseptning tilda ifodalanishi, mazmun-mohiyati, ta'riflanishi, stuktura belgilari, definitsiyasi, ma'lum bir konseptning mazkur yoki boshqa tur konseptlarga nisbatan qiyoslanishi kabilarni kiritadi. Shuningdek, tilshunos olim konsept strukturasida o'zgacha nuqtai nazar mavjudligini ham e'tirof etadi.

Konseptning markazida unga nisbatan qadriyatlilik turadi. Oddiy qilib aytganda, agar biror-bir xalq ma'lum bir fenomenga nisbatan "bu yaxshi" (yomon, qiziqarli, qiyin) deb ta'rif bersa, bu konsept bo'la oladi. Ya'ni, konseptga nisbatan xalqning o'z qarashlari va uning qadr-qimmatini belgilab beruvchi yondashuvlari mavjud. Shunday ekan, madaniyat asosida aynan qadriyat tamoyillari yotadi [Karasik, 2004:139].

Konsept – umumbashariy tushuncha bo'lishi bilan bir qatorda madaniyat, bilim, ong birligi hisoblanadi (A. Vejbitskaya, S. G. Vorkachev, V. I. Karasik, S. X. Lyapin, D. S. Lixachev, Yu. S. Stepanov, V.A. Maslova va b.). Unda etnomadaniy xususiyatlar mujassamlanib, tilda aks etadi. Shunday ekan, konsept tilda har bir xalq, millatning madaniyati, tarixi, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi.

Har qanday konsept turli xalqlarda turlicha ko'rinishga ega. Chunki konsept bir xalqning hayot tarzi, milliy-madaniy xususiyatlari, turmush tajribalari orqali yuzaga keladi. S.A.Askoldov konsept so'zning leksik ma'nosiga qaraganda ancha keng ma'noga ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. D.S.Lixachevning nuqtai nazaricha esa, konsept so'zning ma'nolaridan faqatgina birigagina tegishli bo'lishi

mumkinligi e'tirof etiladi. Ammo, olimlarning fikricha, "ma'no", "tushuncha" va "konsept" bu har xil terminlardir. Shunday bo'lsa-da, O.Yusupov "tushuncha" va "konsept" ning, bir-biri bilan dastlab uzviy bog'liq terminlar ekanini e'tirof etadi: "Tushuncha" endi paydo bo'lganda u bilan "konsept" o'rtasida farq bo'lmaydi, shu sababdan bunday paytlardi "tushuncha" atamasini bema'lol qo'llash mumkin. "Tushuncha" aks ettirgan predmet yoki hodisaning yangi belgi-xususiyatlari ochilishi bilan yoki o'sha predmet-hodisaga nisbatan munosabat (baholash) yoki obraz hosil bo'lishi bilan "konsept" paydo bo'ladi. Bunda, konsept o'sha tushuncha asosida paydo bo'ladi va uni o'z ichiga oladi" [Yusupov, 2011:51].

"Konsept" atamasining "tushuncha" atamasidan asosiy farqi shundaki, "tushuncha" — bu biror ob'yekt haqida bilim va ma'lumotlar yig'indisining ongda aks etishi bo'lsa, "konsept" esa, mental tuzilma bo'lishi bilan birga, mana shu ob'yektga nisbatan barcha bilimlar yigindisining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirgan holda til birliklari (leksik, frazeologik, paremiologik va b.) orqali ifodalanishidir [Maslova, 2008:56].

Shuningdek, tilshunos olimlar "konsept" va "tushuncha" atamalarini ikki xil fanga tegishliligini e'tirof etadilar: ulardan ikkinchisi, avvalo, mantiq ilmi va falsafada qo'llanilsa, birinchisi, "konsept" - mantiq ilmining bir sohasi (matematik mantiq) hisoblanib, oxirgi paytlarda madaniyat haqidagi fanlarda, madaniyatshunoslikda keng tadbiq etilmoqda [Stepanov, 1997:40].

Masalan, agar "Sovet entsiklopedik lug'ati" konseptni "leksemada ochiladigan tushunchaning mazmuni" deb (SES 1985: 624), "Katta entsiklopedik lug'at" esa "otning ma'noviy mazmuni, ya'ni tushunchaning mazmuni, uning hajmi shu otning predmeti" (BES 1998: 568) deb ta'riflasa, "Lingvistik entsiklopedik lug'at" ularning ma'noviy bog'lanishini va terminologik turli darajaliligini ko'rsatadi: "Tushuncha (konsept) — so'zning mazmuniga o'xshagan hodisadir, ammo u birmuncha boshqacha aloqalar tizimida mazmun — til tizimida, tushuncha — ham tilshunoslikda, ham mantiqda tadqiq qilinadigan mantiqiy munosabatlar va shakllar tizimida qarab chiqiladi" (LES 1990: 384). "Falsafiy lug'atda" "konsept" terminini ham, "tushuncha" terminini ham ifodalab beruvchi bandi mavjud: "konsept

(lat. *sonsertus* — tushuncha) — aniq ifoda qilish, aqliy timsol, umumiy fikr, tushuncha” (FS 1987: 167). Modomiki, “Falsafiy lug‘atda” tushuncha va konsept terminlar sifatida qaralar ekan, tushunchaning alomatlari “konsept” terminiga ham ko‘chirilishi mumkin.

Shunday qilib, lug‘atlarda konsept realG‘irreal borliqni undagi eng muhim narsani ajratish yo‘li bilan qandaydir predmet yoki hodisa haqidagi tasavvurni umumlashtiruvchi, rivojlana oladigan va aqliy timsol, umumiy fikr tarzida mavjud bilimlarning qandaydir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tizim til belgilarida ro‘yobga chiqadi.

Konsept haqida turlicha mulohazalar mavjud: konsept — bu tasavvur (umumiy tasavvur)(S.A.Askoldov), konsept — bu fikrlashning sinkretik birligi, ya‘ni haqiqatni bo‘linmas va butun aks ettiruvchi fikrlash birligi (P.V.Chesnokov), konsept — bu ma‘no, ma‘noning algebraik ifodasi (D.S.Lixachev), konsept — bu milliy bo‘yoqlar ma‘nosi (V.V.Kolesov), konsept — bu leksema ma‘nosining invarianti (E.V.Raxilina), konsept — bu mazmun, ya‘ni tushuncha tarkibi, “konsept” termini “mazmun, tushuncha” terminiga sinonim hisoblanadi (Yu.S.Stepanov), konsept — bu so‘z, ya‘ni kalit so‘z (A.Vejbitskaya), konsept — bu ma‘nolar tuzilishining mahsulidir, ular freymilar, ssenariylar, sxemalar shaklida yuzaga chiqadi (M.R.Galieva), shuningdek, bu termin yana quyidagicha talqin qilinadi: “kollektiv ongda madaniy ma‘noga ega bo‘lgan ma‘lumot”; “mental tuzilish”; “uning barcha belgilangan aloqalari va munosabatlari haqidagi bilim”; “madaniyatning inson ongidagi yig‘indisi” va h.k. Nazarimizda, konseptni alohida lisoniy shaxsni sotsium bilan bog‘laydigan va uni etnik guruhga kiritadigan etnomadaniyat birlik deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Va shu asosda bu tushunchaning ta‘rifini quyidagicha shakllantirish mumkin.

Konsept — bu ma‘lum sotsiumning ma‘naviy yoki moddiy madaniyatini til belgilari bilan bog‘lab turadigan hodisa haqidagi bilimidir. Konseptni bunday tushunish etnomadaniy maqsadga qaratilganlik xarakteriga ega bo‘lib, konseptni go‘yo mental, falsafiy va psixologik sohadan qadriyatli-madaniy sohaga o‘tkazadi.

**Soʻz va lingvokulturema.** Til va madaniyatni kompleks masala sifatida oʻrganish chogʻida oʻzida ikkala oʻzaro bogʻliq fenomenni umumlashtiruvchi alohida birlikni ajratib koʻrsatish maqsadga muvofiqdir.

Soʻzdan va aslida til birliklari boʻlgan leksik-semantik variantdan farqli ravishda lingvokulturema nafaqat tilning segmentlarini (tilga oid maʼnolarni), balki tegishli belgilar bilan taqdim qilinayotgan madaniyatni (tilga oid boʻlmagan madaniy maʼnoni) ham oʻz ichiga oladi.

Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik kabi lingvistik va ekstralingvistik (tushunchaga oid yoki predmetga oid) mazmunning dialektik oʻxshashligini ifoda etadi. Bu birlik oʻz tub maʼnosiga koʻra soʻzga qaraganda ancha “teranroqdir”, soʻz: belgi — mazmun, lingvokulturema: belgi — mazmun — tushuncha predmet.

Soʻz (belgi — mazmun) til birligi sifatida oʻz tuzilishi bilan goʻyo lingvokulturemaning bir qismini (belgi — mazmun — tushuncha — predmet) tashkil qiladi: birinchisining doirasi til bilan chegaralangan, ikkinchisi predmet olamiga tadbiq qilinadi.

Lingvokulturemaning tuzilishi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. Oddiy (belgi — mazmun) tarkibga bu yerda lingvokulturemaning mazmuni degan madaniy-tushunchaga oid komponent qoʻshiladi, ular oddiy bogʻlanishda emas, balki murakkab, bir-biridan uzoq qarama-qarshi jarayonlardan, til va mazmun bir xilligi va tengsizligidan iborat dialektik bogʻlanishda boʻladilar. Tushunchalar (*madaniy-tushunchaga oid komponent maʼnaviy madaniyatning ifodasi sifatida*) bevosita predmetlarni bildiruvchi sinflarga, yaʼni moddiy va maʼnaviy madaniyatga olib chiqadilar.

Lingvokulturema ham til tasavvurini (“fikir shaklini”), ham u bilan uzviy bogʻlangan “tildan tashqaridagi, madaniy muhitni” (vaziyatni, realiyani) oʻz ichiga oladi, toʻplaydi. Shuning uchun soʻz-signal albatta tilni, alohida madaniy konnotasiyani, nafaqat madaniy maʼnoni, balki “madaniy oreolning” butun majmuini biladigan insonda boʻladi.

Mana shunday moddiy va maʼnaviy obʼyektlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin, masalan, rus tilidagi quyidagi soʻz birikmalariga eʼtiborni qaratamiz: russkoe maslo — eritilgan yogʻ;

russkaya pech — ovqat pishirish, non yopish va isitish maqsadida alohida usul bilan terilgan g'isht pechka; russkaya rubashka — yonidan tugmalanadigan yoqali tushirib yuriladigan erkaklar ustki ko'ylagi; russkie sapogi — tizzagacha bo'lgan qo'njli etik va boshqalar. Frazеologik ibora — govorit russkim Yazikom, ya'ni aniq, tushunarli qilib gapirmoq. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, rus madaniyatini ifodalovchi so'z birikmalari tarkibidagi "russkiy" komponenti turlicha "madaniy ma'noni" ifodalab kelayapti.

Nihoyat, lingvokulturemaning o'z manbai xarakteriga e'tiborni qaratish lozim. Tadqiq qilinayotgan ob'yektga nisbatan quyidagilar manba bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- muayyan xalq milliy madaniyatining muhim qismi, sivilizatsiya va tarixni bilishning zarur manbai, millat ongining ijtimoiy in'ikosi bo'lgan xalq she'riy ijodiyoti;

- tarixiy yodgorliklar, shuningdek maxsus olib borilgan tarixga, falsafaga, sotsiologiyaga, adabiyotshunoslikka, lingvistikaga, estetikaga oid tadqiqotlar;

- ko'zga ko'ringan fan, san'at, adabiyot arboblarning va nufuzli milliy shaxslarning eng qimmatli fikrlari;

- qiyoslash uchun etalon sifatida chet elliklarning u yoki bu millat madaniyati haqidagi fikrlari va mulohazalari.

## **2.5 Tag yoki qo'shimcha (fon) bilimlar.**

Logoepistemalar kishilarning normal munosabatlarida, ayniqsa publitsistikada va badiiy adabiyotlarda yangi matnlarni yaratishda muhim rol o'ynaydilar, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ushbu xalqning umumiy madaniy bilimiga murojaat qilishni tavsiya qilib, mazmunni, fikrni lo'nda, obrazli qilib va yorqin ifodalash qobiliyatiga egadirlar. Logoepistemaga oid so'z qandaydir o'xshash fikrning elementi sifatida butun matnni esga solishga majbur etadigan o'zida tag, qo'shimcha bilim, belgiga ega bo'ladi.

O'xshashlik, N.D. Burvikova va V.G. Kostomarovlarning fikriga ko'ra tag bilimlarning eng muhim xarakteristikasidir (Kostomarov V.G., Burvikova N.D) Tag (qo'shimcha) yoki umumiy

bilimlar deganda olam haqidagi ma'lum lingvo-ijtimoiy-madaniy hamjamiyatga aloqadorlik bilan bog'liq ma'lumotlarni bilish, shuningdek bilim hamda makro va mikropresuppozitsiyani anglash tushuniladi.

Tag bilimlarning verbal komponenti mazkur etnosotsiumning madaniy sohasiga tegishli bo'lgan ismlar, dalillar, mulohazalar, o'xshash matnlarni bilishni nazarda tutadi.

"Lingvistik terminlar lug'ati"da tag bilimlar "so'zlovchi va tinglovchi tomonidan til munosabatining asosi bo'lgan realiyalarni har ikki tomonga tegishli" (Axmanova O.S) deb ta'riflanadi. Tag bilimlar tasnifini E.M. Verehagin i V.G. Kostomarov yaratdilar, ular tag bilimlarni umuminsoniy, regional, o'lkashunoslik guruhlariga ajratdilar (Verehagin E.M., Kostomarov V.G.). Ular tag bilimlarning eng muhim belgilarini quyidagicha aniqladilar:

— umuminsoniy tag bilimlar — istisnosiz barcha odamlar uchun ma'lum, masalan quyosh, shamol, vaqt, vatan va h.k..

— regional tag bilimlar — bu ma'lum regionda, hududda yashovchilarigagina ma'lum bo'lgan ma'lumotlar, masalan, tropik o'lkada yashovchilarning barcha aholisi ham qor, chana, qirov, muz tushunchalarini bilganlari bilan muz ustida balet nimaligini bilmaydilar.

— o'lkashunoslikka oid bilimlar — bu ma'lum etnik va til jamoasining barchasi ega bo'lgan ma'lumotlar. Bu, masalan, barcha ruslar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan rus qishining uzunligi, maslenitsa (qishni kuzatish bayrami), samovar, matreshka, blino' va hokazolar haqidagi bilimlardir (Verehagin E.M., Kostomarov V.G.).

Albatta, tag bilimlarning bunday tasnifi maqbul (qabul qilsa bo'ladigan), chunki u madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi, ba'zan turmush tarzining milliy o'ziga xosligidan dalolat beruvchi ayrim real hodisalar maxsus til birliklarida o'z ifodasini topadilar.

Milliy o'ziga xoslikni aks ettirish, eng avvalo, leksika bilan bog'liq. Bunday leksika lingvoo'lkashunoslikda tadqiqot ob'yektiga aylanadi, axir uning semantizatsiyasi madaniy-tarixiy kontekstga kirishini, muhit (tabiiy va moddiy) bilan tanishishning albatta bajarilishi kerakligini nazarda tutadi. Muqobilsiz (ekvivalentsiz) leksikani konsept darajasida boshqa til bilan mos keladigan, ammo prototiplar darajasida ajralib turuvchi leksikadan farqlash lozim.



Prototip deganda eng ko'p ma'lum invariant tizimli ob'yektning representativ (diniy, muqaddas, etalonga oid) varianti tushuniladi, u eng ko'p o'ziga xoslik (mazkur ob'yektning o'ziga xos belgilarining aralashib ketishi), yasama variantlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati va zohir bo'lib turishining yuqori darajadagi doimiyliги bilan xarakterlanadi (Problemo` funksionalnoy grammatiki. — M., 2003. — S. 19.). Umuminsoniy tag bilimlarga tegishli bo'lgan konseptual universalizatsiyalar turli prototiplarga ega bo'lishlari mumkin, ya'ni har bir tilda (kollektiv lisoniy ongida ham) universal konseptga mos ravishda bu konseptning o'z shaxsiy, milliy-o'ziga xos obrazi keltiriladi, boshqa til sohiblari bu haqida hatto hayoliga keltirmasliklari ham mumkin. Inson ma'lum bir moddiy muhitda yashab, ko'pincha unutilib qo'yadi yoki bilmaydi: "manzara hamma joyda har xil ko'rinadi. Hamma joyda ham odamlar dengiz yoki qor bilan tanish emaslar, tuproq hamma joyda ham jigarrang emas (ko'p joylarda u ko'proq qizil, sariq yoki qora bo'lishi mumkin) va hattoki o't ham uning tarkibida namning miqdori va quyoshda joylashganligiga bog'liq (masalan, Avstraliyada o't bilan qoplangan joy yashildan ko'ra ko'proq sarg'ish yoki jigarrangdir)" (Vejbitskaya A. Yazik, kultura, poznanie. — M.: Russkie slovari, 1996. — S.233-234.).

Ko'pchilik lisoniy konseptlar uchun umumiy bo'lgan milliy-spetsifik (o'ziga xos xususiyat) prototiplarini bilish — bu bitta tilni anglash bilan birlashtirilgan har qanday sotsiumning kognitiv bazasining tarkibiy qismidir. Rus tilining ba'zi bir so'zlariga boshqa tillarda adekvat mos so'zlarni topish mumkin emas. Masalan, Volya, udal, prostor, shir, razdole, toska va boshqa so'z-logoopistemalarga ikki tilli lug'atlar taxminan to'g'ri keladigan ma'lum so'zlarni beradilar, haqiqatda esa ular faraz qilingan, o'ylab topilgan so'zlar bo'lib chiqadi.

N.G. Komlevning fikriga ko'ra, til munosabatida aytilgan so'zlarning o'zinigina tushunish yetarli bo'lmaydi, nima nazarda tutilayotganini ham tushunish zarur (Komlev N.G) Keyingi yillarda lingvoo'lkashunoslik e'tiborni kommunikatsiya matnidan milliy-madaniy ma'lumotni oddiygina ajratib olishga emas, balki kommunikatsiyaning ko'plab parametrlarini belgilaydigan shaxs mentalitetining o'ziga xos xususiyatlariga ("shaxsning lingvistik biografiyasi" gacha — A.E. Suprun termini) qarata boshladi.

Mentallik (yoki mentalitet), A.B. Sergeevaning izohlashi bo'yicha, - bu konkret madaniyatda yashovchi kishilarning olamni o'ziga xos usul, fikr timsoli, hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi, maishiy va ijtimoiy axloqning shakllari bilan idrok qilishning integral tavsifidir ( Sergeeva A.B).

Yu.E. Proxorov va I.A. Sternin mentalitet deganda muzkur lingvomadaniy umumiylikning vakillariga xos bo'lgan borliqni anglash va tushunishning kognitiv stereotiplarini tushunadilar (Yu.E. Proxorov, I.A. Sternin).

Yu.E. Proxorov va I.A. Sternin rus kishisining mental xususiyatlari deb quyidagi kommunikativ-relevant ma'nolar: samimiylik, hayotiy ta'sirchanlik, "o'rtachalikni" xush ko'rmaslik, qonunlarni mensimaslikni tushunadilar.

E.M.Verehagin va V.G. Kostomarov rus tilini chet elliklarga o'qitishning o'lkashunoslik aspektini ishlab chiqib so'zlarning, frazeologizmlarning va maqollar, matallar, qanotli iboralar kiradigan tilga oid aforizmlarning (nutqiy individual aforizmlardan farqli ravishda) til birliklari materiallari deb ataladigan qatorlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladigan, bevosita tildan tashqari faoliyatni ifoda etadigan, tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganishning muhimligini alohida ta'kidladilar.

Ba'zi bir mualliflar hisoblaydilarki, logoeπισtemalar o'z tabiati bo'yicha so'z, so'z birikmalari, frazeologizm, qanotli iboralar ham o'zgartirilgan, ham aynan aks ettirilgan pretседent (nufuzli) matnlarning til birliklarining umumiy nomidir. Moddiy jihatdan logoeπισtema matn sarlavhasining takrori, uning birinchi yoki oxirgi jumlası, matndagi qandaydir kalit so'z bo'lishi mumkin, muhimi logoeπισtema unga ishora qilishi, unga yo'llashi, u bilan birlashib ketishidir.

Biroq E.M.Verehagin va V.G. Kostomarovlar ta'kidlaydilarki, logoeπισtemalar lingvistik kategoriyalarga olib kelmaydi: bu so'z yoki so'z birikmasi, frazeologizm yoki klishe, metafora yoki allegoriya va h.k. emas, - bu bilim, "so'zning - o'z ichki yashirin shakli, o'z individual tarixi, madaniyat bilan o'z aloqalariga ega bo'lgan o'z ma'nosidagi bilimdir" (E.M.Verehagin, V.G. Kostomarov). Ta'kidlash lozimki, hamma frazeologizmlarni, qanotli so'z va iboralarni, sitatalarni logoeπισtemalarga kiritib bo'lmaydi.

Ma'lum davradagi birliklarning - logoepistemalarning milliy-madaniy til komponentlari semantikasini aniqlash va tasvirlash uchun bu birliklar mavjud bo'lgan so'z-tushunchalar guruhlari saralanadi.

Logoepistemalarga shaxsiy bilimlar emas, balki jamiyat a'zolarining ana shu jamiyat haqidagi tasavvurlari kiradi, bu tasavvurlar ularning nutqida muntazam faollashib boradi. Logoepistemalar, bir tomondan, har bir til jamiyati uchun o'ziga xos bo'lgan idrok etish modeli faoliyatining natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni avloddan avlodga uzatish imkoniyatini yaratib, bu modellarni saqlab qoladi va belgilab beradi. Bu, o'z navbatida, ushbu guruh a'zolarining til va madaniyat birligini shart qilib qo'yadi. Logoepistemalar, shunday qilib, lingvoo'lkashunoslikning muhim birliklari bo'lib, chet tilini o'qitishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Demak, bizni qiziqtiruvchi til belgilarining eng umumiy xususiyati deb bu belgilardan bevosita kelib chiqmaydigan semantik-pragmatik bog'lanishga ega bo'lgan narsani hisoblash mumkin.

## **2.6. Ta'lim tizimida til va madaniyat**

Madaniyat til egallashni osonlashtiradi. Dastlabki til konstruksiyalari o'zlashtirilishi bilanoq tilni o'rganish jamiyatni o'rganish bilan birga qo'shilib ketadi. Leksika madaniy kontekst bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, kontekstni hisobga olgan holda bu leksikaning o'zlashtirilishini, mustahkamlanishini, takrorlanishini yengillashtiradi, u oson qo'llanadi, chunki leksika bir butun til konstruksiyasining qismi hisoblanadi. Bu nafaqat juda oddiy tarkibga ega bo'lgan leksikaga tegishli bo'libgina qolmay, balki umumqo'llaniladigan, turli tillarda turli ma'noga ega bo'lgan, eng muhimi, lug'atlarda berilmaydigan, kontekstni kerakli darajada e'tiborga olmay, bir so'z boshqa so'z bilan ifodalanadigan konnotatsiyalarga ham tegishlidir.

Konstruksiyalar, agar ular ma'lum vaziyatlarda qo'llanilsa, yaxshi o'zlashtiriladi. Buni yaxshi bilgan dialoglarning mualliflari

ularni boshqa tilning kontekstiga joylashtiradilar, ular bunda madaniy muhitni hosil qiluvchi fon sifatida yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, matnning tarjimasini bir vaqtning o'zida so'zning asl ma'nosi jihatidan to'g'ri. ammo madaniy fonni uzatish nuqtai nazaridan noaniq bo'lishi mumkin, shuning uchun ham matnni haqiqiy to'g'ri tushunish uchun aynan madaniy mazmun muhimdir. Ba'zan aynan bir xil gaplar, so'zlar, vaziyatlar turlicha aks-sado uyg'otadi; shubhasiz, boshqa tilda gapiruvchi matnni o'z ona tilida o'qiganida nimani anglatganining barchasini aniq tarjimada qayta sharhlantirishning imkoniyati yo'q.. Tarjima masalasining murakkabligi ham aynan mana shundadir.

Madaniyat asoslaydi. O'qitish jarayonining samaradorligi uchun talabalarga til materiallarini dalillar asosida tushuntirish birinchi darajali ahamiyatga egadir, madaniyat bo'lsa bu yerda boshqa predmetga nisbatan qiziqish uyg'otadigan kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki kimki u bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, uni hech qanday qiyinchiliklarsiz o'zining ichki dunyosidan tashqariga olib chiqadi. Masalan, xususan, talabalarga yanada ko'proq daliliy faktlar bilan isbotlash maqsadida ularga ikkala madaniyatning o'xshash tomonlari bilan tanishtirishni, keyinchalik esa farqlarini ko'rsatishni tavsiya qilish mumkin. Bunda katta qiziqish uyg'otish uchun folklor materiallarini keng qo'llash mumkin. Qiziqitirish bilan bir vaqtda biz boshqa madaniyatga va uni aks ettiradigan boshqa tilga qiziqish uyg'otamiz.

Talabalarda qiziqishni shuningdek, jamoaning, oila va maktabning hayoti, kun tartibi va uning oilaviy, maktab hamda kasbiy hayoti haqidagi ma'lumotlarga tayanib uyg'otish mumkin. Odob qoidasi (AQShda o'zining bo'ladabligini ko'rsatish uchun ovqatlanish paytida bo'sh qo'lni stolning ostida tutish qabul qilingan; Italiyada notanish kishiga 3-shaxsda murojaat qilish qabul qilingan); kundalik turmush xususiyatlari (Angliyada har gal uchrashganda kishining qo'lini qisib qo'yishmaydi) bularning hammasini qiyoslash va tahlil qilish jarayonida qo'llash mumkin.

Madaniyat talabalarning saviyasini kengaytirishga ko'maklashadi. Xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar yoki o'quvchilarning o'qitish tizimini tahlil qilish ko'rsatadiki, u ham boshqa fanlar, masalan,

tarix yoki adabiyot fanlari darajasida analitik va sintetik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aytilgan narsa birinchi navbatda mulohaza qilish shaklidagi o'qituvchi tomonidan undalgan yoki o'quvchilarning o'zlari tomonidan amalga oshirilgan suhbatga taalluqlidir. Juda achinarlisi shuki, ta'limning o'rta bosqichi o'qitishning bu turidan voz kechyapti. Idrok qilish qobiliyatlarini shakllantirish va o'qitish bilan faqatgina asosiy fanlarga shug'ullanib qolmaydi; chet tili o'qituvchisi talaba va o'quvchilarning idrok qilish qobiliyatini shakllantirish bilan shug'ullanadi. U faqat tilga o'qitmaydi, balki bu so'zning tom ma'nosida o'qituvchi tarbiyachi hamdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, talaba yoki o'quvchilar faqatgina u yoki bu xorijiy tilni o'rganishmaydi, balki ayni paytda tili o'rganilayotgan xalqning madaniyatini va turmush tarzini ham o'rganishadi.

Ta'limning har qanday bosqichida talaba va o'quvchi tilni anglashga erishish uchun bor kuchini sarflashi lozim, tilni anglash ta'limda qo'lga kiritiladigan muvaffaqiyatning yagona garovidir. Biz muntazam ravishda o'quvchilarni madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga undashimiz zarur. Madaniyat bo'yicha materiallarga asoslangan o'qitish adabiy matnlarni o'rganishga asoslangan o'qitishni takrorlamaydi. Aksincha, biri ikkinchisidan ajralmaydi, ularning maqsadlari ham bir xil: fikrlashni o'rgatish, o'quvchilarga mulohaza qilishni o'zlari davom ettirishlariga imkon beradigan ish uslublarini singdirishdir.

Talaba va o'quvchilar o'z madaniyati va tili bilan o'zga xalqlar madaniyati va tili o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratishlari uchun kundalik hayotning ba'zi bir tajribasiga ega bo'lishlari lozim. Shubhasiz, o'quvchilar bu madaniyatlar haqida o'zlarining mulohazalarini bildirishni xohlaydilar; ularni fikrlarini tushunarli ifoda etishga o'rgatish zarur hamda munozaralarni tashkil etib, bunga yordam bermoq lozim. Bu munozaralar til materiallarining soddagina tahliliga asoslangan bo'lishli kerak.

Madaniyat bilan bog'liq masalalar chuqur mulohaza bilan qilingan tanqidga olib keladi; bundan tashqari, o'quvchilarga nimani namoyish etsak, uning muntazam rivojlantirilishi kerak bo'lgan tasavvurini faollashtiradi.

Madaniyat bilimga intilishni kuchaytiradi. Yangi muammolar yangi tadqiqotlarga undaydi. O'spirin yoshlar shovinizm, millatchilik kabi muammolarga alohida qiziqish bilan qaraydilar. Masalan, jahonda sodir bo'layotgan turli tuman salbiy voqealar, diniy ekstremizm, terrorizm va shunga o'xshash hodisalar bilan bog'liq muammolar qaysi mamlakatda sodir bo'layotgan bo'lsa, o'sha mamlakatning ijtimoiy-madaniy ahvolini, sharoitini umuman, fonini bilishni nazarda tutadi. Bu masalalarning mazmunini yaxshiroq anglash uchun o'quvchilar buning sabablarini ko'rsatishni so'raydilar, o'qituvchi esa ana shu savollarga javob berishga doim tayyor turishi lozim.

Bilimga qiziqishni uyg'otishi mumkin bo'lgan juda sodda, oddiy mavzular ham borki, ularni ta'lim maqsadlarida qo'llash mumkin. Masalan, turli mamlakatlarda mavjud ta'lim tizimi, tarixiy-madaniy boyliklari va diniy e'tiqodlari kabi talabalarni qiziqtiradigan masalalar ular haqidagi ma'lumotlar dastlab umumiy tarzda, keyinchalik esa ancha chuqurlashtirib berilishi mumkin.

Ommabop musiqaga yoki xalq qo'shiqlariga bo'lgan qiziqishlar ham yoshlarning ancha e'tiborini tortadi, agar o'qituvchilar bu kabi madaniy birliklarning mavjudligi mazmunini, ijtimoiy rolini tushuntirib bera olsalar, bular juda qiziqarli pedagogik vosita hisoblangan bo'lar edi. Bunda o'qituvchilar asosiy e'tiborni musiqa va xalq qo'shiqlarining ham ohangiga, ham bu asarlarning ijro etilishiga, ularning tahliliy sharhlariga, ham jamiyatning bu madaniy birliklarga bo'lgan munosabatiga asosiy e'tibor qaratilishini unutmasligimiz kerak. Shuningdek, kundalik gazeta va jurnallarda berilgan materiallar ham o'quvchi va talaba yoshlarning qiziqishini uyg'otadi, shu sababli ustozlar ulardan ustalik bilan foydalansalar, ularga o'quvchilarni olamni anglashga tayyorlash imkonini beradi.

Paydo bo'layotgan muammolar va ularning sabablarini o'rganish ham ta'limning ishidir. Bu muammolarning yechimini tahlil qilish, ular orasidagi aloqalarni topish, ularni u yoki bu tamoyillar asosida guruhlariga ajratishga urinib ko'rish mumkin. Masalan, tili o'rganilayotgan mamlakatdagi saylov mexanizmini, saylov tizimining murakkabligi, uning o'ziga xos an'analari haqida

ham yetarli darajada ma'lumotlar berib, tushuntirish ishlari olib borishi mumkin. Yoshlarni qiziqtiradi, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat bunday munosabatlarning mavjudligini ba'zi o'quvchilar xayoliga ham keltirmagan bo'lishi mumkin, ammo millionlab kishilar uchun muhim hisoblangan bunday muammolar fikr yuritishga undaydi.

Madaniyat, shunday qilib, nafaqat bilimni uzatadi, balki bilimga qiziqishni ham o'stiradi, bu o'z navbatida borliqni anglashga ko'maklashadi.

Madaniyat bilim beradi. Lingvomadaniyatshunoslik faqatgina fan bo'lib qolmay, balki u o'qitish uslubi hamdir, uning predmeti muntazam ravishda qayta ko'rib turilishi va yangi kashfiyotlar bilan tuzatilib turilishi lozim.

Lingvomadaniyatshunoslik ta'lim uchun o'qitish metodi muhimdir. Shundan kelib chiqib, ularning ongiga madaniy boyliklar va madaniy meroslar haqida ko'proq ma'lumotlar berish lozim. Bilim vaqt o'tishi bilan to'planadi, ammo ularni qo'llash usullariga, to'plash bilan shug'ullanish xohishiga ta'limning boshlang'ich darajasidayoq asos solinishi lozim.

Talabalarning doimiy izlanishlariga va berilgan materiallarni tahlil qilishlariga o'qituvchi asosiy e'tiborni qaratishlari kerak, bu esa ta'limga lingvomadaniy yondashuvning eng muhim aspektlaridan biri hisoblanadi. Bunday e'tibor talaba va o'quvchilarni hamma narsaga yengiltaklik bilan qarashga, *masalaning asl mohiyatini to'liq tushunib yetmaslikka olib kelishi*, natijada talaba va o'quvchilarni noprofessionallarga aylantirib qo'yishi mumkin. Demak, o'qituvchilarning eng asosiy vazifasi talabalarni yuzakilikka intilishdan xalos qilishlari kerak.

Madaniyatni o'rganish madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishiga ham yordam beradi. Turli mamlakatlar bilan o'quvchilar va talabalar almashishi bir vaqtning o'zida til o'qituvchilari uchun ham vosita, ham muvaffaqiyat hisoblanadi, chunki to'g'ridan-to'g'ri aloqalar, bir tomondan, tilni takomillashtirish uchun, ikkinchi tomondan esa xalqaro aloqalarni rivojlantirish uchun foydalidir.

**Madaniy savodxonlik masalasi.** "Inson — til — madaniyat" masalasiga murojaat qilinganda madaniy savodxonlik tushunchasiga

ta'rif berish talab etiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, madaniyat kishi faoliyatining barcha sohalari ichiga kirib ketadigan tushunchalar qatoriga kiradi va unda har kim o'zinikini qidiradigan murakkab hodisadir, ya'ni madaniyat — bu taxminan jamiyatning hamma a'zolari unda o'zlarini tutishlari zarur bo'lan jamiyat tomonidan shakllantirilgan xulq-atvor usullaridir; bu usullar oliy maqsadni va qadriyatlarni, ham o'z guruhi ichidagi, ham undan tashqaridagi til va kommunikatsiya tarzini o'z ichiga oladi.

Har qanday madaniyatning muhim komponenti — normalardir (ya'ni, ma'lum vaziyatlarda muomalani belgilaydigan jamiyatda shakllantirilgan qoidalar), qadriyatlar (jamiyatning ko'pchilik a'zolari o'zlari uchun to'g'ri, yaxshi, ma'qul deb hisoblagan umumiy tasavvurlar) va ulardan eng muhimi lisoniy timsollardir.

Madaniyatlarning tafovutlari va rang-barangligiga qaramay umummadaniy universalialar ham mavjud. Ammo har bir madaniyatdagi bu umumiy kategoriyalar mazkur jamiyatning normalari va qadriyatlariga mos ravishda konkret mazmun va konkret o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi.

Madaniyatning til bilan chambarchas bog'langan quyidagi omillari mavjud:

a) ijtimoiy guruhning og'zaki va yozma nutqda ishlatish umumiy maqsadlari va vazifalariga, idrok etishning umumiy standartlariga, fikr va fe'l-atvorga aloqadorlik;

b) shu guruhga aloqadorlik;

v) standartlarning shu tizimiga aloqadorligi.

Hozirgi lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlari turli tillarni va madaniyatlarni qiyoslashning barcha qiyinchiliklarini hisobga olgan holda o'zaro munosabatlarning quyidagi metodlarini taklif etadi:

O'zga madaniyat mavjudligini anglash; begona yomon degani emas; bu madaniyat, bu kishi, shaxs, men uchun qiziq, chunki ular menikiga va menga o'xshamagan;

— turli estetik konsepsiyalar komponentlarining almashishga kirishishi ( G'arb va Sharq o'rtasida);



— bir madaniyatdan boshqa madaniyatga turli estetik va madaniy komponentlarni ko'chirish;

— turli madaniyatlarga xos bo'lgan umumiy komponentni qidirib topish va ajratib ko'rsatish.

Oxirgi band hozirgi jamiyatda odamlarning samarali aloqa qilishlari uchun zarur bo'lgan bilimni aniqlashni nazarda tutadi.

Kommunikatsiya nazariyasi nuqtai nazar bo'yicha odamlarning munosabatlari quyidagicha qaraladi. Bir tomondan, kommunikativ harakat ishtirokchilari biror ma'lumotni egallash aspektida har doim ham teng bo'lmaydilar. Bu tengsizlik kishilarni aloqaga kirishishga undaydi; aks holda bu aloqaning hech qanday ahamiyati bo'lmay qoladi.

Boshqa tomondan, kommunikativ harakat aspekti qandaydir ma'lumotga egalik jihatidan suhbatdoshlarning tengligi. Birinchidan, ular munosabat vositalari jihatidan teng bo'lishlari, ya'ni bir xil tilda gaplashishlari zarur. Ikkinchidan, kommunikantlar har ikkalasi uchun qandaydir umumiy bilim hajmiga ega bo'lishlari kerak, bu yangi xabar uchun boshlang'ich nuqtani hosil qiladi. Aks holda uni uzatish va qabul qilish nafaqat qiyin, balki chindan ham mumkin bo'lmay qoladi.

Madaniy va ijtimoiy sharoitlarning bir-biri bilan bog'liqligini tan olish natijasida lingvomadaniy planda o'ta muhim va munosabatlar ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradigan quyidagi qoidalar kelib chiqadi:

— har qanday xalq vakillari o'zlarini o'z madaniy normalariga mos holda tutadilar;

— yosh, jins, ijtimoiy kelib chiqish, yashash joyi kabi o'zgaruvchan omillar kishilarning nutq muomalasiga ta'sir ko'rsatadi;

— aynan bir xil vaziyatning o'zi turli madaniyatlarda turlicha ifodalangan;

juda ko'p so'zlar va iboralar madaniy konnotativdir: (ajratib ko'rsatilgan so'zlarning birortasi ham boshqa madaniyat sohiblariga lingvomadaniy izohlarsiz tushunarli emas);

— denotativ jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan turli tillardagi so'zlar ma'naviy jihatdan prinsipial bir-biri bilan teng emas;

— til orqali madaniyat haqida muhim ma'lumotlar olish, ularni baholash mumkin.

Madaniyatlararo munosabatlar va aloqalar teran akkulturratsiya — ikkinchi til shaxsini shakllantirish sharoitidagina mumkindir, u begona milliy psixologiyaga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni kiritishni nazarda tutadi.

## **2.7. Lisoniy interferensiya va lingvomadaniy interferensiya**

Lingvistikada va tillarni o'qitish metodikasida “interferensiya” termini faol qo'llaniladi. Lingvomadaniyatshunoslikda esa lingvokulturologik aloqalar natijasida interferensiya bir millat madaniyat tizimi elementlarining ikkinchi xalq madaniyatiga uzatilayotgan elementlarining o'ziniki yoki begonaniki bo'lishidan qat'iy nazar infiltratsiya (tozalash) yo'li bilan interferensiya hodisasini bartaraf qilish amalga oshiriladi. Shu tarzda interferensiya o'zida qo'llanilayotgan madaniyat tizimiga, foydalanuvchi tomonidan o'zlashtirilgan, avvalgi madaniyat doiralarida olingan bilim va tajribalarning ongli va ongsiz olib o'tilishini ifodalaydi.

Interferensiya o'zini ikki, ya'ni funksional va strukturaviy bosqichda namoyon qiladi. Funksional bosqichda begona madaniyat, begona til, nutq muloqotining begona tizimidan foydalanishda individning noadekvat munosabati o'rin egallaydi.

Strukturaviy bosqichda interferensiyalanuvchi elementlarning doimiy ishlab chiqarilishi asosida va ularning ommaviy amaliyotda mustahkamlanishi natijasida, shu elementlarning lingvokulturologik tizimga madaniyat, til va nutqiy o'zlashtirilmalar shaklidagi infiltratsiyasi sodir bo'ladi. Til amaliyoti va til strukturasi o'zida ijtimoiy nuqtai nazardan ajratiladigan va mustahkamlanadigan elementlar nafaqat individual-psixologik darajada, balki ijtimoiy darajada ham maxsus kuzatishlar predmeti bo'lishi mumkin. Natijada, individual interferensiya ijtimoiy interferensiya darajasiga etib borishiga sabab bo'ladi.

Inteferensiya bu elementlari milliy til bo'lgan turli milliy madaniyatlar shaklida faqat semiotik tizimlarni spetsifik tushunishning

namoyon bo'lishidir. Shuning uchun interferensiyaning madaniy kontekstdan tashqarida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Boshqa tomondan, madaniyatlararo interferensiyaning til kontekstidan tashqarida o'rganish ham haqqoniy hisoblanmaydi, chunki milliy nutq madaniy ma'lumot uzatishning muhim vositasidir. Bu bilan interferensiyaning uch ko'rinishi — madaniyat, til va lingvokulturologiyani nafaqat farqlash, balki ularning o'zaro aloqasini o'rganish ham taklif qilinadi.

Madaniy interferensiyada mazkur madaniyat foydalanuvchisi nutqiga, undan keyin shu madaniyat boshqa madaniyatga hos bo'lgan ayrim g'oya, fikr, xulqlarning stereotiplari va normalari, e'tiqod va boshqa ideologik tasavvurlarning kirib kelishi kuzatiladi. Bu yerga boshqa milliy til bilan bog'liq til bilimlari va nutq malakalari ham kiradi. Boshqacha aytganda, madaniy interferensiyaga individual va ijtimoiy bosqichdagi til va nutq elementlarini o'z ichiga olgan holda bir madaniyat istalgan elementlarining boshqasiga kirib kelishi bilan bog'liq jarayonlar kiradi.

Lisoniy interferensiyasi faqat til elementlarining ko'chishiga olib keladi. Aynan shu yerda bir tildan boshqasiga leksik, grammatik va stilistik mazmunlarning ko'chishi kuzatiladi.

Lingvokulturologik interferensiya bir tomondan madaniy interferensiyaga butunning qismi, ikkinchi tomondan, til interferensiyasiga qismning butuni sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Lingvokulturologik interferensiya bu lingvistik va paralingvistik elementlarning, madaniyatning tildan tashqari elementlari bilan ma'lum tarzda bog'liq bo'lgan qismining ko'chishidir. Bu, olamning umumiy konseptual va lisoniy manzarasini ifodalovchi belgilar, mazmunlar, baholar va boshqa elementlariga xos hodisadir. Bunga og'zaki ifodalanadigan xulq-atvor malakalari ham kiradi. Ekstralingvistik elementlarning xarakteriga ko'ra lingvokulturologik interferensiyaning assotsiativ, baholi, emotiv va xulq-atvor turlari o'zaro farqlanadi.

Konseptual interferensiya lingvomadaniy muloqot doirasida gapiruvchilarda yig'ilgan mantiqiy-tushunchali tasavvurlar spetsifik so'z va mazmunlarning nutqda paydo bo'lishiga bog'liq.

Assotsiativ interferensiya til tizimining moddiy va ma'naviy dunyo ob'yektlari hamda turli hil goyalar orasida belgilanuvchi, o'ziga xos va

mos madaniyat uchun an'anaviy assotsiasiyalar bilan bog'liq qatlamlarga tegishli. U, aloqadagi madaniyatlarning obrazli simbolikasini amalga oshirishda attraksiyalar va ko'chishlarda namoyon bo'ladi. Bu shuningdek, mazkur til uchun nostandart metaforalar, qiyoslashlar va shunga o'xshash hodisalarning manbaidir.

Xulq-atvorli interferensiya nutq muloqoti sohasidagi stereotiplarga tegishli. Xulq-atvor interferensiyasining muhim qismi bo'lib, begona til muloqotiga ona tilidagi jestikulyatsiya, ya'ni his-tuyg'u va istaklarning tashqi ifodalanish qoidalari bilan bog'liq ko'nikmalar va nutq etiketi, ya'ni suhbatdoshlar orasida adekvat muloqotni o'rnatish uchun jamiyat tomonidan belgilangan formulalarga tegishli bilim va ko'nikmalarning ko'chishi hisoblanadi.

Lingvokulturologik interferensiya begona tildan muloqotning mustahkam vositasi sifatida foydalanadigan, bu esa shu til bilan bog'langan madaniyatning o'zlashtirilishi jarayonida kuzatiladigan ijtimoiy-madaniy muhitda namoyon bo'ladi. Shu til va u bilan bog'liq madaniyat yangi sharoitlarda intensiv shakllanadi. Bunda lingvokulturologik tushunishning quyidagi modeli paydo bo'ladi:

1) o'zga tildan foydalanish shu til bilan bog'liq olam umumiy manzarasining ma'lum qismi va shunga mos belgili tizimini ijodiy izlab topishga olib keladi. Bu boshqa xalq madaniy elementlarini paradigmatic tushunishdir.

2) o'zga tildan foydalanish azaldan til sohiblari uchun xos bo'lgan fan va ideologik qarashlar, kundalik va shunga o'xshash tasavvurlar, bilim va ko'nikmalarning ijodiy o'zlashtirilishi bilan kuzatiladi. Bunda begona madaniyatni sintagmatik tushunish namoyon bo'ladi.

3) o'zga tildan foydalanish yangi nutq xulq-atvor normalarining ijodiy o'zlashtirilishi bilan kuzatiladi. Bu yangi madaniyatni xulqiy tushunishdir.

### **III. BOB. LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MILLIY-MADANIY ASPEKTD**

#### **3.1. Soʻzning semantik tarkibi**

Soʻz – tilning asosiy birligi boʻlib, predmetlarning nomlarini va ularning xususiyatlarini, hodisalarni, borliqqa munosabatlarni bildirishga xizmat qiladi. Soʻz shaklga (fonetik va grammatik belgilarga) va har bir til uchun xos boʻlgan (leksik va grammatik) maʼnoga ega.

Leksik maʼno - bu soʻzning mazmuni, soʻz ifoda etgan, atayotgan narsaning inson ongidagi inʼikosi; bu predmetlar, harakatar, belgilar haqidagi tushunchadir; soʻzning asosiy leksik maʼnosi uning oʻzagida – barcha oʻxshash soʻzlarning umumiy qismida mavjud boʻladi. Old qoʻshimchalar va suffikslar soʻzga nozik qoʻshimcha maʼnolar olib kiradi. Masalan, maktab soʻzining asosiy maʼnosi – oʻquv-tarbiyaviy muassasa; shunday muassasa binosi. Maktabga oid, oʻquvchiga oid, oʻquvchi, maktab bola soʻzlari maktab soʻzidan qoʻshimcha maʼnolar bilan yasalgan.

Soʻzning grammatik maʼnosi - bu soʻzning qandaydir soʻz turkumiga tegishliligi haqidagi, soʻzning grammatik belgilari (rod, son, kelishik va hokazo) haqidagi maʼlumot. Grammatik maʼno asosan soʻzning qoʻshimchalari, shuningdek, old qoʻshimchalari va suffikslari orqali ifodalanadi.

Soʻzni toʻgʻri ishlatish uchun uning maʼnosini va grammatik shakllarini bilish kifoya qilmaydi. Shuningdek u qaysi soʻzlar bilan muvofiq kelishini, moslashishini ham bilish zarur. Qaysi maktab? Umumtaʼlim maktabi, ixtisoslashgan maktab, maxsus maktab, matematik maktab, musiqa maktabi, badiiy maktab, oʻn bir yillik maktab, boshlangʻich maktab, asosiy maktab, yuqori sinflar oʻqitiladigan maktab, qishloq maktabi, shahar maktabi, xususiy maktab, kechki maktab, yakshanba maktablari; maktab-internat. Qandaydir tilni chuqurlashtirib oʻqitishga ixtisoslashgan, qandaydir yoʻnalishdagi maktab, kuni uzaytirilgan maktab. Kimning yoki nimaning nomidagi maktab.

Maktab bilan qanday harakatlar bogʻlangan? Maktabni qurish, ochish, tashrif buyurish, tugatish mumkin. Maktabga kirish, borish,

kechikish mumkin. Maktabda o'qish, ishlash mumkin. Bu iboralarda maktab haqida ma'lum ma'lumotlar mavjud. Xalqda maktab haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq barcha tushunchalar bu so'zning leksik fonini tashkil qiladi.

Shunday qilib, so'zni to'g'ri ishlatish uchun predmetning o'zi haqida, bu so'z bilan ifodalangan tushuncha haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Boshqa mamlakatda, boshqa madaniyatda tasavvurlar nimasi bilandir farqlanishi mumkin. Masalan. inglizcha school (maktab) so'zi boshqa so'zlar bilan birikmada quyidagi ma'nolarni anglatadi: School of Foreign Languages – chet tillar fakulteti; school broke up – darslar tugadi, ta'tillar boshlanadi; school is over – o'quv yili nihoyasiga etdi; to go to school – faqat maktabda emas, balki turli kurslarda, universitetda, kolleжда o'qish. So'zning birga qo'shila olish imkoniyatlari uning leksik foniga kirib, so'z ma'nosining madaniyatshunoslikka oid ma'no nozikliklarini kuchaytirib, ajratib ko'rsatadi.

Olimlar so'zda ma'noning alohida, madaniy komponenti mavjudligiga ancha ilgariyoq e'tiborni qaratganlar. Bu ma'noni ta'riflash tilni egallashda muhimdir, negaki notanish tilni o'rganishdagi asosiy xatar aynan bu til leksikasi mazmunining madaniy komponentini bilmaslikdadir. Turli tillardan olingan ikkala so'zning ma'nosi hech qachon to'liq mos kelmaydi; faqat terminlar bundan mustasnodir. Shuning uchun har bir so'z to'g'ri ishlatilishi uchun tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy sharoiti bilan o'zaro munosabatda bo'lishi lozim.

“Tilning so'zlari ijtimoiy voqelik kabi jamiyat hayoti, uning moddiy va ma'naviy madaniyatining xususiyatlarini olib yuradilar. Bu madaniy ma'no tilning bo'lagidir”, – deb yozgan edi tilshunos N.G. Komlev (Komlev 1966: 46).

E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlarning “Yaziki kultura” va “Lingvostranovedcheskaya teoriya slova” nomli ishlarida leksik fon termini birinchi bor uning milliy o'ziga xosligi ancha keng namoyon bo'ladigan so'z semantikasi komponenti sifatida ta'riflangan edi.

Leksik fon o'z xususiyatlarini, birinchidan, so'zlarning tematik bog'lanishida (masalan, choy so'zi bilan samovar, chashka, sut va

hokazo soʻzlar tematik jihatdan bogʻlangan), ikkinchidan, sintaktik bogʻlanishlarda (choy tayyorlamoq, choy quymoq, choy ichmoq va hokazo), ruscha chay va bu ichimlikning vengercha nomi tushuncha munosabatiga koʻra bir xil, ammo ular oʻzlarining leksik foni bilan farqlanadilar. Vengriyada choyni pishirishadi, Rossiyada esa damlashadi (shu sababli choyni pishirmoq iborasi rus kishisi uchun gʻayri tabiiy, gʻalati eshitiladi). Oʻzbeklar, tojiklar, ruslar va yana bir qator millat vakillari uchun mehmonga bormoq va uyiga mehmonlarni taklif qilmoq odatiy hol; fransuzlar esa, odatda uydan tashqarida uchrashadilar va shunga koʻra ular ajratib koʻrsatilgan oʻzbeklar, tojiklar va ruslar qoʻllaydigan iboralar mazmuniga muqobil keladigan iboralarni ishlatmaydilar.

Finlandiyada tuxumlar bizda qabul qilinganidek, oʻntalab emas, ogʻirligi boʻyicha sotiladi; shu sababdan finlarning nutqida “Marhamat qilib menga bir kilogramm tuxum tortib bering” degan gaplar boʻlishi mumkin, bular esa boshqa millat vakillariga gʻalati tuyuladi (garchi ular til munosabati boʻyicha mutlaqo toʻgʻri boʻlsa-da).

Rus boʻlmagan oʻquvchilarning: “Menya vzyali v shkolu (prinyali oʻrniga)”; “Ya prishyol v gorod” (priexal oʻrniga) — rus va ona tillarida soʻz maʼnolarining koʻlamini bilmaslik bilan izohlanadi. Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida prinyali va vzali, prishol va priexal tushunchalari bitta soʻz bilan ifoda qilinadi. Shuning uchun ham oʻrganilayotgan til va ona tili soʻzlari maʼnolarining oʻzaro munosabatlarini va ularning mazmunini tushuntirish usullarini bilish rus boʻlmagan oʻquvchilar tomonidan rus tilini egallashda muhimdir.

Soʻzning maʼnosini tushuntirish usullarini tanlashda, bir tomondan, uning muayyan til leksik tizimidagi lingvistik tabiati (maʼno xarakteri - erkin yoki bogʻlangan, toʻgʻri yoki koʻchma; qaysi soʻz turkumiga tegishli, aniq yoki mavhum, yasama yoki yasalmagan, bir maʼnoli yoki koʻp maʼnoli, soʻzning semantik (maʼnoviy) guruhleri. yaʼni tematik, leksik-semantik, sinonimik, antonimik guruhlarga kirishi, grammatik shakllarni hosil qilishda oʻziga xos xususiyatlarga egaligi) hisobga olinadi. Boshqa tomondan, ruscha soʻzning ona tilidagi uning ekvivalenti bilan munosabati

(ma'nolarning to'g'ri kelishi — to'g'ri kelmasligi, leksik birika olishning mosligi — mos emasligi) hisobga olinadi. So'zlarni semantizatsiyalashning (ma'nosini tushuntirishning) quyidagi usullari ma'lum:

Ko'rgazmali usul — so'zlarning ma'nolarini ular ifodalayotgan predmetlarni va harakatlarni yoki tasvirlarini (rasmlarni, chizmalarni, kartinalarni) ko'rsatish yo'li bilan tushuntirish. Bu usulning afzalligi shundaki, u talabalarning ongida so'z haqida yorqin tasavvur uyg'otadi, bu uning eslab qolinishiga ko'maklashadi; bundan tashqari, o'rganilayotgan til so'zi bilan va uning tushunchasi o'rtasida ona tilining ishtirokisiz bevosita aloqa o'rnatiladi. Biroq bu usul faqat uncha ko'p bo'lmagan (cheklangan) so'zlar doirasigagina ko'rish orqali idrok qilish mumkin bo'lgan konkret leksikaga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Tarjima — bu so'zlarning ma'nosini ona tili vositalari yordamida tushuntirish. U vaqt jihatidan tejamli, chet tillaridagi so'zlarni ona tili yoki rus tilidagi so'zlarga mosligini belgilab, talabalarga ilgaridan ma'lum bo'lgan so'zlarga tayanadi. Chet tili yoki ruscha so'z ona tilidagi so'zga ma'no jihatdan aynan bir xil bo'lsagina tarjima so'zning ma'nosi haqida aniq tasavvur bera oladi. Biroq tarjima mos kelmaydigan ma'nolar ko'lam bilan tarjima so'zlarni to'g'ri tushunishni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun uni semantizatsiyalashning boshqa usullari bilan birga qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Tarjimasiz semantizatsiya — so'zlarning ma'nosini ona tili vositalari bilan tushuntirish. Tarjimasiz semantizatsiyaning quyidagi usullari ajralib turadi:

So'zlarni izohlash yoki semantik ta'rif berish va ifodalash. Bu ma'noni ochib berishning izohli lug'atlarda qabul qilingan asosiy usuli. Tilda so'zni semantik ta'riflashning bir necha konkret usullari ishlatiladi:

So'zga taalluqli bo'lgan ancha keng tushunchalarni va uning boshqa so'zlardan ajralib turadigan belgilarini ko'rsatish orqali ta'riflash (ifodalash). Masalan: alleya — ikki tomoniga daraxtlar o'tqazilgan yo'l; bulvar — shahar ko'chasidagi, odatda uning o'rtasidagi keng alleya.



Tasviriy usul: soʻzning maʼnosini oʻsha soʻz qamrab olgan barcha tushunchalar bilan tushuntirish. Masalan: naturalist - tabiatni oʻrganish bilan shugʻullanuvchi kishi, tabiat hodisalarini tekshiruvchi, tadqiq qiluvchi olim; tabiat fanlari mutaxassisi; tabiatshunos.

Sinonimlar yordamida ifodalash (aniqlash). Masalan: rubej (chegara, hudud). Sinonimlar bir-biridan maʼno nozikliklari bilan ajralib turganliklari sababli, soʻzni ifodalash uchun koʻpincha bir necha sinonimlar qoʻllanilib, ular bir-birini aniqlab va toʻldirib, uning toʻliq, mukammal izohini beradi. Masalan: otvaga – jasorat, jurʼat, jasurlik, botirlik, mardlik, dovyuraklik; tvorit – (1) yaratmoq, ijod qilmoq, bunyod etmoq; (2) qilmoq, amalga oshirmoq, ishlamoq, yasamoq, koʻrsatmoq.

Sinonimlar eskirgan, shuningdek oʻzlashtirilgan soʻzlarni tushuntirish uchun juda keng koʻlamda ishlatiladi. Qiyoslang: chelo- lob-peshana, manglay; charodey – volshebnik – sehgarg, jodugar, afsungar; sehrchi, afsunchi; koʻchma maʼnoda: dilrabo, dilbar; fusunkor, maftunkor; argument - dokazatelstvo – dalil, asos; allegoriya – inoskazanie – kinoya, qochirim, majoz.

Koʻpincha sinonimik usul tasviriy usul bilan qoʻshilib ketadi, bu soʻz taʼrifini yanada aniq va mazmunli qiladi. Masalan, rodnik - vodniy istochnik, tekuhiy iz-pod zemli; kluch – buloq, chashma, yer ostidan chiquvchi suv manbai; mchatsa – ochen bistro yexat, nestis – yelmoq, eldek uchmoq, yeldek uchib (tez) bormoq.

Antonimlar yordamida ifodalash (aniqlash): iskusstvenniy – ne prirodniʼy, sdelanniʼy napodobie podlinnogo – sunʼiy, tabiiy emas, haqiqiyga oʻxshab qilingan. Bu yerda soʻz taʼrifida ne inkor yuklamali antonim ishtirok etayapti.

Sanab oʻtish usuli. Soʻzning maʼnosi u ifodalaydigan tushunchalarni sanab oʻtish yoʻli bilan ochib beriladi. Masalan, roditeli – ota-ona. Lugʼatlarda bu usul odatda tasviriy usul bilan qoʻshilib ketadi. Masalan: morfema – soʻzning maʼnoli qismi - (oʻzak, prefiks, suffiks).

Semantik ifodalash usuli soʻzning maʼnosi haqida aniq tasavvur beradi. U fikrning faol ishi – soʻzlarni umumiy maʼno ostiga jamlash, ularning farq qiluvchi belgilarini ajratib koʻrsatish, boshqa soʻzlar bilan maʼnoviy aloqalarini aniqlash bilan bogʻliq.

Shuning uchun semantik ta'riflash usulining roli talabalarning mantiqiy fikrlashlarini va nutqiz qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli muhimdir.

So'zlarning ma'nolarini rus tili vositalari yordamida izohlashning ikkinchi usuli — bu so'z yasovchilik aloqalari orqali semantizatsiyalashdir. Bu usul hosila so'zlarning: sifatlardan va fe'llardan yasalgan (botir - botirlik, tadqiq qilmoq — tadqiqot) so'zlarning, ot va fe'llardan hosil qilingan, shaxs ma'nosini ifodalovchi (g'isht — g'isht teruvchi, qurmoq — quruvchi) so'zlarning, otlardan hosil qilingan nisbiy sifatlilar (metall - metallardan qilingan) ning ma'nolarini tushuntirish uchun keng qo'llaniladi. Mazkur so'zlarning ma'nolari ularning yasaluvchi o'zaklari va so'z yasovchi affikslarning ma'nolari orqali ochiladi.

Bu usulga shuningdek o'zakdosh so'zlar bilan izohlash (vidniy — ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan, ko'rinarli), tarkibidagi morfemalar tahlili (so-besed-nik - hamsuhbat, suhbatda ishtirok etuvchi kishi), elementlarni etimologik tahlilga tortish (avtobiografiya - avto — o'zim, bio - hayot, grafo — yozayman; hayot tasviri, kimningdir hayoti yoki o'zimning hayotim haqidagi hikoya).

Uchinchi usul so'zlarning ma'nosini rus tili vositalari orqali tushuntirish — kontekstual uslub. Bu uslub ko'p ma'noli so'zlarni tushuntirishda ancha qo'l keladi, chunki ularning har xil ma'nolari faqat kontekstdagina ro'yobga chiqadi. Kontekst minimal — so'z birikmasi shaklida bo'lishi mumkin. Masalan: Zapis- yozuv, qayd, xotira (1) Tetrad s zapisyami — xotira daftari, vesti zapis — yozmoq. (2) Magnitofonnaya zapis — magnitofon yozuvi; sdelat, proslushat zapis — yozib olmoq, lentaga yozilganni tinglamoq. (3) Zapis na priyom k vrachu — vrach qabuliga yozilish.

Zavernut, zavorachivat — o'ramoq, o'rab qo'ymoq, buramoq, shimarmoq: (1) Zavernut knigi — kitobni o'rab qo'ymoq, zavernut v bumagu — qog'ozga o'ramoq. (2) Zavernut kran — kranni buramoq. (3) Zavernut rukava — eng shimarmoq.

Bu usul til fahmini (idrokini) rivojlantiradi, so'zning ma'nosini o'zlashtirishni va ularni nutqda ishlatish ko'nikmasini maksimal darajada yaqinlashtiradi, biroq ma'noni aniq tushunishni kafolatlamaydi. Semantizatsiyaning boshqa usullari bilan o'zaro

aloqa zaruriyati ana shundan kelib chiqadi. Kontekst bo'yicha ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosi haqidagi taxmin har bir ma'noni ona tiliga tarjima qilish, sinonimlarni, antonimlarni va mazmun jihatdan yaqin bo'lgan boshqa so'z hamda so'z birikmalarini tanlash orqali tekshirilishi mumkin (zavernut knigi — razvernuto; zavernut k tovarihu — zayti nenadolgo; zavernut kran — povernuto; zavernut rukava — zasuchit).

Keltirilgan so'zlar semantizatsiyasi usullaridan birortasi ham hammabop usul sifatida tanlanishi mumkin emas. O'z ustunliklari va kamchiliklariga ega bo'lgan bu usullar asosan turli so'zlarga nisbatan qo'llaniladi, ammo tilga o'rgatish jarayonida ular odatda, bir-birini to'ldirib va bir-birini aniqlab, kompleks holda qo'llaniladi.

Semantizatsiyaning eng yaxshi usuli kam kuch sarflagan holda so'z ma'nosini aniq va ravshan tushunishga ko'maklashadigan va ona tili interferentsiyasini chetlab o'tishga ko'maklashadigan usuldir. Semantizatsiyaning turli usullarini qo'llash, shuningdek rus va ona tillari leksikasini qiyoslash asosida ham ko'rib chiqiladi.

Shu nuqtai nazardan o'rganilayotgan tilda odatda so'zlarning quyidagi turlari ajratiladi:

Ma'no jihatidan mos keluvchi va shakl jihatidan o'xshash so'zlar (tus tilidan yoki rus tili orqali o'zlashtirilgan leksika). Bu so'zlar (avtomat, albom, balkon, vokzal, gorizont)ning ma'nosi tushunarli, ammo har doim ham emas. Masalan, antrakt, korrespondentsiya, galereya, monument, obelisk, egoist, emblema kabi o'zlashtirilgan so'zlarning ma'nolari izoh talab qilishi mumkin.

Ma'no ko'lami jihatidan mos kelmaydigan so'zlar; bu erda ikki xil munosabatni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi turga ruscha so'zning ma'no ko'lami ona tildagi tegishli so'zning ma'no ko'lamidan kengroq bo'lgan so'zlar kiradi. Bu holat sezilarli darajada oson o'zlashtiriladi, chunki bu yerda ona tilining ta'siri mavjud emas. Masalan, rus tilidagi okno — deraza so'zi o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, shuningdek "biror narsadagi teshikni, yoriqni" (okno v bolote — botqoqdagi yutib ketadigan joy) va "band bo'lmagan vaqt oralig'ini" (okno v raspisaniye — dars jadvalidagi bo'shliqni) bildiradi, bular o'zbek tilidagi deraza so'zi uchun xos emas.

Ikkinchi turdagi soʻzlarda ruscha soʻzning koʻlami ona tilidagi soʻzning koʻlamidan tordir. Bu eng qiyin hol, chunki ruscha bir necha soʻzlarga ona tilidagi bitta soʻz toʻgʻri keladi. Masalan, rus tilidagi brat, vzat, poluchit, prinyat soʻzlariga oʻzbek tilida birgina olmoq soʻzi mos keladi. Mana shundan qabul qilishdi deyish oʻrniga “Meni Oʻzbekiston Milliy universitetiga olishdi” xatosi kelib chiqadi.

Keltirilgan misollar har bir til borliqini oʻzicha boʻlaklarga ajratib tashlaydi va har bir tilga oʻz maʼnolar tizimi xos, degan hammaga maʼlum boʻlgan holatni tasdiqlaydi.

Ikkinchi tur (maʼnosi koʻlami jihatidan mos kelmaydigan) soʻzlarni semantizatsiyalashning eng zoʻr usuli — bu ularning maʼnosini koʻp maʼnoli soʻzning har bir maʼnosini tipik birliklarida keltirish orqali rus tili vositalarida semantik tasvirlashdir. Masalan: Metkiy - (1) moʻljalga bexato otadigan (uradigan, tushiradigan, tekkizadigan); poylogʻich, mergan. Mergan otuvchi, mergan. Bexato zarba; (2) aniq, oʻrinli, juda bop. Juda bop soʻz. Oʻrinli muqoyasa.

Soʻzlarning maʼnosini oʻzlashtirish jarayonida izohli va ikki tilli lugʻatlardan foydalanish mumkin.

### 3.2. Nominatsiya usullari va soʻzning ichki shakli

Olamning lisoniy manzarasi - bu har bir kishining olamiga til prizmasi orqali yoʻnaltirilgan nigohidir. Bu odatda “til shuuri” tushunchasini anglatadi. “Til shuuri” tushunchasi “maʼlum kishilar jamoasining psixik oʻziga xosligini belgilovchi va mazkur tilning oʻziga xos jihatlarida aks etuvchi madaniy va ijtimoiy hayoti”, deb taʼriflaydi O.S.Axmanova.

Oʻrganilayotgan tilni egallash olamning lisoniy manzarasini oʻzlashtirishni, bu til sohiblarining til shuurini oʻzlashtirishni nazarda tutadi. Modomiki, soʻz tildan tashqari realiyalarning obrazi va belgisi sifatida chiqar ekan, til lisoniy manzarasining milliy oʻziga xosligi mazkur tilning nominatsiya usullaridayoq namoyon boʻladi: u yoki bu xalq atalgan predmetda nimani koʻrdi, qaysi alomatlariga koʻra uni nomladi, leksikaning qanday obrazli-simvolik imkoniyatini qoʻlladi.

Masalan, rus tilidagi erta bahorda unib chiqadigan, bahor faslining darakhchisi bo'lgan gulning nomi podsnejni kni nemis tilidagi snejniy kolokolchik, fransuz tilidagi snejnaya strela, boshqird va tatar tillaridagi umi`rzaya, o'zbek tilidagi boychechak bilan qiyoslang.

Ruslar gulni qor tagidan erta chiqishiga e'tiborni qaratsalar, nemislar va frantsuzlar esa qor bilan aloqani saqlab qolib, e'tiborni gulning shakliga va tez o'sishiga qaratganlar. Tatar va boshqird tillaridagi umi`rzaya so'zining etimologiyasi noaniq, ammo unda bu gulning qisqa taqdiriga (umri zoe ketganligiga) ishora sezilib turadi.

Uni nomlashda predmetga nazar so'zning ichki shaklida o'z ifodasini topadi. Masalan, rus tilidagi shipovnik, podsolnechnik o'simliklarining nomlari ravshan. O'zbek tilida mos ravishda namatak (gul-meva), kungaboqar (kunga - nurga qarab turadigan).

Ba'zan so'zning ichki shakli uni etimologik tahlil qilgandagina tushuniladi. Masalan: beryza — bher (“yorug‘, tiniq”) so‘zidan, oq kabi bitta o‘zakdan, suffiks yordamida yasalgan; Beryoza so‘zma-so‘z — “oq po‘stloqli daraxt”. Doroga — dor — “tozalangan joy”, d‘rati — “drat — shilmoq, tozalamoq, dergat — sug‘urib tashlamoq, yulmoq, torit — yo‘l solmoq” kabi o‘zakdan suffiks yordamida yasalgan umumslavan hosila so‘z. (qarang: Shanskiy, Bobrova 1997).

Har qanday tilning leksikasida ushbu til sohiblari olamining ijtimoiy-siyosiy va milliy-madaniy umumbashariy (universal) va milliy o‘ziga xos komponentni ajratish mumkin

Borliqni konseptualizatsiyalash usullari o‘rab turgan borliq predmetlarni turlicha nominatsiyalash (nomlash) usullariga olib keladi. Masalan, turkiy tillarida ona va ota tushunchasi uchun umumiy so‘z yo‘q (qiyoslang: ruscha roditeli), rus tilida brat va sestra degan umumiy tushuncha mavjud. Turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida, bu so‘zlarning ma‘nosiga “mladshiy” — “starshiy”, “mladshaya” — “starshaya” degan tushunchalar qo‘shiladi: aka-uka; opa-singil kabilar. Rus tilida bu so‘zlar so‘z birikmalari orqali ifoda qilinadi: mladshiy — starshiy brat, mladshaya — starshaya sestra.

Olamning konseptual manzarasida yetishmaydigan “bo‘sh” joylar lakunalar (lotincha — o‘pirilgan joy, chuqurcha, kamgak;

filologik ma'nosi — bo'sh qolgan joy, oraliq, tushib qolgan joy, matndagi etishmaydigan joy) ham mavjud. Lakunalar muloqotda va matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

### **3.3. So'z badiiy obrazlar va timsollarning milliy o'ziga xos asosi sifatida**

Olamning lisoniy manzarasida kalit so'zlar boshqacha qilib aytganda, milliy madaniyatning muhim elementlarini ifodalovchi so'zlar-konseptlar alohida o'rin egallaydi. Kalit so'z badiiy obrazning o'zagi bo'lib, matnda belgining, madaniyat konseptining vazifasini bajaradi.

Xalqning urf-odatları, xarakteri, turmush tarzi, mamlakatning geografiyasi, iqlimi, boshqacha aytganda, keng ma'nodagi madaniyat so'ziga, ona tilining kalit so'zlariga tayanib, shoirlar va yozuvchilar metaforalarni, yorqin badiiy obrazlarni yaratadilar, ularning ko'pchiligi universal hisoblanadi. Bu obrazlar xalqqa qaytadi, uning til shuurini boyitadi, uning ma'naviyatini boyitishga ichki turtki beradi.

Metaforalarni tasniflash juda qadimdan filologlarni, tarixchilarni, madaniyatshunoslarni o'ziga jalb qilgan, chunki tilda uzual (umum qabul qilingan) bo'lib qolgan metaforalar majmui u yoki bu davrda xalqda qanday qiziqishlar ustunlik qilgan, madaniyat asosiga uning u yoki bu taraqqiyoti bosqichida qanday ideallar qo'yilgan, til sohiblarining asosiy e'tiborining predmeti nima bo'lganligini ochib berishga ko'maklashadi.

Nominatsiyaning kulturologik aspektlarini o'rganishda obrazli semantikasi so'zlar, xususan emotiv-baholash nomlari boy va qiziqarli material beradi. Misol uchun, emotiv-baholash so'zlari tizimida ma'rifat va jaholat obrazlari birinchi o'rinni egallaydi. Ma'rifatni jaholatga qarama-qarshi qo'yish universal xarakterga ega va umumiy ko'rinishda bir-biri bilan uzviy bog'liq bir qator oppozitsiyalarni mujassamlashtiradi: yaxshilik va yomonlik, ilohiy (yaratuvchilik) va ins-jins (yemiruvchi) kuch, aql va aqlsizlik,

jasorat va jur'atsizlik (ong va ongsizlik). Bu koinotni o'zining barcha boshlanishlarini o'zaro birgaligi bilan ko'rish imkonini beradi. Ma'rifat va jaholat obrazlariga hayot va o'lim obrazlari mantiqan bo'ysundirilgan bo'lib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish turli xalqlar madaniyatlarida eng muhim hisoblanadi.

T.D. Gachevning fikricha, olamning milliy obrazi quyidagilarni o'z ichiga oladi: milliy makon, turmush, til; milliy xarakter, milliy qalb; tafakkurning milliy xususiyati, olamni idrok qilish usuli, turmushga nazar, qadriyatlar ketma-ketligi. Har bir davr esa o'z obrazlarini keltirib chiqaradi.

Badiiy obraz eng muhim estetik kategoriya sifatida borliqni idrok qilishning alohida uslubi, uni alohida his etishning natijasidir va shuning uchun ham ma'lum madaniyatning elementi sifatida qaralishi mumkin.

Badiiy obrazni yaratar ekan, muallif ijtimoiy va shaxsiy tajribaga, poetik an'anaga, til vositalarining ekspressiv-ifodali imkoniyatlariga va eng avvalo, so'zning potensial imkoniyatlariga tayanadi. Poetik so'z o'zi bilan xalqning ijtimoiy tajribasiga bog'liq bo'lgan ruhiy va emotsional assotsiatsiyalarni faollashtiradi. Ifodalayotgan tushunchasining hajmini kengaytirib, so'z yoki so'z birikmasi poetik nutqda ko'pincha timsollik mazmunini qo'lga kiritadi.

Timsoliy ibtido (boshlanish) so'zning tabiatiga joylangan va timsol odatda mavhum (vaqt, hayot, sevgi, o'lim kabi) tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilishiga qaramasdan, u konkret-predmetli ma'noli so'z asosida qurilgan. Masalan, kalina (bodrezak) so'zlari rus millati vakillari uchun vatanning ruscha an'anaviy timsoli hisoblanadi.

So'zlarning timsoliy-emotsional doirasi mavjud: dur — ko'z yoshlari, qora — qayg'u, g'am, olov-ehtiros, baxtiyor — quvonchli, qag'illamoq — baloni chaqirmoq. Yu.N. Karaulovning fikricha, "Qandaydir juda teran, keng ko'lamlı, aslida cheklanmagan tarzda kengaytiriladigan mazmunga ega bo'lgan so'zlar" timsollar bo'lishi mumkin. (Karaulov 1987: 203).

So'zlarning timsoliy ma'nosi turli madaniyatlarda mos kelmasligi mumkin. Masalan, chorni'y — qora so'zi ko'pgina madaniyatlarda motam

yoki qandaydir og'ir ahvolning timsoli hisoblanadi (qora kunlar, g'am-g'ussali o'ylar). Afrika xalqlari madaniyatlarida bu so'zning konnotatsiyasi butunlay o'zgachadir. "Men qoraman!" degan gapni Otello albatta, salbiy ohangda emas, balki faxr bilan talaffuz qiladi.

Turli xalqlarning qo'shiqlari timsoli ham turlicha: masalan, ruscha qo'shiqlarda barvasta yigitning timsoli — lochin, kabutar, eman, qulmoq; qizning timsoli — oqqush, kabutar, o'rdak, qayin, kalina, malina. So'ligan gullar o'tib ketgan sevgini, xiralashgan uzuk — seviklining xiyonatini, yonib tugayotgan payraxa — so'nayotgan umidni timsollaydi.

O'zbekcha qo'shiqlarda yigit timsoli — burgut va lochin, qizning timsoli — gul; oqayotgan daryo, shamol yoki boychechak — o'tib ketayotgan umr timsoli; kakku — yolg'izlik timsoli; tuman va qamish — sog'inish, qayg'u timsolidir.

### 3.4. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar

So'zlarda milliy-madaniy komponent turlicha berilgan. Madaniy boy mazmunga ega bo'lganligi darajasiga ko'ra quyidagi so'z guruhlari farqlanadi:

Realialar — real borliq darajasi. Tili o'rganilayotgan xalq madaniyatida u yoki bu realianing, o'ziga xos so'zning, predmetning mavjud emasligi shunga olib keladiki, so'zning barcha semantik tuzilishi, uning asosiy mazmuni va leksik asosini qo'shib hisoblaganda madaniy o'ziga xos bo'lib qoladi. Masalan, chastushki, kvas, okroshka kabi ruscha, do'ppi, belbog', kuloh, paranji kabi o'zbekcha so'z va tushunchalarni qiyoslab ko'ring.

So'zning semantik mazmuni. Bu erda borliqning aynan bitta hodisasini ifodalovchi ma'no va so'zlarning mos kelmasligi kuzatiladi. Misol uchun, ingliz tilida "sutka", "qaynatilgan (dog') suv", fransuz tilida — "tengdosh, tengqur" degan tushunchalar mavjud emas.

Ko'rsatilgan bu guruhga yana mazkur xalqning olamni his etishning o'ziga xos lisoniy manzarasini aks ettiruvchi so'zlar va tushunchalar ham kiradi. Misol uchun shimolda yashovchi xalqlarda qor juda ko'p nomlarga ega bo'lib, bu mazkur xalqlar hayotining



tabiat sharoitlari bilan uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi. Barcha tillarda mavjud bo'lgan uy, shahar, qishloq so'zlari har bir mamlakatda o'ziga xos mazmun kashf etadi. Masalan, uy obrazi ruslarda yoki o'zbeklarda fransuz, ispan, nemis, amerikalik yoki afrikaliklarning tasavvuridan jiddiy farq qiladi.

Tag asosli (fon) leksika — leksik ma'nosiga ko'ra o'xshash, ammo leksik foni jihatidan farq qiluvchi, ya'ni borliq haqida qo'shimcha bilimlar mazmuniga, asosiy ma'noga qo'shilgan, shu tilda gapiruvchilarga ma'lum bo'lgan stilistik va semantik ma'noli so'zlardir.

Madaniy-konnotativ leksika - bu guruhga kiruvchi so'zlarda milliy bo'yoq, nozik ma'no ular semantik ma'nosining predmetli-mantiqiy qismida emas, aksincha, qo'shimcha, odatda emotsional-ekspressiv ma'lumotda namoyon bo'ladi. Misol uchun rus madaniyatida Vatanni — qayin, yapon madaniyatida — sakura, boshqa madaniyatlarda: kedr, kiparis (sarv), palma so'zlari orqali timsollaydi, simvol sifatida ta'riflashadi.

Bo'rttirilgan madaniy bo'yoqli, nozik ma'noli so'zlar qatoriga adolat va haqiqat, burch va majburiyat, ozodlik va erkinlik, ezgulik va yaxshilik kabi falsafiy tushunchalar kiradi. Bu tushunchalarning hamma uchun umumiyligiga qaramasdan har bir xalq ularga o'z nuqtai nazaridan yondashadi.

Olamning ruscha lisoniy manzarasida dusha — qalb, inson jonzodining eng muhim qismi bilan bog'liq (na dushe spokoyno, rabotat s dushoy, dushi ne chayat v kom-nibud) so'z va iboralar, toska — sog'inish va udal — botirlik kabi "rus qalbining holati va kechinmalarini aks ettiruvchi" hamda boshqa tillarga qiyin tarjima qilinuvchi noyob ruscha konseptlar muhim rol o'ynaydi.

Madaniy-konnotativ leksik guruhiga, shuningdek milliy xarakterni ifodalaydigan "mayda so'zlar" ham kirishi mumkin: avos (voqeaga umid), zaodno (biror narsani yo'l-yo'lakay bajarmoq). Bu guruhga nutq odobi normalariga kiruvchi so'zlar: rahmat, kechirasiz, salom, marhamat kabi aniq ichki shaklga ega bo'lgan so'zlar: xudo saqlasin, xudoning o'zi asrasin, sog' bo'ling, marhamat qiling singarilar ham kiradi.

Toponimlar — geografik nomlar yorqin madaniy ma'noga egadirlar. Masalan, Moskva — faqatgina poytaxtning nomi emas, u

bilan Rossiyaning alohida tarixi va madaniyati obrazi-timsoli bog'lanadi. Quyidagi misralarni eslaymiz: "Moskva! Bu sadoda rus qalbi uchun qanchalik ko'p narsa qo'shib ketgan, unda qanchalik ko'p tuyg'ular uyg'otilgan!" Biz bunga qo'shimcha qilishimiz mumkin: faqat rus qalbi uchun emas, balki butun rossiyaliklar qalbi uchun.

Volga amerikalik uchun rus kishisiga bo'lgani kabi ruscha qo'shiqlarda madh etilgan va Stepan Razinning hur jamoasi bilan bog'langan daryo — Volga emas. Ayni paytda Missisipi amerikalik uchun ko'p sonli assotsiatsiyalar bilan bog'liq, negrlarning bluz (negrlarga xos 6raqs va uning musiqasi)larida madh etilgan so'zlardir; rus kishisi uchun Missisipining nomi timsoliy ma'noni anglatmaydi, uning qalbiga hech qanday qo'shimcha ta'sir qilmaydi.

Rossiyaliklar uchun geografik nomlar: Sibir, Saxalin, Kamchatka, Ural, Kavkaz tog'lari, Qora dengiz, Baykal, Enisey va boshqalar alohida ahamiyatga ega bo'lsa, o'zbeklar uchun Farg'ona vodiysi, Amudaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi, Mirzacho'l, Oyqor tog'lari juda katta madaniy ahamiyat kasb etadi.

Endi biz milliy-madaniy komponentli ma'noga ega bo'lgan asosiy so'z guruhlarini tasvirlaymiz.

**Muqobilsiz leksika.** Har bir tilda boshqa tillarda aniq tarjimasi bo'lmagan yetarli darajadagi so'zlar miqdori mavjud. Bu ikkita madaniyatni bir-biriga solishtirish paytida aniqlanadigan ekvivalentsiz (muqobilsiz) deb ataluvchi leksikadir. U asosan mazkur milliy madaniyatning o'ziga xos hodisalarini ifodalaydi.

O'zlashtirish chog'ida ekvivalentsiz so'zlarni ekzotizmlar deb atashadi; ular nafaqat begona madaniyatni ifodalab, ularning komponentlarini tashkil qiladi va izohlab beradi, balki uni timsollashtiradi. Misol uchun, spiker, shilling so'zlari Angliya madaniyati bilan, yaylov, qishloq, ariq - O'rta Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiluvchi xalqlar madaniyati bilan mustahkam bog'lanib ketadi; sakura, ikebana — yapon madaniyatining belgilari; baz, kuren, maydan — Don kazaklari turmushi so'zlaridir va hokazo.

Ilgari aytilganidek, odatda ekvivalentsiz leksika deganda qiyoslanayotgan tillarning bittasida ularning sohiblari ijtimoiy

amaliyotida tegishli realiyalarning (predmetlarning, hodisalarning) yo'qligi sababli yoki tegishli tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning mavjud emasligi sababli lug'aviy ekvivalenti bo'lmagan leksik birliklar tushuniladi.

Odatda ekvivalentsiz leksikaning quyidagi guruhlari farqlanadi:

Rus madaniyati realiyalarini bildiruvchi so'zlar: sovetizmlar (raysovet, kolxoz, sovxoz, pyatiletka, udarnik, agitpunkt va h.k.), yangi turmush so'zlari (xudojestvennaya samodeyatelnost, profilaktoriy, klub, subbotnik, pioner, komsomolets).

An'anaviy turmush hodisalari va predmetlari (rassolnik, okroshka, bublik, baranka; sorochka, perednik, valenki, varejki; gorodki, jmurki, xorovod, chastushka; balalayka, garmon; podvoda, popona).

Istorizmlar (arshin, versta, pud, funt; kaftan, armyak; volost, uezd).

Frazeologik birliklar komponentlarini tashkil qiluvchi leksika (Ni zgi ne vidno. Popast vprosak. Uznat vsu podnogotnuyu).

Folklor so'zlari (sujeno'y, Snegurochka, Baba-Yaga, domovoy, leshiy va h.k.).

Mamlakatimiz xalqlari tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar (tyubetyka, xalat, papaxa, kubanka, piala, saksaul, parubok, getman, chadra, kalo'm va h.k.).

Rus tilini o'rganuvchi chet elliklar uchun yuqorida keltirilgan so'zlar esa go'yo ikki karra ekvivalentsiz hisoblanadi (qarang: Vereshchagin, Kostomarov 1990: 46-50).

Ekvivalentsizlik lakunalar deb ataluvchi, ya'ni u yoki bu tilning lisoniy manzarasida yo'q bo'lgan, tushirib qoldirilgan tushunchalar bilan tasavvurona bog'langan. Turli ekstralingvistik omillar bilan bog'langan lakunalarning quyidagi turlari ajratiladi:

sub'yektiv, yoki milliy-psixologik lakunalar (muloqot ishtirokchilarining milliy-psixologik xususiyatlari);

faoliyat-kommunikativ lakunalar (qiyoslanayotgan ikkita madaniyatga xos bo'lgan faoliyatning xilma-xil turlarining o'ziga xosligi);

"madaniy makon lakunolari (kommunikantlar mavjud bo'lgan "madaniy makonlarning" mos kelmasligi);

“matn lakunalari” (madaniyatlararo munosabat instrumenti vazifasini bajaruvchi matnning til (nutq) xususiyatlari) (Antipov, Donskix 1983: 184).

Ilgari aytib o‘tilganidek, boshqa madaniyatda tegishli predmetning, hodisaning mavjud emasligi bilan bog‘liq ekvivalentsiz so‘zlar realiya deyiladi. Baro‘nya, kamarinskaya, gusli, balalayka, rojok, chastushka, skomorox, Petrushka; pirog, xi, kalach, karavay, xleb, med, kvas; rubl, kopeyka, grivennik, poltinnik kabi rus realiyalari yorqin milliy koloritga ega.

Kishi faoliyati turlarini ifodalovchi realiyalarda boy tarixiy kolorit (paxar, pryaxa, gorodovoy, ataman, burlak, korobeynik, kupets); administrativ-territorial birliklar (guberniya, imenie, volost, uezd); qurol- yarog‘ va aslahalar (shlem, kolchuga, kopyo, mech, hit); ijtimoiy guruhlar (tsar, boyarin, barin, chelyad, dvornya); og‘irlik va uzunlik o‘lchovlari (arshin, versta, sajen, zolotnik, pud, funt) aks etgan va h.k.

Tagasos, qo‘shimcha (fonovaya) leksika. U yoki bu so‘zni o‘zlashtirar ekanmiz, ayni paytda biz olam haqidagi bilimlarimizni kengaytiramiz. Bu bilimlarning saqlovchisi bo‘lib, eng avvalo, so‘zning leksik ma‘nosi, shuningdek uning leksik tagasosi — mazkur so‘z bilan anglatilgan predmet bilan bog‘liq bog‘liq bo‘lgan barcha ma‘lumotlar majmui kelib chiqadi.

Misol uchun, “kitob” so‘zini talaffuz qilib biz uning ma‘nosini aniq tasavvur qilamiz: “muqovalangan qog‘oz varaqlar ko‘rinishidagi bosma matn”. Nemischa Buch, inglizcha book shu ma’noda qo‘llaniladi. Assotsiatsiya bo‘yicha biz kitob bilan bog‘liq so‘zlarni eslashimiz mumkin: kitob nashriyoti, obuna, kitob do‘koni, kitobsevar, bukinist va h.k. Maqol va aforizmlarni eslashimiz mumkin: Emu i knigi v ruki — u bu ishning ustasi. Lubite knigu — istochnik znaniy — Bilimlar manbai kitobni seving.

V.G. Kostomarovning fikricha, aynan “kitob” so‘zining leksik tagasosi bilan yozuvchi, kitobxon, noshir, kutubxona va boshqa so‘zlar tematik jihatdan bog‘langan. Shu tagasosning o‘zi so‘zlarning bog‘lanishini ifodalaydi: kitob yozmoq, o‘qimoq, taqriz (retsenziya) yozmoq, muhokama qilmoq, varaqlamoq, ko‘rmoq.

Turli tillarda bu soʻzning leksik (foni) tagasosi mos keladimi? Oʻz asosida ha. Barcha mamlakatlarda kitobni yozishadi, oʻqishadi, muhokama qilishadi va h.k. Kitoblar ilmiy, badiiy, romanlar, hikoyalar boʻladi.

Ammo “choʻntak kitobi” tushunchasi faqat Angliyada maʼlum. Bizda ular mavjud emas. Garchi kichik oʻlchamli kitoblar bizda ham nashr qilinsa-da, ular boshqacha ataladi. Kitoblar bizda nisbatan arzon, koʻp (ayniqsa darsliklar) tirajda bosilib chiqadi. Buning hammasi kitob obrazining bizda va boshqa madaniyatlarda oʻziga xos xususiyatlarini paydo qiladi.

Leksik maʼnosi jihatidan mos keladigan va shu tufayli boshqa tillarga oson tarjima qilinadigan maktab, kitob, uy kabi soʻzlar oʻzlarining leksik tagasosi bilan farqlanadi. Bunday soʻzlar tilda koʻpchilikni tashkil qiladi. Ilgari taʼkidlanganidek, faqat terminlarga maʼno jihatidan toʻliq mos keladi.

Konnotativ leksika - bu qoʻshimcha, odatda emotsional-ekspressiv yoki timsoliy (lot. son – so, notatio – belgi, alomat, ishora), yaʼni qoʻshimcha maʼnoga ega boʻlgan soʻzlardir. Soʻzlarning bu guruhi yorqin milliy-madaniy oʻziga xoslik bilan ajralib turadi, chunki aynan bitta soʻzning oʻzi turli tillarda turlicha konnotativ va timsoliy maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. V.A. Maslovaning “Lingvokulturologiya” oʻquv qoʻllanmasidan misol keltiramiz:

“Ikkinchi nominatsiyada dastlabki maʼnolarni qayta anglashning har bir xalq uchun oʻziga xos obrazli-assotsiativ mexanizmlari mavjud. Masalan, ruslarda sobaka salbiy koʻrinishlar bilan bir qatorda vafodorlik, sodiqlik, qanoatlilik (kamsuqumlik) assotsiatsiya orqali fikran bogʻlanadi va bu sobachya vernost, sobachya predannost, sobachya jizn va boshqa frazeologizmlarda oʻz ifodasini topgan; qirgʻizlarda it - haqoratli soʻz, maʼnosi jihatidan rus tilidagi choʻchqaga yaqin keladi. Rus tilidagi choʻchqa soʻzi a) razillik, b) koʻrnamaklik, v) tarbiyasizlik ramzi hisoblanadi; inglizlar uchun choʻchqa (pig) ochofatni bildiradi; qirgʻizlar, qozoqlar, oʻzbeklar va boshqa musulmon xalqlar uchun unga diniy mazmun beriladi va buning natijasida choʻchqa qoʻpol haqorat soʻziga aylanadi; vietnam olam manzarasida esa choʻchqa

soʻzi - ahmoqlik ramzidir. Shunday qilib, it, choʻchqa soʻzlari turli xalqlarda turlicha alomatlarni ifoda qiladi, bu narsa bu xalqlar olam manzarasining shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi tafakkur tarzining oʻziga xosligidan, individualligidan dalolat beradi” (Maslova 2001: 54).

Berilgan misollardan koʻrinib turibdiki, har bir til va madaniyat uchun oʻziga xos qoʻshimcha maʼnolarning – konnotatsiyalarning vujudga kelishi xarakterlidir, garchi koʻplab konnotativ qoʻshimcha maʼnolarning mos kelishi kuzatiladi: quyon – qoʻrqoq, tulki – ayyor, xoʻroz – urushqoq, eshak – qaysar va hokazo.

Madaniy konnotatsiyaning mazmuni koʻp hollarda timsoliy oʻqish iboralari komponentlarini shart qilib qoʻyadi. Masalan, frazeologik birliklarda” qon” hayotiy qudratning timsoli sifatida keladi: pit krov – qonini ichmoq, qonini soʻrmoq, qiynamoq, ezmoq, azob bermoq, do posledney kapli krovi - bir tomchi qoni qolguncha, soʻnggi nafasgacha; qon - qarindoshlik timsoli sifatida: rodnaya krov – qarindosh, qon-qarindosh, jigar, krov ot krovi; qon qurbonlik timsoli sifatida: prolit chyu-to krov – birovni oʻldirmoq, birovning qonini toʻkmoq, yarador qilmoq; qon salomatlik timsoli sifatida: krov s molokom – (ikki yuzi) qip-qizil olmadek (anordek); qon kuchli his-hayajon timsoli sifatida: krov brosilas v golovu – qoni qaynab ketdi, joni hiqildogʻiga keldi, krov sto`net – naq yurak chiqib ketay (yorilay) dedi, odamning quti uchadi.

Konnotativ maʼnolar assotsiativ lugʻatlarda oʻz ifodasini topadi.

Assotsiativ tajriba: Assotsiativ eksperiment oʻtkazamiz. Soʻzni ataymiz. Siz uni eshitganingizda esingizga birinchi boʻlib qaysi soʻz keldi? Mana baʼzibir undovchi, yaʼni turtki beruvchi sabablar va javoblar: oq - qor; sigir- sut; maktab - oʻqimoq; ayiq - maymoq va hokazo.

Siz ongingizda aytilgan soʻz bilan bogʻlanadigan bitta soʻzni emas, barcha soʻzlarni keltirishingiz mumkin: sigir sut, qishloq, ona, smetana, pichan, somon, buzoq, sogʻmoq, shoxli va boshqalar.

Barcha aytilgan soʻzlar mazkur soʻz-qoʻzgʻatuvchi(stimul), turtki beruvchi motivlovchi soʻzlarning assotsiativ maydonini tashkil qiladi.

Assotsiativ eksperimentlar, soʻzlar bizning ongimizda bogʻlanmagan holda emas, balki shakli, maʼnosi, ishlab turishi va hokazolar bilan yaqin holda yashashini koʻrsatayapti.

Tavsiya qilinayotgan: suv, yer, quyosh; chaqmoq, momoqaldiroq, yomgʻir, qor; oʻt, gullar, oʻrmon, daraxt; baxt, sevgi, taqdir; quyon, ayiq, tulki va boshqa soʻzlarning biortasi bilan oʻzingiz shunga oʻxshash tajriba oʻtkazib koʻring.

Turli tillardagi assotsiativ eksperimentlarning natijalari olamning lisoniy manzaralarida assotsiatsiyalarning farqlari haqida dalolat beradi.

A.A. Zalevskayaning turli til sohiblarining assotsiativ reaksiyalari farqlarini aniqlagan eksperimental tadqiqotlari natijalari qiziqarlidir. Tahlil uchun ruscha toʻrtta rang bildiruvchi — beliy — oq, jyoltiy — sariq, krasniy — qizil va siniy — koʻk soʻzlarining assotsiativ maydoni va ularning belorus, ukrain, slovak, ingliz, nemis, frantsuz, qozoq, qirgʻiz va oʻzbek tillaridagi mosligi olindi. Olingan maʼlumotlarning tahlili dastlabki (asos qilib olingan) soʻzlarga sinalayotgan turli guruhlarining assotsiativ reaksiyasi turlicha ekanligini koʻrsatdi.

Barcha qiyoslanayotgan guruhlar faqat bitta narsada bir-biriga aynan oʻxshash boʻldilar — koʻk rang osmon bilan oʻzaro munosabatdosh hisoblandi. Sariq rang esa, masalan, ruslarda, beloruslarda va ukrainlarda kuzgi barg obrazini yuzaga keltiradi, momoqaymoq (qoqi oʻt) bilan assotsiatsiyalashadi, nemislarda — limon obrazi sariq kasali bilan assotsiatsiyalashadi, u amerikaliklarda, qozoqlarda va qirgʻizlarda — yogʻ bilan, oʻzbeklarda esa — tariq bilan assotsiatsiyalashadi. Oʻzbeklarda oq rangning etaloni paxta, ruslarga oʻxshab qor, qozoq va qirgʻizlarga oʻxshab sut emas. Tadqiqotchi qiziqarli qonuniyatni taʼkidlaydi: paxta yetishtirilayotgan regionlarda yashaydigan va eksperimentga jalb qilinayotgan ruslar ham uni oq rang bilan bogʻlaydilar. Assotsiatsiyalar bir necha yoʻnalishlar boʻyicha tahlil qilindi. Turli tillarda koʻpmaʼnoli soʻzlarning bitta maʼnosi assotsiatsiyasini aniqlash natijalari qiziqarlidir. Masalan, dastlabki (asos qilib olingan) inglizcha sariq — qoʻrqoq soʻzi oʻz ifodasini amerikaliklar guruhida coward (trus) assotsiatida topdi. Turkiy tillarida sariq rangni ifoda qiluvchi soʻz qozoq,

qirg'iz va o'zbeklarda kishi, bosh ma'nosida qo'llaniladigan malla ma'nosiga ega (sari-adam, sari — kishi, sarik-bash).

Nemislarda blau (ko'k) rang assotsiativ reaksiyani keltirib chiqardi: alkogol, pivo, bu nemischa so'zda og'zaki so'zlashuv nutqiga xos ma'nodagi mast, kayf so'zining mavjudligi bilan izohlanadi.

Verbal (so'z orqali ifodalangan) assotsiatsiyalarning milliy-madaniy o'ziga xosligi turli til sohiblari tomonidan atalgan belgilarni bir-biriga qiyoslashda kuzatiladi. Masalan, fransuzlar, nemislar, polyaklar nordon so'zining ma'nosini limon so'zi bilan assotsiatsiyalashtiradilar, ruslar, beloruslar va ukrainlar uchun bu o'rinda borh ko'proq muhimroq, o'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlar uchun esa — ayron va qimiz. (Yazik i kultura 1995: 130-131).

### 3.5. Frazеologiya milliy-madaniy aspektda

Olamning lisoniy manzarasida yoki insonning til shuurida so'zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatidan barqaror bo'lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud.

U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko'z ilg'amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu erda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, havotir; bu erda insonning to'g'riso'zligi, iroda kuchi, halollik, oliyjanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik — ya'ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu erda o'xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko'plik va ozlik, birlik — kelishmovchilik va kurash; tug'ilish, qarindoshlik, yosh, o'lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg'on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag'allik, xatolar va jazo va shunga o'xshash boshqa juda ko'p tushunchalarning tavsif va tasvirilar mavjud. Ko'rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi.



Frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasi uch qismdan tashkil topadi.

Birinchidan, frazeologizmlar milliy madaniyatni yaxlit, kompleks tarzda, o'zining barcha idiomatik ma'nosi bilan aks ettiradi (qiyoslang: ruscha palchiki oblijes (mazali), o'zbekcha og'zidan so'lagi oqadi va boshqalar.

Ikkinchidan, frazeologizmlar milliy madaniyatni bo'laklarga bo'lib, o'z tarkibida mavjud komponentlari, ya'ni so'zlar orqali ochib beradi. Bu so'zlarning ayrimlari ekvivalentsiz so'zlar qatoriga taalluqli bo'lishi ham mumkin. Masalan, rus tilida xodit fertom frazeologizmi mavjud va uning ma'nosi "ikki qo'lini beliga tirab (f harfiga o'xshab yurmoq), o'zini manman tutmoq, g'oz yurish qilmoq" (qo'lini beliga tiragan kishini eslatadigan f harfi qadimda shunday deb atalardi), bu frazeologizm tarkibidagi fert komponenti orqali ba'zi kalondimog' rus kishilarining madaniyatiga xos xususiyatni ifodalab kelmoqda.

Shunindek, "arshin proglotil" — xoda yutganday tik, qaqqaygan, "kolomenskaya versta" — daroz odam, novcha, naynov, "terto'y kalach" — pixini yorgan (ko'pni ko'rgan odam), tullak, "lo'ka ne vyajet" — mastligidan gapira olmaydi, tili gapga kelmaydi, gapi qovushmaydi; ichib aljirab qolgan, "semi pyadey vo lbu" — miyasi butun, aqli raso, juda aqli, "lezt na rojon" — o'zini-o'zi baloga qo'ymoq, o'zini o'tga tutmoq, "kosaya sajen v plechax" — elkador barvasta odam kabi frazeologizmlarda arshin, kolomenskaya, versta, kalach, lo'ko, pyad, rojon, sajen so'zlari ekvivalentsiz so'zlar hisoblanib, qadimiy ruscha tushunchalar tarzida qo'llaniladi.

Uchinchidan, frazeologizmlar milliy madaniyatni o'z prototiplari bilan aks ettiradilar, negaki frazeologik birlik bo'lib qolgan erkin so'z birikmalari ma'lum urf-odatlarini, an'analarni, turmush va madaniyatning tafsilotlarini, tarixiy voqealarni va boshqa ko'plab narsa va hodisalarni tasvirlaganlar.

Frazeologizmlarning prototiplari savodxonlik darajasi haqida belgi berishi mumkin: "nachat s azov" — eng boshidan, "alifbosidan" boshlamoq ibtidosidan boshlamoq, "ne znat ni aza" — alifni ham bilmaydi, hech narsani bilmaydi, alifni kaltak deya olmaydi, g'irt savodsiz, "ot doski do doski" — boshidan oxirigacha,

“ot korki do korki” — boshdan oyoq, boshidan oxirigacha, “s krasnoy stroki” — xat boshidan, satr boshidan, abzatsdan va h.k.

Frazeologizmlarning prototiplari bolalar o‘yinlarini ifodalab kelishi mumkin: “igrat v pryatki O‘koshki-mo‘shkio‘v jmurkio‘v biryulki” — bekinmachoqo‘mushuk-sichqono‘bekinmachoqo‘ynamoq,” kucha mala” — bolalar o‘yini va unda aytiladigan ibora, “nashego polku pribo‘lo” — safimiz (qatorimiz) ko‘paydi, biznikilar ham ko‘payib qoldi va boshqalar.

Frazeologik prototiplarning ma‘lum qismi pul tizimini ifodalab kelishi mumkin: “za dlinno‘m rublem” — mo‘may pul ortidan, osonlikcha topiladigan pul izlab, “ni groshao‘ni kopeykig‘ni alto‘na za dushoy” — bir puli (hemirisi ) ham, bir tiyini (sariq chaqasi) ham yo‘q”; grosha lomanogo ne stoit” — bir pulga (bir paqirga) ham arzimaydi;

Ular kasb-hunar haqida ma‘lumot berishi mumkin: “vit verevki” — burnidan ip bog‘lab (o‘z izmiga solib) olmoq, istagan maqomiga o‘ynatmoq, gah desa qo‘lga qo‘nadigan qilib qo‘ymoq, “bit baklushi” — bekor yurmoq, yulduz sanamoq, it sug‘ormoq);

Insonlarning ijtimoiy hayotini ifodalab kelishi mumkin: “zagovarivat zubo‘” — gapni chalg‘itmoq (aylantirmoq), gapni chetga (boshqa yoqqa) burmoq, “vo‘jigat kaleno‘m jelezom” — ildizi bilan quritmoq, yo‘q qilmoq, “do svadbo‘ zajivet” — hech narsa qilmaydi, tuzalib qoladi; to‘ygacha tuzalib qoladi,” Zabrasovat, zakidavat, smatovat udochki” — qarmoq tashlamoq, “podtsepit na udochku” — qo‘yniga qo‘l solib ko‘rmoq, sekingina (ehtiyotlik bilan) sir olmoq dov-dastakni yig‘ishtirib jo‘namoq, juftakni rostlamoq, qochib qolmoq, “vo‘vesti na chistuyu vodu” — sirini fosh qilmoq, kirdikorini (sir-asrorini) ochib tashlamoq, “lovit ro‘bu v mutnoy vode” — alg‘ov-dalg‘ovdan (to‘s-to‘polondan) foydalanib qolmoq, “kak ro‘ba v vode” — suvda yurgan baliqday, yayrab, bemalol, erkin, “zametat sledo‘” — “izlarini yo‘qotmoq,” gonyatsya za dvumya zaytsami” — ikkita quyoning ortidan quvmoq, ikkita kemanding quyrug‘iga oyoq qo‘ymoq;

Ular fitonim komponentli bo‘lishlari mumkin: “s boru da s sosenki” — duch kelgan joydan, u yer-bu yerdan, poyma-poy,

“elki-palki”, — “cherez pen-kolodu” — qilaymi-qilmaymi deb, imillab;” kto v les, kto po drova” — biri bog’dan, biri tog’dan;”kak v temnom lesu” — qop-qorong’i o’rmonga kirib qolganday, hech narsa tushunmay, nima ekanini bilmay, “nalomat drov” — be’mani ishlar qilib qo’ymoq, xatolarga yo’l qo’ymoq;

Shuningdek, hayvonot olami bilan bog’liq frazeologizmlar bo’lishi mumkin: “draznit gusey” — bekorga g’ashini keltirmoq,” kak s gusya voda” — suv yuqtirmaydi, hech narsa (gap) ta’sir qilmaydi, hech pisand qilmaydi, parvoyiga kelmaydi, surbet, beg’am, “kuro’ ne klyuyut” — juda ko’p, achib yotibdi, maymun ham yemaydi, “brat bo’ka za roga” — bo’ysunadigan qilib qo’ymoq, gah desa qo’lga qo’nadigan qilmoq, ipakdek yumshoq qilib olmoq, “ni be ni me” — alifni ham bilmaydi, hech narsani bilmaydi, tushunmaydi, “kak baran na novo’e vorota” — hech ko’rmagandek,” jevat jvachku” — chaynayvermoq, takrorlayvermoq, ezmoq, “kak korove sedlo” — sira yarashmaydi, “volkom vo’t” — dod demoq, bo’riga o’xshab uvillamoq, “medvejiy ugol” — uzoq joy, ovloq, “medved na uxu nastupil” — musiqiy zavqi yo’q (zavqsiz) odam, “delit shkuru neubitogo medvedya” — yo’q kuyovga to’n bichmoq, yo’q narsa yuzasidan janjal qilmoq,”drojat kak zayats” — quyonday titramoq, “gluxaya teterya” — qulog’i tom bitgan, karquloq, kar.

Dehqonning hayoti, uning ishlab chiqarish quroli, uydagi va mehnatdagi burchlari, g’ami va quvonchi juda ko’p frazeologizmlarning prototiplarida berilgan:” ogorod gorodit” — behuda ishga urinmoq, foydasiz (bekorga) ovora bo’lmoq, “brosato’kidat kameshki v (chey-libo) ogorod” — birovga tekkizib gapirmoq,”vojiao’shleya pod xvost popala” — paytavasiga qurt tushdi, “pyatoe koleso v telege” — aravaning beshinchi g’ildiragi, ortiqcha (keraksiz) kimsa (yoki narsa), “vo’bivatsya iz kolei” — izdan (yo’ldan) chiqmoq, chiqib ketmoq, “voyti v koleyu” — izga (yo’lga) tushmoq, “ kak obuxom po golove” — xuddi (qo’qqisdan) boshga musht tushgandek (hayratomuz bir ish) bo’ldi, odam hang-mang bo’lib qoldi, “vbivat klin” — pona qoqmoq, “xot kol na golove teshi” — ming ayt, yuz ayt, bari-bir foydasi yo’q; bez bo’lib turaveradi, pinagini buzmaydi, gap ta’sir qilmaydi, “vilami na vode

pisani” – puch gap, xomxayol, bo‘lishi gumon narsa ,” vo‘nosit sor iz izbi” – uydagi gapni (ixtiloflarni) ko‘chaga olib chiqmoq, oshkor qilmoq.

Kundalik turmushning ayrim tafsilotlari frazeologizmlarda ayniqsa faoldir: “ne lo‘kom shit” – chakana (odam) emas, “ne vsyakoe lo‘ko v stroku” – qildan qiyiq axtarilavermaydi, har narsani aybga qo‘shib bo‘lmaydi, har qanday mayda-chuyda xato aybga sanalavermaydi, “obodrat kak lipku” – bor-yo‘g‘ini shilmoq, ship-shiydon qilib (talab) ketmoq), “pristal kak banno‘y list” – xira pashshadek yopishib oldi, “zadat banyu o‘paru o‘jaru” – adabini (ta‘zirini) bermoq, qattiq koyimoq, qizartirmoq), “zvonit vo vse kolokola” – hamma yoqqa jar solmoq, hamma joyda gap tarqatib yurmoq, “bit trevogu o‘v nabat” – bong urmoq, “smotret so svoey kolokolni” – o‘z mezanasidan qaramoq, o‘z gazi (qarichi) bilan o‘lchamoq va boshqalar.

Frazeologizmlar maqollar bilan uzviy bog‘lanishni namoyon qiladi: maqol haqiqatan ikki qismga, ikkita frazeologizmga bo‘linishi mumkin, ammo u ko‘proq qisqartirilgan shaklda bo‘lishi mumkin: “ne v svoi sani ne sadis” – “saditsya ne v sani” – birovning aravasiga o‘tirma, qo‘lingdan kelmagan ishga urinma, “za dvumya zaytsami pogonishsya ni odnogo ne poymaesh” – ikkita quyon ketidan quvlagan bittasini ham tutolmaydi – “gonyatsya za dvumya zaytsami” – ikkita quyon ortidan quvmoq; “blizok lokot, da ne ukusish” – tirsaging yaqin bo‘lsa ham uni tishlolmaysan – “kusat sebe lokti” – (tirsakni tishlab qolmoq), attang deb (achinib) qolmoq, pushaymon qilmoq, pushaymon bo‘lmoq).

Folklor frazeologizmlarining guruhi nafaqat o‘lkashunoslik, balki estetik nuqtai nazardan juda ham qiziqarlidir. Ularga badiiy adabiyotga borib taqaladigan frazeologizmlar, ya‘ni yozuvchi va adiblarga xos aforizmlarga tutashib ketadi: “ostatsyao‘okazatsya u razbitogo koro‘ta” – bor budi-shudini (bor-yo‘g‘ini) yo‘qotib, eski (asli) holiga qaytmoq (Pushkin), “est ehe porox v poroxovnitsax” – kurashish uchun hali kuch etarli, hali g‘ayrat bor(Gogol), ro‘lise v pushku (puxu) – og‘zi (tumshug‘i) qon (biror nojo‘ya, yomon ishga qotishganligi aftidan bilinib turibdi); zelen vinograd – (Kro‘lov), chelovek v futlyare – g‘ilof bandasi (yangiliklardan qo‘rqadigan, , o‘z

shaxsiy ishlari – tirikchilik bilan o‘ralib qolgan, fikri tor odam) (Chexov) (Verehagin, Kostomarov 1990: 68-71).

Turli tillar frazeologiyasida umumiy jihatlar ko‘p, chunki frazeologiya umuminsoniy tushunchalarni va olamga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Bu o‘xshashlik frazeologik iboralarning shakllanishida ko‘zga tashlanadi. Masalan:” plasat pod chujuyu dudku (rus.)” – keshe kubo‘zo‘na biyu” (plasat pod chujoy kubo‘z, tatar.) o‘zbek:birovning nog‘orasiga o‘ynamoq; ruscha, o‘zbekcha va tatarcha frazeologizmlarni qiyoslang: “navostrit ushi” – kolago‘n torgo‘zo‘u (qulog‘ini ding qilmoq), “lomat golovu” – bash vato‘u (bosh qotirmoq), “zadirat nos” – boron kutereu (burunni ko‘tarmoq).

Ammo har bir tilning ko‘plab frazeologizmlari o‘zining milliy xususiyati bilan ajralib turadi. Bu farq frazeologizm ma‘nosining nozikliklarida, uning milliy obrazligida, leksik tarkibida ko‘rinadi. Masalan, rus tilida tor, tiqilinch tushunchasi “kak seldey v bochke” – tiqilib ketgan, tiqilib yotibdi, g‘ij-g‘ij, “yabloku negde upast” – tangaday ham (bo‘sh) joy yo‘q, igna tashlasang tikka turadi frazeologizmlari orqali ifodalanib, bu ruscha an‘anaviy turmushning elementlarini aks ettiradi. Boshqird va tatar tillarida tor, tiqilinch tushunchasi ayak baso‘ruo‘n yuk (oyoq qo‘yadigan joy yo‘q), ene tortor urin yuk (nina tiqadigan joy yo‘q) frazeologizmlari bilan ifoda qilinadi; aftidan, turmushning an‘anaviy elementlarini (tikish, to‘qish) aks ettiruvchi igna sanchish uchun mo‘ljallangan maxsus yostiqcha ko‘zda tutilgan bo‘lsa kerak.

### 3.6. Matn milliy-madaniy aspektda

Ma‘lumki, turli bosqichdagi til birliklarini tilning va madaniyatning ingegratsiyalashgan birliklari sifatida milliy-madaniy mazmun nuqtai nazaridan o‘rganish lingvomadaniyatshunoslikning predmeti hisoblanadi.

Yuqori tartibdagi kommunikativ til birligi – matnning madaniyat bilan aloqasi shubhasiz alohida isbotni talab qilmaydi. Bu aloqa quyidagi omillar bilan bilan bog‘liq.

Har qanday matn ma‘lum ijtimoiy-madaniy vaziyatning

oqibatidir. Mamlakat, tabiat, xalq, uning tarixi, urf-odatlar, an'analari tuzilayotgan matnlarning mazmunini va konseptual yo'naltirilganligini belgilaydigan kontekst, uning keng fonidir. "Matn o'z holicha umuman mavjud bo'lmaydi. U muqarrar ravishda qandaydir (tarixiy real yoki shartli) kontekstga qo'shiladi" (Lotman 1997: 210-211).

Shunday qilib, matn zamon kontekstida va ma'lum madaniy makonda paydo bo'ladi, ayni paytda kollektiv madaniy xotiraning vazifasini bajaradi; jamiyatning rivojlanish yo'nalishini aks ettiradi; matnning o'zi u yoki bu davrning kontekstiga aylanishi mumkin.

Har qanday matn ortida (xalq ijodiyoti asarlaridan tashqari) muallif – aniq til shaxsi mavjud bo'lib, u o'z davrining samarasi va ayni zamonda til va madaniyatning sohibi hisoblanadi. Shunday qilib, og'zaki va yozma ijodiyotda nafaqat ijtimoiy-madaniy vaziyat, balki madaniy makon, konseptosfera, shaxs yaratgan olamning til manzarasi ham aks etgan bo'ladi. Muallif shaxsi matnda matn orqali aniq ko'rinadi. Ayni paytda muallif shaxsi orqali konseptosfera, kognitiv baza (tayanch konseptlar, bilimlar), turmush tarzi, tarix, an'analar va bu shaxs vakil bo'lgan xalq madaniyati ochiladi hamda qimmatli xarakteristikaga ega bo'ladi.

Har qanday matnda o'zining yagona semantik, madaniy makonida tilning barcha darajadagi birliklari milliy-madaniy o'ziga xos leksika va frazeologiya, milliy obrazlilik va mazmunga ega bo'lgan maqollar va matallar, adabiy obrazlar va ismlar, aforizmga aylanib qolgan asarlardan olingan sitatalar o'ziga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyatlari bilan berilgan

Matn muallifi, ayniqsa badiiy matn muallifi tilga material sifatida murojaat qiladi, unda to'ungacha insonning va umuman olganda xalqning ko'p asrlik bilish faoliyati natijalari bir joyga to'plangan. "Til tuzilishi <...> insonning ob'yektiv borliqdagi aloqalar haqidagi tasavvuridan nusxa oladi, kopya qiladi. Til tuzilishi ulkan ma'nodagi bilish aktining yakunidir. So'z ustasi insonning hayotni anglashga yo'naltirilgan ko'p asrlik faoliyati natijalari to'plangan materialga murojaat qiladi" (Lotman 1997: 207)

• "Shunday qilib, matn madaniyat matosiga til iplari bilan qo'shib o'ralgan. Til matnga o'zining vositalari bilan til shaxsi

ongida til bilan mustahkamlangan olam manzarasi parchalarini kiritadi, ya'ni matn til konteksti bilan keltirib chiqarilgan va uning namunasi (illyustratsiyasi) bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tashqi planda matn mazkur davrning madaniyati rivoji bilan kelib chiqqan va uning g'oyalari aks ettiradi. <...> Yaxlit hosila sifatida u madaniyat bilan o'zini keltirib chiqaruvchi materiya bilan bog'langandir. Bundan tashqari u milliy-madaniy hamjamiyatning til kodi bilan bog'langan bo'lib va u orqali madaniyat bilan millatni anglash sifatida bevosita muvofiqlashtiradi" (Ivanova 2002: 50-51).

Demak, uchta asosiy tushunchaning uzviy aloqasi namoyon bo'lib, ular bilan matn til va madaniyat birligi sifatida o'zaro munosabatda bo'ladi, bular: inson, til, madaniyat.

Inson til va madaniyat sohibi sifatida hamda matnlarning foydalanuvchisi sifatida til va madaniyat o'rtasida bog'lovchi zveno vazifasida namoyon bo'ladi; madaniyat tilda va til madaniyatda, eng avvalo, inson ongida birgalikda mavjud bo'ladi va ular tomonidan tuzilayotgan matnlar orqali boshqa kishilarning mulkiga, boyligiga aylanadi.

Matnga tilning va madaniyatning hodisasi sifatida yondashuv lingvokulturologik tahlilning zaruriyatini shart qilib qo'yadi, uning maqsadini matnning kulturologik maydonini tasvirlash deb ta'riflash mumkin.

Lingvokulturologik tahlil matnni filologik tahlil qilishning bir qismi hisoblanadi va u matnning umumiy belgilarini bilish asosida olib boriladi. Matnning asosiy belgilari I.R. Galperin tomonidan quyidagicha tavsiflangan

Matn ayni paytda lingvistik, psixolingvistik - va sotsiolingvistik hodisa bo'lib, matn eng murakkab, ko'pbosqichli, ko'pfunksional hosiladir.

Matn — bu frazadan katta birlik (mikrotekst) — sintaktik tushuncha va to'liq nutqiy asar (makrotekst) — oliy kommunikativ birlik, jamiyat hayotining turli sohalariga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy-nutqiy asar. : "Tekst kak ob'yekt lingvisticheskogo issledovaniya" (Galperin 1981: 8-86)

Mavjud ta'riflarda matn ikki xil tushuniladi: bu so'zning keng ma'nosida, shaklidan, og'zaki yoki yozmaligidan qat'iy nazar umuman nutq asari va tor ma'noda yozuvda qayd etilgan nutq asari.

• Matn dinamikada uning paydo bo'lishida jarayon sifatida va nutq faoliyati mahsuli sifatida; til birligi va nutq asari sifatida; kommunikativ va lingvistik birlik sifatida; mazmunli, bilishga oid va strukturaviy birlik sifatida qaralishi mumkin. Shunday qilib, matn yagona kommunikativ, kulturologik, informativ-mazmunli, kompozitsion va tili butunligini tashkil etadi.

Matnni ko'rib chiqishning barcha aspektlari ko'pligiga qaramay, unda barcha matnlarga xos bo'lgan umumiy belgilar ajratib turadi: kommunikativ yo'naltirilganlik; muallif g'oyasiga bo'ysundirilganlik; informativlik; tugallanganlik, bo'linuvchanlik; yaxlitlik (matnning ichki mazmuniy birligi) va bog'liqlik (matnning strukturaviy birligi).

• Informativlik — matnning eng muhim kategoriyalaridan biridir, chunki har qanday matn ma'lumotga (informatsiyaga) ega. Matn turli ma'lumotlarning manbai hisoblanadi; mazmuniy-faktual informatsiya farqlanadi: faktlar, voqealar haqida so'zlarning to'g'ri, predmetli-mantiqiy ma'nolari bilan bog'liq so'z orqali ifodalangan xabar; mazmuniy-konseptual informatsiya: kitobxonga tasvirlanayotgan hodisalar o'rtasidagi munosabatlar xabar qilinadi (bu informatsiya badiiy matnlar uchun xarakterlidir); mazmuniy-tagma'no informatsiyasi: so'zlarning assotsiativ va konnotativ ma'nolari bilan bog'liq yashirin informatsiya.

• Bo'linuvchanlik va matnning kompozitsion strukturasi.

Matnning bo'linuvchanligi uning kompozitsion rejasi va mantiqiy tuzilishi bilan bog'liq, u murakkab sintaktik butunlikka, abzatslarga ajraladigan matnni idrok etishni osonlashtiradi. Bu kontekstli-variativ deb atalmish bo'linish bilan bog'liq: matnda muallif nutqini tasvirlash (tabiatni, personajlarni, joylarni), hikoya qilish, mulohaza va begona nutqni ajratib berish: dialog, sitatalar, begona-ko'chirma gap kabilar.

Katta hajmdagi matnlarda hajmiy-pragmatik deb nomlangan bo'linish mavjud (asarning tomlarga, kitoblarga, qismlarga, boblarga, paragraflarga ajratishlar).

Bunday matnlarda kirish, so'zboshi, muqaddima (prolog), "muallifdan"; xulosa, xotima, epiloglar ajralib turadi.



Matnning kompozitsion-mantiqiy bo'linishiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Kompozitsiya matnning qismlarga bo'linishini shart qilib qo'yadi va shu bilan birga uning bog'liqligini, yaxlitligini, ayrim qismlarning birligini ta'minlaydi. Kompozitsiya – bu matn tayanib turgan karkasdir. Unda bevosita matnning mazmuniy va formal elementlari birlashadi, uyg'unlashib ketadi.

• Matnning tugallanganligi va uning sarlavhasi. Matnning eng muhim alomatlaridan biri uning tugallanganligidir: matn o'ziga etarli darajadagi yopiq strukturadir. Matn muallif tomonidan qo'yilgan ma'lum kommunikativ vazifani bajarish uchun yaratiladi va u bu vazifa hal qilingan hamda fikr mukammal ifodasini olganida tugallangan hisoblanadi. Matnning tugallanganlik xususiyati matnning nomi bilan bog'liq. Nom, yoki matn sarlavhasi mavzuni, ba'zan esa asosiy fikrni, matnning g'oyasini ifodalaydi.

Nom (sarlavha) - bu implitsit, maksimal qisqartirilgan, matnda mavjud bo'lgan mazmuniy-konseptual informatsiya, buning ustiga, "barcha qisqatirilganlar kabi u kengayishga, to'g'rilanishga intiladi" (Galperin 1981: 134).

Prospektsiya kuchiga ega bo'lib (sarlavha bo'yicha matnning mazmunini oldindan aytish mumkin), nom kitobxonning e'tiborini matnning mazmuniga yo'laydi; ayni paytda matnni o'qib, kitobxon uning mazmunini anglab olish va uni mazmunga bog'lash uchun ko'p marta nomga murojaat qiladi (retrospektsiya).

Matnning ravonligi (bog'langanligi) va yaxlitligi.

Matn yaxlitlik va bog'langanlik kategoriyalarida ifodalangan yagona mazmuniy butunlikdan iborat. Yaxlitlik va bog'langanlik - bir-biri bilan bog'liq, ammo bir-biriga aynan o'xshash bo'lmagan matnning asosiy belgilaridan.

Bog'langanlik alomati uning muallifining kommunikativ fikri bilan berilmay, matn paydo bo'lish davomida paydo bo'ladi. Bog'langanlik-bu matn komponentlarining: alohida qismlarining, murakkab sintaktik butunlikning, gaplarning, gap tarkibidagi so'zlarning va so'z birikmalarining mazmuniy va leksik-grammatik bog'lanishi (ularning bog'lanishi zanjirli va parallel bo'lishi mumkin). Bog'lanish maxsus vositalar bilan amalga oshiriladi: leksik (so'zlarni takrorlash, sinonimlar),

grammatik (olmoshlar, bog'lovchilar, yuklamalar, so'z tartib), intonatsion (pauzalar, urg'ular) va h.k.

Matnning yaxlitligi esa har doim muallifning g'oyasi bilan beriladi. Agar bog'langanlik — sintagmatik, chiziqli, gorizontal plandagi tushuncha bo'lsa, yaxlitlik esa — paradigmatic, vertikal plandagi tushunchadir.

Matn yaxlitligi qanday hosil qilinadi? Matnni bir butunlikka mustahkamlaydigan omil vazifasida muallifning asosiy kommunikativ maqsadinamoyon bo'ladi. Yaxlitlikning mazmuni muallifning kommunikativ vazifasi birligidan (u nima demoqchi) va nutqiy mulohaza dasturini ierarxik tashkil etishdan iborat bo'lib, matnni o'qiyotgan shaxs matnni idrok qilishda unga tayanadi va uning yordami bilan matnning mazmunini tushuna olishi mumkin. Matnning yaxlitligi asosida uning tematik, ma'noviy, ya'ni semantik birligi yotadi. Yaxlit matn unda qandaydir yagona predmet, hodisa, voqea haqida gap borayotganligi bilan xarakterlanadi.

Matnning yaxlitligi muallifning kommunikativ maqsadini amalga oshirish uchun matn qanday, qaysi ketma-ketlikda kengayib bormoqda kabi mantiqiy-kompozitsion omillarga bog'liq.

Shunday qilib, matnning yaxlitligi matnning kommunikativ, tematik-mazmunli va mantiqiy-kompozitsion, shuningdek, stilistik, intonatsion-ritmik birligidan iborat. Shu bilan birga matn yaxlitligi matn asosida yotgan va uning zamon va makon birligini ifodalaydigan vaziyatning birligiga bog'liq.

Matnning lingvomadaniy tahlili umumfilologik va lingvistik tahlilga tayanib, ayni paytda o'zining shaxsiy maqsadiga ham ega: bu matnning milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. Bu xususiyatlar uning barcha bosqichlarida, ham mazmuniy, ham strukturaviy, ham formal bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Lingvomadaniy tahlilning bosqichlarini qisqacha ta'riflaymiz.

Ilgari aytilganidek, matnni yaxlitlaydigan asosiy omillardan biri matn muallifining niyati, uning kommunikativ (u kitobxonlarga nimani va nima uchun aytmoqchi bo'ldi) maqsadidir. Niyatning o'zi odatda hayotdan yuzaga keladi va yozuvchi jamiyatning ehtiyojini qay darajada sezishidan, mazkur milliy hamjamiya-

tning kayfiyatini va rivojlanish an'analarini payqashidan dalolat beradi. "Aql balosi", "Zamonamiz qahramoni", "Urush va tinchlik", "Otlar va bolalar", "Jinoyat va jazo", "Oltin vodiya shabadalar", "Mehrobdan chayon". "Nur borki, soya bor" kabi badiiy asarlar nomining o'zi ularda ko'tarilgan muammoning dolzarbligidan guvohlik beradi. Matn yaratilgan lingvomadaniy vaziyatning xarakteristikasi, matnni yaratish bilan bog'liq uning mavzusi, muallifning maqsadi, tanlangan muammolar matn lingvomadaniy tahlilining birinchi bosqichini tashkil qiladi

Ikkinchi bosqich — matn mazmuni darajasi. Matnning milliy-madaniy komponentini mazmun bosqichi yoki matnning informatsion makoniga ajratish mumkin. Matnning informatsion makoni mazmuniy-faktual, mazmuniy-konseptual va tubma'no informatsiya bilan tashkil qilinadi: qaysi mavzu materiallari asosida, qaysi voqealar orqali, hayotning qaysi realiyalari va turli konseptlar orqali muallifning maqsadi amalga oshiriladi, ularni tasvirlashning konseptual asosi qanaqa, qanday tubma'no, bu tasvirga qanday ma'no kiritilgan — bularning hammasi maqsadni amalga oshirish dasturini tashkil qiladi va shubhasiz, milliy-madaniy o'ziga xoslikka ega, hattoki tasvirlash materiali sifatida umuminsoniy mavzu: sevgi, ozodlik, sadoqat va boshqalar olingan bo'lsa ham. Muallifning tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga bahosi ushbu milliy-madaniy hamjamiyatning qadriyatli mo'ljallari bilan bog'lanadi.

Uchinchi bosqich — kompozitsiya, matnning tuzilishi. Kulturologik vaziyat matnning tuzilishida ham ishtirok etadi. Misol uchun, rus tilidagi yozma matn mavzusiga "ohista" kirish xarakterlidir, chunki asosiy tezis odatda kirish eslatmalari bilan beriladi, ingliz tilidagi matnlarda esa dastlabki tezis, asosiy fikr bayonning boshida bo'lishi kerak, detallashtirish va argumentlash keyin beriladi. Inglizcha va ruscha matnlar tuzilishidagi bu farqni bilmaslik rusiyazbon talabalarning xayriya fondlar tashkilotlarining dasturlarida ishtirok etish uchun referatlar yozishidagi muvaffaqiyatsizliklar sabablarining biridir (qarang: Ivanova 2002: 57).

Matnni tashkil qilishning texnik tomonlari bir-biriga o'zaro kulturologik jihatdan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ruscha matnlarning kuchli emotsionalligi murojaatdan keyin undov

belgisining qo'yilishida namoyon bo'ladi, inglizcha matnlarda esa bu holda vergul qo'yish bilan cheklanadilar, bolgarcha matnlarda esa murojaatdan keyin va hatto undan oldin ham uchta undov belgisi bo'lishi mumkin; bu bolgar matnining yanada emotsional-ligidan dalolat beradi.

Turtinchi bosqich matnning madaniy-konseptual maydonidir. Matnning madaniy maydoni ko'pqavatli, ko'po'lchamli. U o'z ichiga ko'p narsalarni oladi. Matnning etakchi konsepti tashkil etadigan mufassal g'oya, arximaydon doirasida konseptual mikromaydonlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ularning ayrimlari asosiy maydonning markazini tashkil etadilar. Boshqalari esa uning atrofida turadilar. Matnni assotsiativ lingvokulturologik, semantik, konseptual maydonlarga ajratish metodi orqali tahlil qilish matnni lingvokulturologik tahlil qilishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

Matnni lingvokulturologik tahlil qilishning beshinchi bosqichi --- lingvistik bosqichdir. Muhim birlikning kulturologik mazmuni matnni tilda ifodalash bosqichida ko'p o'lchamda namoyon bo'ladi. Matnning boshqa barcha darajalari, xususan, mazmuniy-konseptual darajalari matnni tilda ifodalashni bevosita kuzatish natijasidagina mumkin bo'la oladi: uning leksik tarkibi (o'zlashtirilgan leksika, milliy-madaniy mazmunga ega komponentli leksika: ekvivalentsiz, konnotativ, fon (tagasos); so'zlarning paradigmatic, sintagmatic va so'z yasash munosabatlari, etimologiya, so'zning ichik shakli, eskirgan so'zlar va neologizmlar va h.k.); frazeologik va maqolli material; o'xshash ismlar (otlar), matnlar, vaziyatlar yoki matnli reministsentsiyalar, ularning qayta qurilgan varianti (bu holda oldindan o'xshash matnni tanish); o'ziga xos grammatik kategoriyalar va strukturalar, ularni tasviriy-ifodali maqsadlarda qo'llash; matn gaplarining sintaktik tuzilishi, frazalararo munosabat vositalari, murakkab sintaktik butunlikni matn tarkibida qurish va ularning aloqasi vositalari; sinonimiya, antonimiya, so'zlarning tematik, so'z yasovchilik munosabatlari — bularning hammasi matnning milliy o'ziga xos til mazmunini tashkil etadi.

Turli madaniyatlar matnlarini "madaniyatlar dialogi" aspektida qiyosiy tahlil qilish darajasi lingvokulturologik tahlilning oltinchi

bosqichi hisoblanadi. Qiyoslash olamning lisoniy darajasida, mazmuni, matnning strukturaviy tuzilishi, lingvokulturologik konseptlar, til va badiiy vositalarning tasviriy-ifodali darajasida amalga oshiriladi.

Matnlarni milliy-madaniy nuqtai nazardan qarab chiqish ularni differentsiatsiyalashni va eng avvalo, stilistik differentsiatsiyalashni talab qiladi. Faraz qilish mumkinki, bu o'ziga xos xususiyat terminologik leksikaning internatsionalligi va ilmiy muammolarning umumiyligi sababli ilmiy, rasmiy-ish matnlarida ancha kam namoyon bo'ladi. Milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlar ma'lum darajada (fazilatlar) publitsistik, ayniqsa badiiy matnlarda ochiladi. Olamning lisoniy manzarasida borliqning o'ziga xos xususiyatlarining ifodasi o'zining badiiy in'ikosi bilan qo'shilib, yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Ba'zan shunday badiiy matnlar ham uchrab turadiki, bunday matnlarni proektiv matnlar ham deb atashadi, unda ma'lumot ochiq berilmaydi, uni shaxsiy tasavvurlar va xulosa chiqarish bilan anglash mumkin. Bunday matnlarni ma'lumot to'g'ridan-to'g'ri, aniq ifodalangan pragmatik matnlardan farqlash lozim. Og'zaki va yozma adabiyotning ba'zibir janrlari to'laligicha pragmatik matnlardan iborat bo'ladi. Bular ma'lumotlar, lug'atlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, rasmiy xabarlar, hujjatlar, bayonnomalar, ya'ni barcha ilmiy, o'quv, ma'lumot beradigan adabiyot pragmatik matnlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular chet elliklarning (ayniqsa milliy maktablar o'quvchilarining) tushunishlari uchun yetarli darajada soddadir.

Proektiv matnlar idrok qilish uchun ancha murakkab bo'lib, ularga birinchi navbatda badiiy adabiyot, keyin publitsistika va so'zlashuv tili kiradi. "Agar badiiy va publitsistik matnlarni pragmatik tarzda bayon qilinsa, — deb yozadilar E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov "Til va madaniyat" kitobida, ulardagi eng muhim narsa - badiiylilik, hayajonlilik (emotsionallik), ta'sirchanlik yo'qoladi" (Vereshchagin, Kostomarov 1990: 113). Shu bilan birga, qo'shimcha qilib aytish mumkinki, ularning milliy-madaniy xususiyati ham yo'qoladi. Badiiy matnlarning aynan mana shu komponenti idrok qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va shu sababli alohida e'tiborni talab qiladi.

Badiiy matn tahlili matnga kiritilgan estetik-bilish ma'lumotini, shu jumladan kulturologik ma'lumotni o'zlashtirishga ko'maklashadigan badiiy matn tahlilini shunday talqin qilishni ko'zda tutadiki, uning maqsadi badiiy matnni madaniyatning milliy xususiyati, semantikasi (ma'nosi) va timsoli bilan anglashdan iborat lingvokulturologik izohni talab etadi.

Lingvokulturologik tahlilning maqsadi — lingvomadaniy vaziyat matnda qanday aks etadi, uning umumiy madaniy mazmuni va qadriyatli mo'ljallari qanday ekanligini ko'rsatishdir. Matnning madaniy mazmuni uning tematikasida, kompozitsiyasida (syujet, fabula, personajlar) va sarlavhada namoyon bo'ladi. Ammo buning hammasi madaniy konnotatsiya bilan uzviy bog'langan matnning mazmuni orqali tushunarli bo'ladi. Shuning uchun leksik bosqichda lingvomadaniy, yoki konseptual maydonlar, madaniyat konseptlari yoki lingvokulturemalar (V.V. Vorobev), logoepistemalar (V.G. Kostomarov) — til va madaniyatning yaxlitlashtirilgan birliklarini tashkil qiladi. Leksik-frazeologik bosqichda matnning lingvokulturologik tahlili quyidagilardan iborat:

- milliy-madaniy semantikali til birliklarini aniqlash;
- ona tili va madaniyatidagi faktlar bilan solishtirish, til birliklaridagi umumiy va milliy o'ziga xos xususiyatlarni ajratish.

Lingvomadaniyatshunoslik birliklarini o'rganish bo'yicha to'plangan materiallar va ularni qayta ishlash quyidagi qisqacha xulosalarni chiqarish imkoniyatini beradi:

1. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikda lingvoo'lkashunoslikning nazariy asosi deb qaraladi; u madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligini va o'zaro munosabatini faoliyatda o'rganadigan sintezlovchi tipdagi kompleks fan sifatida o'rganiladi va bu jarayonni tilga oid va tildan tashqari (madaniy) mazmunda aks ettiradi.

2. Lingvomadaniyatshunoslikda zamonaviy ustunliklar va madaniy yo'l-yo'riqlarga yo'naltirilgan tizimli normalar, umumbashariy qadriyatlar va metodlar qo'llaniladi.

3. Olimlar lingvokulturema va logoepistema tushunchalarini lingvomadaniyatshunoslikning birliklari deb ajratib ko'rsatadilar.

4. Lingvokulturema zamonaviy tilshunoslikda darajalar

orasidagi kompleks birlik sifatida qaralib, unda lingvistika va ekstralingvistikaga oid dialektik bog'liqliklar ifoda etilgan.

5. Logoepistema ko'pbosqichli muhim lingvoo'lkashunoslik birligi sifatida tushunilib, uning mazmuni so'zda, so'z birikmasida, frazeologizmدا yoki qanotli iboralarda ifodalanishi mumkin. U matnda "o'tmish sadosi" degan mazmunni ifodalaydi.

6. Logoepistema qandaydir pretsedent (nufuzli) mulohazaning elementi bo'lgan so'z, tag bilim (qo'shimcha bilim), butun matnni eslashga majbur qiladigan ishorani o'z ichiga olishini ko'rsatib beradi.

7. Tag (yoki qo'shimcha) bilimlar individning ma'lum bir lingvo-ijtimoiy-madaniy guruhga mansub ekanligi haqidagi ma'lumotning mavjudligini hamda u tomonidan makro va mikropresuppozitsiyani tushunib, anglab yetishni nazarda tutadi.

8. Pretsedentlik (nufuzlilik) qo'shimcha bilimlarning eng muhim xususiyatidir.

9. Ifoda shaklidan qat'iy nazar (so'z, so'z birikmasi, gap) logoepistema ortida doimo qandaydir matn, u timsoli vazifasida chiqayotgan pretsedent (nufuzli) vaziyat turadi.

## **LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANI BO'YICHA O'QUV LUG'ATI (GLOSSARIY)**

“**ADABIYLASHTIRISH JARAYONI**” o'protsess “oliteraturivanie” — Ma'lum hududda istiqomat qiluvchi kishilar og'zaki so'zlashuv tili va dialekt nutqi doirasidan endigina chiqqan so'z va iboralar, morfologik elementlar va sintaktik konstruksiyalar, dastavval adabiy tilning ogzaki normalari bo'lib sanaladi va ancha uzoq davom etgan tekshirishlardan, qo'llanishlardan keyin yozma adabiy tilga o'tishi mumkin. Bu jarayoi “adabiy lashtirish” jarayoni hisoblanadi.

**ADABIY NORMA** — kodifikatsiyalangan, barqaror, shu bilan birlikda doimo rivojlanib boruvchi (dinamik), variantlilik xususiyatiga ega bo'lgan, til sistemasi tomonidan yo'l qo'yilgan til hodisalarining yig'indisi bo'lib, ma'lum tilda so'zlovchilar nutqida

tanlab olingan va mustahkamlangan, shuningdek, ma'lum davr ichida adabiy tilni mukammal egallagan kishilar uchun umummajburiy bo'lgan lingvistik hodisa.

**ADABIY NORMA VARIANTLILIGI** — denotativ - signifikativ ma'nolarning umumiyligi, tilda bajarib kelayotgan funktsiyasiniig aynan bir xilligi, o'zining leksik-grammatik ma'nolarning tengligi bilan xarakterlanadigan, adabiy tilga xos bo'lgan, adabiy norma tomonidan qat'iy mustahkamlangan ikki yoki undan ortiq til birliklaridir.

**ADABIY NORMA KODIFIKATSIYASI** — Faqat adabiy tilga xos bo'lgan, namunaviy til birliklarining ma'lum tilda so'zlovchilar uchun umumqo'llanishi mumkinligini nufuzli lingvistik manbalarda (lug'atlarda, qo'llanmalarda, ma'lumotnomalarda) qonunlashtirilib berilishi.

**ADABIY NORMANING BARQARORLIGI (STABILLIGI)** — til birliklarining tez-tez, asossiz o'zgarib turishini istisno qiladigan, ularniig umummajburiy xususiyatlarini ta'minlab turadigan, til an'analarning turliligini isbotlaydigan, til kollektivi tomonidan tan olingan, ko'nikma hosil qilingan, ammo adabiy til rivojlanish jarayonida keskin darajada mutlaq bo'lmay, balki nisbiy xarakterga ega bo'lgan til hodisasidir.

**ADABIY TIL** — Umumxalq tilning ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki ko'rinishi mavjud: 1) yozma adabiy til, 2) og'zaki adabiy til.

**ALOGIZM** — til birliklari ma'nolarining mantiqiy buzilishlari, mantiqqa zid nutqiy hodisa.

**AMFIBOLIYA** — Bunda tamomila boshqa tushuichalar, ma'nolarni anglatadigan ikki til birliklari gap tarkibida bir xil talaffuz qilinadi va normanipng buzilishi sodir bo'ladi. Bundan gashqari, ikki xil talqin etish, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'lgan jumla (gap)ga ham amfiboliya hodisasi deyiladi.

**ANTIPURIZM** — purizm, ya'ni tilni "sof"lashtirish, "tozalash" nazariyasiga qarshi turuvchi, nutqda maqsadga muvofiq qo'llanilgan har qanday til birliklari norma hisoblanadi deb e'tirof etuvchi nazariyadir.



Qiyoslang: purizm

**VULGARIZM** — Adabiy tilning leksikasiga kirmaydigan qo'pol so'z va iboralar, haqorat so'zlar.

Qiyoslang: kakofemizmlar.

**DEONTIK NORMA** — Umumxalq tomonidan ijtimoiy tan olingan standart namunaviy til birliklaridan foydalanish majburiy (hech bo'lmaganda istalgan) bo'lib qolgan davrda vujudga kelgan norma deontik norma deb ataladi.

**JARGON** — Biror guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralar.

**IJTIMOIIY NUFUZZILIK OMILLARI** (faktor sotsialnogo prestija) — til birliklari normasini belgilashda va baholashda eng muhim nolisoniy omil bo'lib, ijtimoiy nufuzli til namunalari ommaviy matbuot vositalari, ya'ni radio, televidenie, kino, teatr, gazeta va jurnallar tomonidan tavsiya qilib boriladi.

**INTERFERENSIYA** — Ona tiliga xos xususiyatlarni o'rganilayotgan tilga o'tkazish hodisasi. (O'rganilayotgan til odatda qarindosh til bo'lmaydi).

**KAKOGRAFIYA** — Ongli ravishda xatolarga yo'l qo'yilgan matnni o'quvchilarga tuzatish uchun berish bilan orfografiyani o'rgatish usuli. Bu usul pedagogik va metodik jihatdan asoslanmagan.

**KAKOFEMIZMLAR** — Bular ko'chma ma'nolarga ega bo'lib, yomon, qo'pol so'zlardir. Badiiy asarlar tilida kakofemizmlar ishlatilishi adabiy normaning buzilishlariga olib keladi.

**KALAMBUR** (so'z o'yini) - So'zlarning ko'p ma'noligiga, fonetik strukturasi bir xilligiga asoslanadigan so'z o'yini, so'zlarni shunday qo'llashdan iborat nutq figurasi. Kalambur hodisasi so'z qo'llash normalari buzilishlari natijasida amalga oshiriladi.

**KALKA** — O'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa bir til birligi. Ular o'z navbatida leksik kalka, semantik kalka, frazeologik kalka va boshqalarga bo'linishi mumkin.

**KISHINING YUQORI NUTQIIY MALAKASI** — Kishilarning so'zlarni aniq tanlay olishi va ularni joy-joyida

qo'llay olishi, o'z fikrini mantiqiy, ifodali, ravshan, nutqiy chechanlik bilan izhor eta bilishlari ularning yuqori nutqiy malakaga erishganligini bildiradi.

**"KOYNE"** tushunchasi — Davlat boshqaruvining rivojlanishi va qabilalarning o'zaro birlashuvi dialektlarning yaqinlashishiga olib keladi, lekin dialektlar tamomila yo'q bo'lib ketmaydi, natijada siyosiy, iqtisodiy boshqaruv va madaniy markazda, unga qaram bo'lgan hududda hamma uchun umumiy bo'lgan til tashkil topadi. Ana shu umumiy til "koyne" deb nomlanadi va bu "koyne"ga (umumiy tilga) adabiy ishlov beriladi, ma'lum darajada u normallashtiriladi.

**KOMMUNIKATIV MAQSADGA MUVOFIQLIK** — Til elementlarini adabiy ifodalashniig to'g'riligi, kishilar fikrlarining o'zaro so'zlashuv jarayonida bir-biriga mos, muvofiq ravishda kelishi. Normativlikni aniqlashda bu mezon juda muhimdir, chunki til, eng avvalo, aloqa vositasi, har qanday aloqa (so'zlashuv) esa biror maqsadga qaratilgan bo'ladi.

**NUTQ BAHOSI YOKI NUTQIY BAHO** - Tinglovchilarning yoki so'zlovchilarning nutq jarayonida nutq faktlariga bergan tavsifi.

**NUTQ MADANIYATI** — ikki xil ma'noda tushuniladi:

Tilshunoslik fanining jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrda nutqdan foydalanish jarayonini o'rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo'lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug'ullanadigan bo'limi.

Nutqning normativligi, uning ma'lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so'zlashuvchi kollektiv tomonidan qo'yiladigan talablarga mosligi; talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, forma yasalishi, so'z birikmasi va gap tuzish normalariga amal qilish. Nutqning normativligi fikrning aniq, ravshan va sofligini ham o'z ichiga oladi.

**NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHASINING MUHIM TOMONLARI** — Bular quyidagilar: a) tilni, ya'ni to'g'ri so'zlashni his qila olish; b) aniq, ravshan va ifodali nutq tuzishning mezon va usullarini egallash; v) egallagan lisoniy bilimlarni kundalik og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish; g) o'zgalarning (suhbatdoshning) nutqini nozik did bilan tushuna olish qobiliyatini shakllantirish.

**NUTQ ODOBI** (rechevoy etiket) — kishilar oʻrtasidagi nutqiy aloqa jarayonida qoʻpol soʻz va iboralar qoʻshmasdan, oʻz fikrlarini aniq, pishiq, xatosiz va chiroyli qilib ifodalash.

**NUTQNING TOʻGʻRILIGI** — nutqning toʻgʻri boʻlishi uning bosh kommunikativ sifati sanaladi. U tomonlarning: soʻzlovchi va tinglovchining, yozuvchi va oʻquvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini taʼminlaydi. Bundan tashqari u nutqning muayyan bir davr adabiy tili normalariga qatʼiy va toʻliq mos kelishi, uning orfoepik, imloviy, lugʻaviy va grammatik normalarini mohirona egallashini koʻzda tutadi. Nutq toʻgʻriligi oʻzining mohiyat-eʼtibori bilan maktab taʼlimi predmetidir. Oʻrta maktab dasturi, umumiy tarzda, toʻgʻri nutq malakasini shakllantirishni koʻzda tutadi.

**NUTQNING ANIQLIGI** — Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biri boʻlib, yaxshi nutqning shakllanish sharoitlaridan biridir. Agar toʻgʻrilik nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy omil, zaruriy belgi sifatida qaralsa, aniqlik uning shakllanishiga xizmat qiluvchi, nolisoniy holatlarni ham nazarda tutadi. Bu eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi boʻlgan til materiali oʻrtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

**NUTQNING MANTIQUIYLIGI** — Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari: toʻgʻrilik va aniqlik bilan chambarchas bogʻlangandir. Chunki, grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilmagan nutq ham fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik, ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va oʻquvchiga ifodalanayotgan fikrning toʻliq borib etmasligiga, baʼzan umuman anglashilmasligiga olib kelishi mumkin.

**NUTQNING TOZALIGI** — Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til normasiga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, ideal nutq adabiy til talablariga mos holda tuzilgan boʻlishi, turli gʻayriadabiy til elementlaridan xoli boʻlishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni boʻlib, nutqiy tozalikning nolisoniy jihatlari ham undan kam boʻlmagan ahamiyatga ega.

**NUTQNING TAʼSIRCHANLIGI** — nutqning asosiy sifatlaridan biri boʻlib, toʻgʻrilik va aniqlik ham, mantiqiy va tozalik

ham adresatga ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan sifatlarda lisoniy omillar birinchi o'rinda tursa, ta'sirchanlik ular bilan birga keng doirada nolisoniy omillarni ham qamrab oladi.

**PARAZIT SO'ZLAR** — kontekstning umumiy mazmuniga hech qanday yangi ma'no kiritmaydigan, adabiy normaga xilof, beta'sir so'z va so'z birikmalaridir.

**PLEONAZM** — Nutqda bir-biriga yaqin ma'noli birliklarning (ortiqcha holatda) qo'llanilishi, bir informatsiyaning bir necha marta ifodalanishi.

**PURIZM** — Tilning sofligini saqlashga urinish, unda yuz beradigan har qanday yangiliklarga, shu jumladan, neologizmlarga, chet tillardan so'z o'zlashtirilishlarga qarshi chiqadi.

**RASMIY KODIFIKATSIYA** — maxsus atamashunoslik komissiyalarining, ko'chalar, shaharlar, qishloqlar nomlarini qo'yish va o'zgartirish bo'yicha qo'mitalarning faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu tipdagi kodifikatsiya turg'un, mukammal bo'lmaydi, aksincha sun'iy bo'ladi, chunki bunda etarli darajada nazariy-tarixiy lingvistik asos bo'lmaydi va o'zlashtirilgan so'zlarda bu kodifikatsiya asl manba tilga suyanadi, o'zlashtirib olgan til sistemasi esa hisobga olinmaydi.

Qiyoslang: ilmiy kodifikatsiya.

**RITORIKA** — Notqlik, voizlik san'ati nazariyasi.

**SO'Z SAN'ATI** — nutq vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanilgan holda chiroyli, yaxshi gapirish va yozish san'atidir.

**SO'ZLASHUV NUTQI** — Nutqning, odatda, kitobiy nutqqa qarama-qarshi qo'yiluvchi turi. So'zlashuv nutqi o'ziga xos bir qator belgilari bilan, jumladan, oldindan o'ylash va til materialini oldindan saylashning bo'lmasligi, nutqiy aloqaning suhbatdoshlar orasida bevosita bo'lishi, nutq aktining erkinligi rasmiylikdan holi bo'lishi va shu kabilar bilan xarakterlanadi. Tilning barcha sohalari (fonetika, leksika, frazeologiya, grammatika va boshqalar) bo'yicha ham so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, fonetika bo'yicha bu narsa o'ziga xos talaffuzda ko'rinsa, leksikada esa o'ziga xos so'zlarga egaligida ko'rinadi va hokazo.

**TAVTOLOGIYA** — adabiy normaga zid hodisa bo'lib, bir mazmunni boshqa so'z yoki so'zlar bilan takroran ifodalash, so'zni ortiqcha ishlatish.

**TENG HUQUQLI ADABIY VARIANT** – til birliklarining ma’no jihatdan ham, funksiyasi jihatdan ham bir-birita mos kelib, faqat tashqi ko‘rinishidan bir oz (formal) farq qilish holati.

**TENG HUQUQLI BO‘LMAGAN ADABIY VARIANT** – til birliklarining nafaqat strukturasi, tashqi ko‘rinish bilan, shuningdek, qo‘llanish doirasi, ekspressiv-stilistik ottenkalarining norma darajasidagi til birliklaridan har xilligi bilan ham farq qilish holati.

**NUTQIY DID** (Yazikovoy vkus, Yazikovo`e chute) - individual nutqiy sistema bo‘lib, til sistemasining konkret ko‘rinishidir, ya’ni til jamoasi a’zosi ana shu jamoa til materiali asosida o‘zining shaxsiy nutq sistemasini yaratadi.

**NUTQ IDEALI** – Adabiy tilning yuksak darajada silliqlangan, sayqallangan, ishlov berilgan; normallashtirilgan holati, darajasi til ideali bo‘lib hisoblanadi.

**NUTQ MADANIYATI** – Til madaniyati adabiy til sifat va fazilatlarining rivojlanishidagi aniq ifodalangan an’analaridir. Bunday sifat va fazilatlar quyidagilar: turg’unlik va barqarorlik, turli xil ma’no ottenkalarining aniq, tushunarli va engil qilib berilishi, nutqning originalligi kabilar.

**TIL ESTETIKASI** – Bu til madaniy taraqqiyotining qonuniyatlarini, uning badiiy shakllarini belgilovchi, tildagi barcha jozibalik va go‘zalliklarni o‘zida mujassamlashtiruvchi kategoriyadir.

**TILNING ESTETIK FUNKSIYASI** – Tilning aloqa aralashuvida turli his-tuyg‘u, emotsiya, ta’sirchanlikni ifodalash funksiyasi.

**EVJEMIZM** – Narsa va hodisalarning ancha yumshoq formadagi ifodasi: qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z va iborani qo‘llash.

**EKZOTIK LEKSIKA** – O‘zga tillardan o‘zlashtirilgan, nutqqa alohida bir rang-baranglik (kolorit) berish uchun qo‘llanadigan so‘z va iboralar.

**YUQORI MADANIY NUTQ** (Visokaya kultura rechi) – So‘zlovchi yoki yozuvchi fikrlarining, sezgisi va hissiyotlarini eshituvchi yoki o‘quvchiga to‘la etib borishi uchun tilning qudratli ifodaviy vositalaridan unumli foydalanilgan nutq.

**“YAXSHI NUTQ” TUSHUNCHASI** – Yaxshi nutq to‘g‘ri variantlar orasidan eng foydali, namunali variantni tanlab olishni

talab etadi. Yaxshi nutq sharoit taqozosiga ko'ra til vositalaridan maqsadga muvofiq va mohirona foydalana olishni nazarda tutadi. Yaxshi nutq to'g'rilik, tozalik va aniqlik, qisqalik, ifodalilik talablariga javob berishi kerak. Yaxshi nutq talablari nutqiy to'g'rilik bilan birgalikda nutq madaniyatining asosiy shartlarini yuzaga keltiradi.

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. М.: Изд.Флинта-Наука. 2010.
2. Арутюнова Н.Д. Культурные концепты. М.: 1991
3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. Языки русской культуры. М.: 1999:
4. Аскольдов-Алексеев С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. М.:Academia, 1997.
5. Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики. Филология масалалари. Тошкент: 2004, 4-сон.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: 1969.
7. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Перевод с франц. языка. М.: Прогресс, 1974.
8. Большой Энциклопедический словарь. М.: 1998.
9. Брутян Г.А. Гипотеза Сепира-Уорфа. — Ереван: 1968.
10. Вежбицкая А.: Язык, культура, познание. — М.: Русские словари, 1996.
11. Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики. — М.: Языки славянской культуры, 2001.
12. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Дом бытия языка. В поисках путей развития лингвострановедения. Концепция лингвоэпистемы. М.:2000.
13. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. — М.: 1990.

14. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. — М.: 1980.

15. Воробьев В.В., Саяхова Л.Г. Языковая личность. Лингвокультурология. Лингводидактика. Лексикография. Уфа: 2001.

16. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). — М.: 1997.

17. Гак В.Г. Языковые преобразования. — М.: 1998

18. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: 1981.

19. Гачев Т.Д. Образ в художественной культуре. М.:1981.

20. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человеческого рода. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. Составитель В.А.Звегинцев. М.:1956.

21. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. — М.: 1995.

22. Гухман М.М. Лингвистическая теория Л. Вейсгербера/ /Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. — М.: 1961.

23. Залевская А.А. Национально-культурная специфика картины мира и различные подходы к ее исследованию. Языковые сознание и образ мира. Сборник статей. Отв. Ред. Н.В.Уфимцева. М.:2000.

24. Звегинцев В.А. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. М.:1956.

25. Иванова С.В. Культурологический аспект языковых единиц. Уфа: 2002.

26. Караулов Ю.Н. Русский язык и русская языковая личность. М.: Изд. ЛКИ, 2007.

27. Карасик В.И. Языковой круг. Личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002.

28. Кириллов Н. Карманный словарь иностранных слов. СПб.: 1846.

29. Комлев Н.Г. Слово в речи. Денотативные аспекты. — М.: 1992.

30. Колесов В.В. Язык и ментальность. СПб.: Петербургское Востоковедение: 2004.

31. Костомаров В.Г.: Прохоров Ю.Е.: Чернявская Т.Н. Язык и культура. Новое в теории и практике лингвострановедения: VIII Конгресс МАПРЯЛ. — Регенсбург: 1994.

32. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Понятие логоэпистем/ Россия и Запад: диалог культур. Вып.2. — М.: 1999

33. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Старые мехи и молодое вино. Из наблюдений над русским словоупотреблением конца XX века. — СПб. — Златоуст: 2001.

34. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. — М.: Гнозис, 2002.

35. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. М.: Изд-во МГУ, 1996.

36. Лингвистический энциклопедический словарь. Под ред. В.Н. Ярцевой. М.: 1990.

37. Лотман Ю.М. Семиотика культуры и понятие текста. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. М.: 1997.

38. Лучинина Е.Н. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания// Критика и семиотика. — Тверь: 2004. Вып. 7.

39. Маматов А.Э. Лингвомаданиятшунослик. Лингвокультурема ва логоэпистема. Хорижий филология. Самарканд: СамДЧТИ, 2015. № 1.

40. Маслова В.А. Связь мифа и языка. Фразеология в контексте культуры. М.: 1991.

41. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. — М.: Наследие, 1997.

42. Маслова В.А. Homolingualis в культуре. М.: Гнозис, 2007.

43. Маслова В.А., Пименова М.В. Коды лингвокультуры. Учеб. пособие. М.: Изд. Флинта-Наука, 2016.

44. Нахимова Е.А. Прецедентные имена в массовой коммуникации. — Екатеринбург: 2007.

45. Пименова М.В. Типология структурных элементов концептов внутреннего мира (на примере эмоциональных концептов). Вопросы когнитивной лингвистики. Кемерово: 2004.



46. Пископпель А. Категория личности в перспективе европейской культурной традиции // Вопросы методологии. - М.: 1997. - № 1,2
47. Планк М. Единство физической картины мира. М.:1966.
48. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека. Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. М.: Наука, 1988.
49. Потебня А.А. Мысль и язык. Слово и миф. М.: Правда, 1989.
50. Проблемы функциональной грамматики. — М.: 2003.
51. Прохоров Ю.Е., Стернин И.А. Русские: коммуникативное поведение. — М.: Наука — Флинта, 2007.
52. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. Учеб. пособие. М.: Флинта-Наука, 2010.
53. Сабитова З.К. Лингвокультурология. М.: Изд. Флинта-Наука, 2015.
54. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: 2006.
55. Сафаров Ш. Тилшуносликнинг навбатдаги вазифалари. Хорижий филология. Самарқанд: Сам ДЧТИ. 2016, № 3.
56. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. Пер. с англ. яз. М.: Прогресс, 2002.
57. Сергеева А.В. Русские. Стереотипы поведения, традиции, ментальность. — М.: 2004.
58. Серебренников Б.А., Постовалова В.И., Кубрякова Е.С., Телия В.Н. “Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира”). М.:1988.
59. Серебренников Б.А. О материалистическом подходе к явлениям языка. М.: 1993.
60. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. — М.: Академия, 2000.
61. Советский Энциклопедический словарь. 3-е изд. Гл. ред. А.М.Прохоров. М.: 1985.
62. Сорокин Ю.А. Этническая конфликтология. — Самара: 1994.
63. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1977.
64. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: 1997.

65. Стернин И.А. Язык и коммуникация. Изучение и обучение. Вып. 2. Орел.: 2001.

66. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры. Фразеология в контексте культуры. М.: Языки русской культуры, 1999.

67. Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии. Филология и культура. Материалы 11-международной конференции. В 3-х частях. Тамбов, 1999.

68. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Языки русской культуры, 1996.

69. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: 2000.

70. Философский словарь. Под ред. И.Т. Фролова. М.: 1987.

71. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии. М.: Изд. Флинта-Наука. 2009.

72. Шанский Н.М., Боброва Т.А. Школьный этимологический словарь русского языка. Значение и происхождение слов. 2-е изд. М.: 1997.

73. Шейгал Е.И., Буряковская В.А. Лингвокультурология: Языковая репрезентация этноса. — Волгоград: 2002.

74. Эйнштейн А. Собрание научных трудов. М.: 1967. Т.4.

75. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар. Филология масалалари. Т., 2011.

76. Якобсон Р.О. Введение в анализ речи. Новое в лингвистике. Вып.2. М.: Прогресс, 1962.

77. Boas F. Introduction to the Handbook of American Indian Languages. Washington: DC, Georgetown Univ. Press 1966.

78. Hymes D.H. Objectives and Concepts of Linguistic Anthropology// The Teaching of Anthropology. University of California Press, 1963. — С.277.

79. Duranti A. Linguistic Anthropology. Cambridge University Press, 1992. — С.3.

80. Hymes D.H. A Perspective for Linguistic Anthropology// Horizons of Anthropology. — Chicago, 1964. — C.93.

81. Hall E.T. How cultures collide // Weaver G.R. (ed.) Culture, communication, and conflict: readings in intercultural relations. — Needham Heights, MA: Simon and Schuster Publishing, 1998. — P. 9-16.

82. Clyne M. Inter-cultural Communication at Work: Cultural Values in Discourse. — Cambridge, 1994.

83. Leech G.N. Principles of Pragmatics. — London, 1983.

84. Samovar L.A., Porter R.E. Communication Between Cultures. Wadsworth Publishing Company, 2-nd edition. — 1995. 206-210.

85. Brown P., Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

<http://bugabooks.com>

<http://ladies.academ.org>

<http://ru.wikipedia.org>

<http://wiki.myword.ru>

<http://www.countries.ru/library>

## **MUNDARIJA**

|                       |          |
|-----------------------|----------|
| <b>SO'ZBOSHI.....</b> | <b>3</b> |
|-----------------------|----------|

### **1-Bob. TIL MADANIYAT HODISASI SIFATIDA.**

|                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------|----|
| 1.1 Lingvokulturologik bilimlar tarixidan.....                             | 5  |
| 1.2. Til-madaniyat-etnos.....                                              | 17 |
| 1.3. Moddiy va ma'naviy madaniyat.....                                     | 23 |
| 1.4. Lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistika.....                      | 38 |
| 1.5. Lisoniy shaxs tushunchasi.....                                        | 46 |
| 1.6. Til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi<br>vosita sifatida..... | 57 |

### **II-BOB. TIL BIRLIKLARINING MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGI**

|                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 2.1. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat<br>munosabatini aks ettiruvchi fan yo'nalishi..... | 71  |
| 2.2. Lingvomadaniy birliklar.....                                                                 | 78  |
| 2.3. Lingvokulturema va logoepistema.....                                                         | 80  |
| 2.4. Lingvokulturema va konsept tushunchalari.....                                                | 94  |
| 2.5. Tag yoki qo'shimcha (fon) bilimlar.....                                                      | 102 |
| 2.6. Ta'lim tizimida til va madaniyat.....                                                        | 106 |
| 2.7. Lisoniy interferentsiya va lingvomadaniy<br>interferentsiya.....                             | 113 |

### **III.BOB LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MILLIY- MADANIY ASPEKTD**

|                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 3.1. So'zning semantik tarkibi.....                                                 | 116 |
| 3.2. Nominatsiya usullari va so'zning ichki shakli.....                             | 123 |
| 3.3. So'z badiiy obrazlar va timsollarning milliy<br>o'ziga xos asosi sifatida..... | 125 |

|                                               |     |
|-----------------------------------------------|-----|
| 3.4. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 3.5. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 3.6. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |

## QO'LLANILGAN ADABIYOT MANBA'LARI

|                                             |     |
|---------------------------------------------|-----|
| 1. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 2. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 3. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |
| 4. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 5. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 6. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |

## QO'LLANILGAN ADABIYOT MANBA'LARI

|                                             |     |
|---------------------------------------------|-----|
| 1. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 2. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 3. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |
| 4. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 5. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 6. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |

## QO'LLANILGAN ADABIYOT MANBA'LARI

|                                             |     |
|---------------------------------------------|-----|
| 1. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 2. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 3. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |
| 4. Milliy o'ziga xos leksik guruhlar.....   | 127 |
| 5. Frazologiya milliy-madaniy aspektda..... | 135 |
| 6. Matn milliy-madaniy aspektda.....        | 140 |

## ОГЛАВЛЕНИЕ

|                          |   |
|--------------------------|---|
| <b>ПРЕДИСЛОВИЕ</b> ..... | 3 |
|--------------------------|---|

### **1. ГЛАВА. ЯЗЫК КАК ФЕНОМЕН КУЛЬТУРЫ**

|                                                                |    |
|----------------------------------------------------------------|----|
| 1.1. Из истории лингвокультурологических знаний.....           | 5  |
| 1.2. Язык - культура - этнос.....                              | 17 |
| 1.3. Материальная и духовная культур.....                      | 23 |
| 1.4. Лингвокультурология и этнолингвистика.....                | 38 |
| 1.5. Языковая личность.....                                    | 46 |
| 1.6. Язык и культура как способ<br>выражения картины мира..... | 57 |

### **2. ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНО – КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ**

|                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 2.1. Лингвокультурология как самостоятельная<br>дисциплина выражающая отношения языка и культуры..... | 71  |
| 2.2. Лингвокультурологические единицы.....                                                            | 78  |
| 2.3. Лингвокультурема и логоэпистема.....                                                             | 80  |
| 2.4. Лингвокультурема и концепт.....                                                                  | 94  |
| 2.5. Фоновые знания.....                                                                              | 102 |
| 2.6. Язык и культура в системе образования.....                                                       | 106 |
| 2.7. Языковая интерференция и лингвокуль-<br>турологическая интерференция.....                        | 113 |

### **3. ГЛАВА. ЛЕКСИЧЕСКИЕ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В НАЦИОНАЛЬНО – КУЛЬТУРНОМ АСПЕКТЕ**

|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 3.1. Семантическая структура слова. Лексический<br>фон как указатель отношения между словом и<br>культурой..... | 116 |
| 3.2. Способы номинации и внутренняя<br>форма слова.....                                                         | 123 |
| 3.3. Слова как национально-специфическая<br>основа образов и символов.....                                      | 125 |
| 3.4. Национально- специфические<br>лексические группы.....                                                      | 127 |
| 3.5. Фразеология в национально- культурном<br>аспекте.....                                                      | 135 |
| 3.6. Текст в национально – культурном аспекте.....                                                              | 140 |

## TABLE OF CONTENTS

|                                                                                                                                     |          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>FOREWORD.....</b>                                                                                                                | <b>3</b> |
| <b>1. CHAPTER. LANGUAGE AS A PHENOMENON OF CULTURE</b>                                                                              |          |
| 1.1. From the history of linguocultural knowledge.....                                                                              | 5        |
| 1.2. Language – culture – ethnos.....                                                                                               | 17       |
| 1.3. Material and spiritual culture.....                                                                                            | 23       |
| 1.4. Linguoculturology and ethnolinguistics.....                                                                                    | 38       |
| 1.5. Language personality.....                                                                                                      | 46       |
| 1.6. Language and culture as a way of expressing<br>the picture of the world.....                                                   | 51       |
| <b>2. CHAPTER. NATIONAL – CULTURAL FEATURES OF LANGUAGE UNITS</b>                                                                   |          |
| 2.1. Lingvokulturologiya as an independent discipline<br>expresses the relationship of language and culture.....                    | 71       |
| 2.2. Linguistic and cultural units.....                                                                                             | 78       |
| 2.3. Lingvokultura and logoeepistema.....                                                                                           | 80       |
| 2.4. Lingvokultura and concept.....                                                                                                 | 94       |
| 2.5. Background knowledge.....                                                                                                      | 102      |
| 2.6. Language and culture in the education system.....                                                                              | 106      |
| 2.7. Language interference and linguocultural<br>interference.....                                                                  | 113      |
| <b>3. CHAPTER. LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE NATIONAL – CULTURAL ASPECT</b>                                               |          |
| 3.1. Semantic structure of the word. Lexical<br>background as an indicator of the relationship<br>between the word and culture..... | 116      |
| 3.2. The methods of nomination and the internal<br>form of the word.....                                                            | 123      |
| 3.3. Words as a national-specific basis<br>for images and symbols.....                                                              | 125      |
| 3.4. National-specific lexical groups.....                                                                                          | 127      |
| 3.5. Phraseology in the national cultural aspect.....                                                                               | 135      |
| 3.6. Text in the national cultural aspect.....                                                                                      | 140      |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



**ZAMONAVIY LINGVISTIKA**

**ABDI ESHANQULOVICH MAMATOV**

*O'quv qo'llanma*


5220100 – Jurnalistika (OAV Faoliyati)  
Toshkent – “NOSHIR” – 2019

Muharrir S. Matchon  
Rassom-dizayner Sh. Odilov  
Texnik muharrir D. Safayeva  
Musahhih S. Safayeva  
Kompyuterda tayyorlovchi U. Abdullayeva

Ushbu kitobning muharriri S. Matchon, rassom-dizayneri Sh. Odilov, texnik muharriri D. Safayeva, musahhihi S. Safayeva, kompyuterda tayyorlovchi U. Abdullayeva.

Kitobning muharriri S. Matchon, rassom-dizayneri Sh. Odilov, texnik muharriri D. Safayeva, musahhihi S. Safayeva, kompyuterda tayyorlovchi U. Abdullayeva.





**Nashriyot litsenziya raqami AI № 254, 31.12.2014.**

Bosishga 2019 yil 02 dekabrda ruhsat etildi.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . "ofset qog'oz" Times TAD garnituras.

Ofset qog'oz. Ofset usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog'i 10,5 Nashr bosma tabog'i 10,5

Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 22

"NOSHIR" QK nashriyoti 100020. Toshkent sh, Langar ko'chasi. 78.

"NOSHIR" O'zbekiston-Germaniya qo'shma korhonasi bosmaxonasida chop etildi, 100020. Toshkent sh., Langar ko'chasi. 78.

A.E. MAMATOV

# ZAMONAVIY LINGVISTIKA



ISBN 978-9943-5484-4-2



9 789943 548442